

81
Sh-72

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

T. F. SHODIYEV

ONA TILI



81
Sp-42

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Shodiyev F. T.

ONA TILI

**Oliy o‘quv yurtlari pedagogika fakultetlarining boshlang‘ich
ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma**

-5218-

Samarqand-2019

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI



F.T. Shodiyev. Ona tili. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2020, 400 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichidagi lisoniy ta'lim bo'yicha amaldagi o'quv rejasi asosida tuzilgan dastur mazmuniga muvofiq yaratilgan. Unda umumiy tilshunoslik fani haqida qisqacha ma'lumot, ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, imlo qoidalari, Ona tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, leksikografiyasi, hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi, fonetik tizimi, grafikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, grammatik qurilishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi, Ona tili uslublari yuzasidan nazariy bilimlari yoritildi hamda talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish haqidagi bilimlar yuzasidan amaliy malaka hosil qilish mazmuni ochib berildi. O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari pedagogika fakultetlari boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash bo'limining talabalariga mo'ljallangan. Samarqand davlat universiteti kengashining 2019-yil 5-sentyabrdagi 1-sonli qaroriga asosan Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalariga uchun o'quv qo'llanmasifatida tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir:

Mardon Boltayev

Samarqand davlat universiteti dotsenti

Taqrizchilar:

U. Sanaqulov

filologiya fanlari doktori, professor

G. Fayzullayeva

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

G. Abdurahmonova

Samarqand shahri, 7-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ISBN 978-9943-6429-5-9

© Samarqand davlat universiteti, 2020

MUNDARIJA

Kirish. Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot	3
Fonetika va fonologiya.....	32
Fonologiya.....	43
Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari.....	54
Hozirgi o'zbek adabiy tili undosh fonemalari.....	59
Fonetik hodisalar.....	71
Grafika va orfografiya.....	82
Orfoepiya.....	92
Leksikologiya.....	94
Frazeologiya.....	108
Leksikografiya haqida ma'lumot.....	115
Morfemika haqida ma'lumot.....	126
So'z yasalishi.....	134
Grammatika.....	146
Sintaksis haqida umumiy ma'lumot.....	227
Qo'shma gap.....	289
Dalubshunoslik. Nutq uslublari.....	331
Tilsh belgilarning ishlatilishi.....	341
Foydalanilgan adabiyotlar.....	347
Illovalar.1.1 Ona tilining asosiy imlo qoidalari.....	350
Illovalar. 1.2 Ona tili qo'shimchalari.....	361

KIRISH

Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot

Ona tili – Bosh qomus kabi erkli millatning tarixiy va muqaddas hujjatidir. Darhaqiqat, har bir millat o'z ona tili orqali ajdodlardan avlodlariga milliy tajribasini, qaymoq va ibratli qaynoq tarixini, yangilangan hamda yuksalgan dunyoqarashini, olmos tafakkurini, tarbiya tutumini ulashadi. Shuning uchun ham til kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy ong mahsuli sifatida yuzaga kelgan moddiy, ma'naviy va madaniy boyliklarning ifodasi bo'lgan murakkab tizimdir. Tilning tabiati, mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni, ichki mexanizmi va ishlash tamoyillarini ilmiy nazariy jihatdan idrok etishga intilish, uni ta'riflashdagi turlicha nuqtai nazarlar ifodasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, 1) til ijtimoiy ahamiyati e'tiboriga ko'ra: kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa quroli bo'lib, xabar yetkazish, saqlash va qabul qilish vositasidir; 2) ichki qurilish nuqtai nazaridan: til turli unsurlar va ularning o'zaro munosabatini ta'minlovchi qoidalar kombinatsiyasidir; 3) doimiy barqarorligi, yashovchanligi jihatidan: til jamiyat a'zolarining umumiy faoliyati mahsuli bo'lib, nutq tovushlarining doimiy muayyan ma'no doirasida birlashuvi asosida yuzaga chiquvchi hosiladir; 4) aloqa almashuv (kommunikatsiya) nazariyasiga ko'ra: til ma'no tashuvchi kodlar majmuyidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, til bevosita kuzatishda berilmagan ijtimoiy hodisadir. U jamiyat a'zolarining ongida yashovchi, ular uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan hamda fikrni shakllantirish va uni nutq jarayoni asosida ifodalashga xizmat qiladigan unsurlar va bu unsurlarni o'zaro birikishi, bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisidan iborat murakkab sistemadir.

Nutq esa til tizimida mavjud birliklar va qoidalarining so'zlash qobiliyati asosida yakka shaxs tomonidan muayyan kommunikativ (xabar berish, xabar olish) maqsadni amalga oshirish uchun ro'yobga chiqarilishidir. Tilning umri uni yaratgan xalq umridek uzoq muddatli, xizmat doirasi keng, doimiy rivojlanib boyib boruvchi, hajmi o'lchovsizdir. Nutq esa umri qisqa, hajman chegarali bo'lib, monolog, dialog, polilog holatda, og'zaki va yozma shaklda hamda turli badiiy janrlarda (roman, she'r, drama) yuzaga chiquvchi hosiladir. Shunday qilib, til va nutq orasidagi dialektik aloqa quyidagicha mazmun kasb etmoqda: Birinchidan, til bevosita kuzatishda berilmagan aloqa imkoniyati - nutq esa ushbu imkoniyatning voqelanishi, ro'yobga chiqishidir. Ikkinchidan, til barcha uchun umumiy – nutq esa har bir kishining xususiy faoliyatidir. Uchinchidan, tilning faoliyat muddati cheksiz, uzoq – nutqning faoliyat muddati esa cheklangan, qisqa. Tortinchidan, tildan foydalanish imkoniyati makon va zamon bilan bog'liq emas – nutq jarayoni esa muayyan makon va zamon bilan bog'langan bo'ladi. Shuningdek, til birliklari miqdoran chegaralangan – nutq birliklari esa cheklanmagan, davomiy bo'ladi. Shu bilan birga, til barqaror (statik) hodisa – nutq esa doimiy harakatlanuvchi (dinamik) hodisadir.

Til va nutqqa xos bu kabi umumiy va xususiyliklarning mohiyatini ilmiy asosda o'rganuvchi fan tilshunoslik fanidir. Tilshunoslik fani tarkiban fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya, morfemika, grammatika kabi bir qancha mustaqil, ayni paytda, o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bo'limlardan tashkil topadi.

Tilning tuzilishi

Til tuzilishiga ko'ra murakkab hodisa bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug'at boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o'z tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so'zlarni, iboralarni, grammatik shakl va ko'rsatkichlarni shakllantiradi.

Tovushlardan iborat bo'lgan so'z va iboralar yig'indisi tilning lug'at boyligini tashkil qiladi.

Lug'at boyligidagi so'z va iboralar fikrni ifodalovchi gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Gap, uni qurish qonun-qoidalarini tilning grammatik qurilishi belgilaydi.

Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lug'at boyligi, grammatik qurilishi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining bo'lishini talab qiladi. Har bir konkret til o'zining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemani, til tizimini tashkil etadi.

Til – kishilik jamiyatining kaliti

Til to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lug'at boyligida o'z aksini topadi. Kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan o'zgaradi. Buni til tarixini o'rganish orqaligina sezish mumkin.

O'zbek tili - o'zbek millatining tili, o'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Davlat tili sifatida o'zbek adabiy tilining mavqei

beqiyos darajada o'sdi, xizmat doirasi kengaydi, lug'at tarkibi boyidi, fonetik tizimi, grammatik qurilishning takomillashuvida katta o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbek milliy tili hozirgi o'zbek millatiga mansub bo'lgan barcha kishilarning umumiy va yagona tilidir. U o'zbek millatining shakllanishi bilan bevosita bog'liq. O'zbek millati shakllangunga qadar u urug' tili, qabila tili va xalq (elat) tili tarzida yashab, rivojlanib keldi.

O'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug'at tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlar bilan yangi yasalgan so'zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga boyib borishi ko'zga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xo'jaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi ko'pgina o'zgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi o'zbek tili leksikasining ko'pgina yangi so'zlar hisobiga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyishiga sabab bo'ldi. Masalan: *broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes* va h. Ayrim o'zbekcha so'zlarning ma'nosida o'zgarishlar ro'y berib, ular boshqa ma'nolarda qo'llana boshladi. Masalan: *ishbilarmon* va *tadbirkor* so'zlari ilgari sifat turkumiga mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu so'zlar ot turkumiga o'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi o'zbek tili lug'at boyligini yangi pog'onaga ko'tardi.

O'zbek tilining fonetik tizimida, grammatik qurilishida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Jumladan, fonetik tizimda, o'zlashma so'zlarda o'zbek tiliga xos bo'lmagan bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarda ikki unlining o'zbek tili uchun xos bo'lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, bionika, geologiya, teatr, poema* kabi.

Grammatik qurilishda kelishik shakllari, ayrim ko'makchilarning ma'nosi va vazifasi kengaydi, kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv me'yorlari belgilandi. Ot boshqaruvi asosida tuzilgan so'z birikmalari ko'proq qo'llana boshladi.

O'zbek tilining bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog'liq ravishda davom etadi.

Milliy til va uning tarkibiy qismlari

Ma'lumki, o'zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning tili XI-XII asrlarda ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga ko'ra xalq tili shaklida shakllana boshladi va asta-sekinlik bilan rivojlanib keldi.

Uzrda yashashidan qat'i nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomondan ishlatiladigan til milliy (umumxalq) o'zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga adabiy til, sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qo'zg'atish uslubi), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatilgan chet so'zlar) kabi guruh to'plamlarini qamrab oladi.

Jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish sharoitida xalqlar (elatlar) taraqqiy etib, millatga, xalq tillari esa milliy tillarga aylandi. Demak, milliy til millatning paydo bo'lishi bilan birga yuzaga keladi.

Milliy til millat uchun umumiy bo'lgan tildir. Milliy til tushunchasi juda keng bo'lib, o' mahalliy dialektlarni (lahja)larni va barcha shevalarni o'z ichiga oladi. Lahja bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomondan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan quyidagi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

1. Fonetik (ya'ni tovush) jihatdan: *yo`q - jo`q, keldi - geldi, bahor - bohor.*
2. Elokli (ya'ni so'z) jihatdan: *ota - ada, chumchuq - secha, sigir - inak.*
3. Grammatik (ya'ni, qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan: *kelyapti (ad.) kelvoti - kelopti - kelutti.*

Xalq shevalarining faqat og'zaki shakli mavjud.

Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lgan guruhlari lahja deb ataladi (dialekt so'zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi).Jumladan, o'zbek milliy tilining uchta lahjalar (dialektlar) guruhi mavjud:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).
2. Diqchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh).
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh).

Darluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Fergana, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

- 1) so'z oxiridagi *k* tovushi *y* tarzida aytiladi: *elak - elay, terak - teray*
- 2) o'lash yuz beradi: *aka - o'ka, nahor - nohor.*
- 3) Bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi yo'q bo'lib, uning o'rniga ham tushum kelishi qo'shimchasi *-ni* ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari.*

Diqchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

- 1) *y* o'rnida *j* ishlatiladi: *yo'l - jo'l, yo'q - jo'q.*
- 2) *g* o'rnida *v* ishlatiladi: *tog' - tov, sog' - sov* va b.

3) soʻz oxirida *k, q* tovushlari tushiriladi: *quru(q), sari(q)*.

Oʻgʻuz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qoʻshkoʻpir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni oʻz ichiga oladi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va choʻziq aytiladi: *at (hayvon), aad (ism)*.

2) *t* tovushi *d, k* esa *g* tarzida aytiladi: *togʻ - dogʻ, keldi - galdi*.

3) *-ning* qoʻshimchasi *-ing* tarzida, *-ga* qoʻshimchasi esa *-a, -na* tarzida aytiladi: *yoringa - yoring, alina (qoʻliga)*.

Hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun qarluiq lahjasiga kiradigan Fargʻona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Fargʻona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos boʻlgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning maydonga kelishi bilan paydo boʻlsa, adabiy til milliy tildan oldin, xalq tili mavjud boʻlganda ham yuzaga keladi.

Milliy tilning maʼlum qoidalarga boʻysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, sanʼatkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli boʻlishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli boʻlish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab boʻlgan. Milliy oʻzbek tilida shevalarning koʻpligi adabiy tilga boʻlgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam boʻlgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yoʻq.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish koʻradi. Adabiy tilning **ogʻzaki** va **yozma** shakllari mavjud.

Adabiy tilning ogʻzaki shakli nisbatan qadimiy boʻlib, u nutq tovushlari, urgʻu, intonatsiya (ohang) kabi fonetik vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va meʼyorlarni orfoepiya belgilab beradi.

Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi. Yozuvga doir qoida va meʼyorlarni orfografiya (imlo) va punktuatsiya (ishorat) belgilaydi.

Tillarning tasnifi

Olimlarning taxmin qilishlaricha, er yuzida 5000 dan ortiq til bor. Bu tillar tarqalishi va ijtimoiy vazifalariga koʻra ham, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga koʻra ham oʻzaro farq qiladi. Jahon tillarining koʻpchiligini milliy tillar va xalq tillari tashkil qiladi, tillarning ayrimlari esa qabila tillari, hatto urugʻ tillari hisoblanadi.

Milliy tillar oʻzining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik xududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, baʼzi tillar esa juda katta xududlardagi koʻp sonli aholi

tasnifda tanqilgan. Hunday tillarga ingliz, frantsuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, turk va shu kabi tillar kiradi.

Jahon tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqish umumiy tilschilikning vazifasiga kiradi.

Yer yuzidagi tillarni o'rganish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning birinchi yarimida tillarni bir-biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada tillarni qiyoslashda qiyosiy usul vujudga keldi; bunda tillarning fonetik, morfologik, grammatik xususiyatlari bir-biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatiga emas, balki ularning tarixiy holati ham o'rganiladi. Shuning uchun ham qiyoslashning bir yo'li qiyosiy-tarixiy usul deb yuritiladi. Tillarni shu yo'l bilan o'rganish va o'zlarining ilmiy asoslari bilan jahonga tanilgan tilschunlar sifatida nomi bilan tanilgan Rasmus Raskni (1787-1832), olmoniyalik Frans Bopp (1791-1967) va Vebster Grimmi (1785-1863), rus olimi Aleksandr Vostokovni (1781-1864) kabi tilschunlar bo'ldi.

Tilschunlikda tillarning qator tasniflari mavjud:

- 1) tillarning genealogik tasnifi; 2) tillarning morfologik tasnifi;
- 3) tillarning areal (geografik) tasnifi; 4) tillarning funksional tasnifi.

Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. *Hind-yevropa tillari oilasi.*
2. *Xom-som tillari oilasi.*
3. *Turk tillari oilasi.*
4. *Ugor-fin tillari oilasi.*
5. *Kavkaz tillari oilasi.*
6. *Xitoy-tibet tillari oilasi.*
7. *Dravid tillari oilasi.*
8. *Indonezi tillari oilasi kabilar.*

1. *Hind-evropa tillari oilasiga* hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kel't, grek (yunon), alban, arman tillari kabi guruhlar kiradi.

I. Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *hind tili*. Bu tilda 450 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Hind tili hozirgi Hindiston Respublikasining (poytaxti Yangi Dehli) davlat tili bo‘lib, eski hind yozuvi - devonagaridan foydalanadi.

b) *urdu tili*. Bu tilda 180 millioncha kishi so‘zlashadi. U hozirgi Pokistonning (poytaxti Islomobod) davlat tili bo‘lib, arab yozuvidan foydalanadi. Bundan tashqari Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

1. *Bengal tili*. Bu tilda 100 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

2. *Maratxi tili*. Bu tilda 40 milliondan oshiq kishi so‘zlashadi.

3. *Panjob tili*. Bu tilda 40 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

4. *Rajastoni tili*. Bu tilda 20 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

5. *Gujarati tili*. Bu tilda 20 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

Bu tillarda so‘zlovchilarning aksariyati Hindistonda yashaydi.

Hind tillari guruhiga lo‘li, sindxi tillari, shuningdek, o‘lik tillardan sanskrit, pali, prokrit tillari kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo‘lib, bu tilda “**Mahabxarata**” (“Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston”) hamda “Xito padasha” (“Yaxshi nasihat”) kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Bizning eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o‘zining mashhur “Sanskrit grammatikasi” asarini yaratgan.

2. Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fors tili*. Bu tilda 30 millionga yaqin kishi so‘zlashadi, u Eronning (poytaxti Tehron) davlat tili bo‘lib, arab yozuvidan foydalanadi;

b) *pushtu-dari tillari*. Bu tillarda 15 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. U Afg‘onistonning (poytaxti Kobul) davlat tili bo‘lib, u arab yozuvidan foydalaniladi;

v) *kurd tili*. 3 milliondan ortiq bo‘lgan kurd xalqi Eronda, Irokda, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida va Turkiyada yashaydi;

g) *tojik tili*. Bu til Tojikiston respublikasining (poytaxti Dushanbe) davlat tili bo‘lib, bu tilda ikki milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

d) *osetin tili*. Bu til Osetiya respublikasining davlat tili bo‘lib, bu tilda 550 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

g) *kashub tili*. Bu tilda so'zlovchilar Pokistondan va Eronda yashaydi.

Uzun tillari guruhiga bulardan tashqari tolish tili, tog' tili, o'lik tillardan esa qadimgi litva, polshavi, sug'du, xorazmiy tillari kiradi.

3. Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *rus tili*. Bu til RSFSR ning (poytaxti Moskva) davlat tili bo'lib, bu tilda 100 million kishi so'zlashadi;

b) *ukrain tili*. Bu til Ukraina respublikasining (poytaxti Kiev) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi.

c) *belorus tili*. Bu til Belorussiya respublikasining (poytaxti Minsk) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

g) *bulg'oriya tili*. Bu til Bulg'oriya Respublikasining (poytaxti Sofiya) davlat tili bo'lib, bu tilda 9 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *serb-xorvat tillari*. Bu tillar Yugoslaviya Federativ Respublikasining (poytaxti Belgrad) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

e) *chex tili*. Bu til Chexoslovakiya Respublikasining (poytaxti Praga) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

z) *sllovak tili*. Bu tilda 4 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu til ham Chexoslovakiya respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bu tilda so'zlashuvchilar Slovakiyada (poytaxti Bratislava) yashaydi;

o) *polshak tili*. Bu til Pol'sha Respublikasining (poytaxti Varshava) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Ulardan tashqari, kashub, serboluj tillari, o'lik tillardan qadimgi slavyan, polsh, pomor tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *litva tili*. Bu til Litva respublikasining (poytaxti Vil'nyus) davlat tili bo'lib, bu tilda 2,2 million kishi so'zlashadi;

b) *latvish tili*. Bu til Latviya respublikasining (poytaxti Riga) davlat tili bo'lib, bu tilda 1,5 million kishi so'zlashadi.

O'lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *ingliz tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilarning soni 400 millionga etadi. Bu tilda soʻzlashuvchilar Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika Shtatlari, Kanada, Janubiy Amerika Ittifoqi va boshqa joylarda yashaydi. Ingliz tili buyuk Britaniya (Poytaxti London), Shimoliy Amerika Qoʻshma Shtatlari (poytaxti Vashington), Kanada (poytaxti Ottava) kabi bir qancha mamlakatlarning davlat tilidir;

b) *nemis tili*. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasining (poytaxti Berlin), Avstriya Respublikasining (poytaxti Vena davlat tili boʻlib, bu tilda soʻzlashuvchilarning soni 100 milliondan oshadi);

v) *daniya tili*. Bu til Daniyaning (poytaxti Kopengagen) davlat tili boʻlib, bu tilda soʻzlashuvchilarning soni 4 millionga yaqindir;

g) *shved tili*. Bu til Shvesiyaning (poytaxti Stokgolʻm) davlat tili boʻlib, bu tilda 7 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi;

d) *norveg tili*. Bu til Norvegiyaning (poytaxti Oslo) davlat tili boʻlib, bu tilda 3,5 million kishi soʻzlashadi;

e) *golland tili*. Bu til Gollandiyaning (Niderlandiyaning) (poytaxti Amsterdam) davlat tili boʻlib, bu tilda 13 million kishi soʻzlashadi;

j) *island tili*. Bu til Islandiyaning (poytaxti Reykyavik) davlat tili boʻlib, bu tilda 250 ming kishi soʻzlashadi.

Oʻlik tillardan vesgod va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fransuz tili*. Bu til Fransiyaning (poytaxti Parij) davlat tili boʻlib, bu tilda 60 million kishi soʻzlashadi;

b) *italyan tili*. Bu til Italiyaning (poytaxti Rim) davlat tili boʻlib, bu tilda 50 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

v) *ispan tili*. Bu til Ispaniyaning (poytaxti Madrid) davlat tili boʻlib, bu tilda 95 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

g) *portugal tili*. Bu til Portugaliyaning (poytaxti Lissabon) davlat tili boʻlib, bu tilda 45 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi;

d) *rumin tili*. Bu til Ruminiya Respublikasining (poytaxti Buxarest) davlat tili boʻlib, bu tilda 18 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

8) Rumol tili. Bu til Moldaviya respublikasining (poytaxti Kishinev) davlat tili bo'lib, bu tilda 3 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

9) Rossiyalik tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 10 milliondan ko'p kishi bo'lib, ular Rossiyaning janubi-sharqida yashaydi;

10) Yerdan tili. Bu tilda so'zlashuvchilar bir milliondan ortiq bo'lib, ular Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi;

11) Basak tili. Bu tilda so'zlashuvchilar besh milliondan oshiq kishi bo'lib, ular Shimoliy Ispaniyada yashaydi;

12) Roma-Roman tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 550 ming kishi bo'lib, ularning aksariyati Italiyada yashaydi.

U'lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi:

1) Irland tili. Bu til Irlandiya Respublikasining (poytaxti Dublin) davlat tili bo'lib, bu tilda 800 ming kishi so'zlashadi;

2) Shotland tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 140 mingdan ko'p kishi bo'lib, ular Angliyada yashaydi;

3) Briton tili. Bu tilda so'zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo'lib, ular Fransiyaqa qarashli Bretan' yarim orolida yashaydi;

4) Gal' (walli) tili. Bu tilda so'zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo'lib, ular Angliyaning g'arbiy qismida yashaydi.

U'lik tillardan gal va kornoul tillari ham kelt tillari guruhiga kiradi.

8. Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiradi:

Bu til Gretsiyaning (poytaxti Afina) davlat tili bo'lib, bu tilda 9 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

U'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

9. Alban tili guruhiga alban tili kiradi. *Alban tili* Albaniya Xalq Respublikasining (poytaxti Tirana) davlat tili bo'lib, bu tilda 2 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Alban tilidagi yozuv yodgorliklari XV asrdan beri ma'lumdir.

10. Arman tili guruhiga hozirgi zamon arman tili kiradi. Bu til Armanistonning (poytaxti Erevan) davlat tili bo'lib, bu tilda 3 milliondan

ko'proq kishi so'zlashadi. O'lik tillardan qadimgi arman tili ham bu guruhga kiradi.

I. Hind-Evropa tillari oilasiga. yuqorida ko'rsatib o'tganlarimizdan tashqari, xett, toxar tillari singari o'li tillar guruhi ham kiradi.

11. Xom-som tillari oilasi. Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: 1) som tillari guruhiga va 2) xom tillari guruhiga bo'linadi.

1) Som tillari guruhiga quvidagi tillar kiradi:

Arab tili. Bu tilda 50 milliondan ortiqroq kishi so'zlashadi. Arab tili Birlashgan Arab Respublikasi (poytaxti Qohira), Iroq respublikasi (poytaxti Bag'dod), Sudan (poytaxti Xartum), Marokash (poytaxti Rabat), Livan (poytaxti Bayrut), Tunis (poytaxti Tunis), Iordaniya (poytaxti Irlandiya), Liviya (poytaxti Tripoli), Jazoir Xalq respublikasi (poytaxti Jazoir), Yaman respublikasi (poytaxti Sana), Suriya arab respublikasi (poytaxti Damashq) kabi bir qancha arab mamlakatlarining davlat tilidir.

Afrika qit'asida yashovchi yana bir qancha xalqlar arab tilida so'zlashadi. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda o'lik tillardan asseriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va aramay tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

1. Xom tillari guruhiga: shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari, o'lik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari va boshqa tillar kiradi. Umuman, xom-som oilasiga kirgan tillar yaxshi tekshirilib o'rganilmagan.

III. Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

1. G'arbiy guruhga quvidagi tillar kiradi:

a) *abxaz tili.* Bu til Abxaziya Respublikasida yashovchilarning xalq tili bo'lib, bu tilda 80 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *abazin tili.* Bu til Cherkas Avtonom Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 25 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *adigey tili.* Bu til Adigey Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 80 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

g) *kabardin-cherkes tili.* Bu til Kabarda-Balkar va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 250 mingdan ortiq kishi so'zlashadi.

1. Ug'ur guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *chekhen tili*. Bu til Chechen respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, unda 100 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *ingush tili* (bu tilda 100 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi, ular Ingush respublikasida yashaydi);

g) *tsheti tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi.

2. Dog'iston guruhiga Dog'iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi:

a) *avur tili*. Bu tilda 300 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *shargin tili*. Bu tilda 160 ming kishi so'zlashadi;

v) *toqta tili*. Bu tilda 230 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *kok tili*. Bu tilda 70 ming kishi so'zlashadi;

e) *tshaxarvan tili*. Bu tilda 34 ming kishi so'zlashadi.

Hobadon tashqari, nufuzi kam bo'lgan bir qancha tillar ham dog'iston guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlovchilarning aksariyati Dog'iston Avtonom Respublikasida yashaydi.

3. Janubiy guruhga gruzin tili kiradi. Gruzin tili Gruziya respublikasining (poytaxti Tbilisi) davlat tili bo'lib, bu tilda 2,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so'zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so'zlashadigan svan tili ham janubiy guruhiga kiradi.

IV. Ugor-flu (llari) oilasi 2 guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi.

1. Ugor tillariga quyidagilar kiradi:

a) *venger (mojar) tili*. Bu til Vengriya Respublikasining (poytaxti Budapesti) davlat tili bo'lib, bu tilda 13 milliondan ko'p kishi so'zlashadi;

b) *mansi tili*. Bu til Xanti-Mansi milliy okrugida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 7 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *sami tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 22 mingdan ko'p bo'lib, ular ham Xanti-Mansi milliy okrugida yashaydilar.

2. Fin tillariga quvidagilar kiradi:

a) *fin tili*. Bu til Finlandiyaning (poytaxti Xel'sinki) davlat tili bo'lib, bu tilda 4 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlovchilarning bir qismi Kareliya Respublikasida yashaydi;

b) *eston tili*. Bu til Estoniya respublikasining (poytaxti Tallin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

3. Ming kishi so'zlashadigan veps tili, 15 ming kishi so'zlashadigan ijor tili ham fin tillari guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlashuvchilar Sankt-Peterburg viloyatida yashaydilar;

v) *komi-permyak tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 180 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Rossiya Federasiyasining Komi-Permyak milliy okrugida yashaydilar.

g) *komi-ziryan tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 250 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Komi Respublikasida yashaydilar;

d) *udmurd tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 580 ming kishi bo'lib, ular Udmurt Respublikasida yashaydilar.

e) *mari tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 500 mingga yaqin kishi bo'lib, ular asosan, Mari Respublikasida yashaydilar.

Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. Turkiy tillar oilasiga quvidagi tillar kiradi:

a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda so'zlashuvchilarning soni 15 milliondan oshadi. Bulardan 9 milliondan ko'prog'i Eronda, 6 milliondan ko'prog'i esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;

b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili bo'lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

g) *ona tili*. Bu til O'zbekiston Respublikasining (poytaxti Toshkent) davlat tili bo'lib, bu tilda 16 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

d) *qozog' tili*. Bu til Qozog'iston respublikasining (poytaxti Olma-Ota) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

1) *qirg'iz tili*. Bu til Qirg'iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo'lib, bu tilda 1,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

2) *tilim (tatarlar) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;

3) *uzbek tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq bo'lib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin'-szan-uyg'ur avtonom tumanida yashaydi;

4) *chuvash tili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 1,1 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi;

5) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 1 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

6) *yoqut tili*. Bu til Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 100 mingdan ko'p kishi so'zlashadi;

7) *qoraqalpog' tili*. Qoraqalpog'istonda yashovchi xalqlarning tili bo'lib, bu tilda 100 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

8) *tuya tili*. Tuya respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 100 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi.

Shundaydek, quniq tili (310 ming kishi so'zlashadi), qorachoy tili (100 ming kishi so'zlashadi), bulqar tili (50 ming kishi so'zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so'zlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o'lik tillardan qizil, qorachoy, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va hazar tillari ham turkiy tilla oilasiga kiradi.

14. Mo'g'ul tillari guruhiga quvidagi tillar kiradi:

a) *ulan-mo'g'ul tili*. Mo'g'uliston Respublikasining (poytaxti Ulan-Bator) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,5 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlashuvchilarning bir qanchasi Xitoy Xalq Respublikasida (Ichki Mo'g'uliston avtonom tumanida) yashaydi;

b) *buriyat tili*. Burt respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 170 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi;

v) *qalmaq tili*. Qalmaq respublikasida yashovchi xalqlarning tili bo'lib, bu tilda 103 ko'proq kishi so'zlashadi.



VII. Tungus-manjur tillari.

1). Tungus guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *evenk tili*. Rossiya Federasiyasining Evenk milliy okrugida hamda mamlakatimizning shimoli-sharqiy tumanlarida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 20 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *even tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 10 mingcha kishi bo'lib, ular asosan Rossiya Federasiyasining Even, Oxot, Chukotka, Koryak milliy okruglarida yashaydi.

3. Manjur guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *manjur tili*. Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-Sharqiy qismida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu til hozir o'lik tillar qatoriga o'tyapti;

b) *nanay tili*. Rossiya Federasiyasining Quyi Amur milliy okrugida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 8 ming kishi so'zlashadi.

Udey, ulq, oroch tillari ham manjur guruhidagi tillarga kiradi.

VIII. Xitoy-Tibet tillari oilasiga tay-xitoy va tibet tillari guruhlari kiradi.

1. Tay-xitoy guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xitoy tili*. Xitoy Xalq Respublikasining (poytaxti Pekin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliarddan ko'p kishi so'zlashadi. Xitoy tili bir necha mustaqil dialektlarga bo'linadi. U juda qadimgi (eramizdan ikki yarim ming yil burungi) tillardan biri bo'lib, boy yozuv-yodgorliklariga egadir;

b) *dungan tili*. Bu tilda so'zlashuvchi xalqning soni 3,5 million kishidan ortiq bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasida so'zlashadi;

g) *vetnam tili*. Vetnam Xalq demokratik Respublikasining (poytaxti Xanoy) davlat tili bo'lib, bu tilda 30 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *tay (siam) tili*. Tailandning (poytaxti Bangkok) davlat tili bo'lib, bu tilda 46 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

2. *Tibet tillari*. Bu tilda so'zlashuvchilar 4 milliondan ortiq kishi bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Tibet avtonom tumanida va Hindistonda yashaydi;

b) *birma tili*. Birma Ittifoqining (poytaxti Rangun) davlat tili bo'lib, bu tilda 33 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Assam tillari ham tibet tillari guruhiga kiradi.

IX. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi:

1) *kanit tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 3,5 millionga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida va Seylon orolining shimolida yashaydi;

2) *malayalam tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 13 milliondan ko'proq kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-g'arbida yashaydi;

3) *kannara tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 14,5 million kishi bo'lib, ular Yangi Hindistonda yashaydi;

4) *telugu tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 31 million kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida yashaydi;

5) *braxm tili* (260 mingga yaqin kishi so'zlashadi) va boshqa bir qancha kichik tillar dravid tillar oilasiga kiradi.

X. Malay-polineziya tillari. Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi. Indoneziya Respublikasining (poytaxti Jakarta) davlat tili. Shuningdek, madura tili, bali tili, yavao tili, tagalog tili, maori tili, samoa tili va uvea tili kabi bir qancha tillar ham shunga kirdi. Bu tillarda so'zlashuvchi kishilar soni hali yaxshi aniqlanmagan. Umuman, malay-polineziya tillarida 90 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

XI. Avstraliya guruhi tillari. Bu tillar oilasiga juda ko'p kichik tillari kiradi, lekin ular ham yaxshi o'rganilmagan.

XII. Papua tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi. Bu tillar ham hali yaxshi o'rganilmagan.

XIII. Sudan tillari. Sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlariga bo'linadi: chunonchi: nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, Eritriya, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-lagal, liberi va senegal gviney guruhlarini kabi.

XIV. Bantu tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: teke, songo, suaxeln, konde, makua va sotko kabi bir necha guruhlariga bo'linadi.

XV. Paleofrika tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga ya'ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo'linadi.

XVI. Paleosiy tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar Rossiya Federatsiyasining Shimoli-Sharqida yashaydi. **Paleosiy tillari ikki guruhga:**

1. *Chukot guruhi* va 2) *Sibir' guruhiga* bo'lindi. Chukot guruhiga chukot tili (1,5 ming kishi so'zlashadi), koryak tili (7 ming kishi so'zlashadi), kamchadal tili (2,5 ming kishi so'zlashadi) kiradi. Sibir guruhiga odul tili (ming kishi so'zlashadi), nivx tili (4 ming kishi so'zlashadi), ket tili (2 ming kishi so'zlashadi) kiradi.

XVII. Eskimos tillari guruhi. Bu tillar guruhiga: eskimos tili (bu tilda so'zlashuvchilar Chukotka yarim orolida, Vrangel' orolida, alyaskaning shimolida, Kanadada. Grenlandiyada yashaydi) va aleut tili (bu tilda so'zlashuvchilar Komandor va Aleut orollarida yashaydi) kiradi.

XVIII. Amerika hindularining tillari. Amerika hindularining tillari 200 mdan oshiq bo'lib, ular uch guruhga:

1) *Shimoliy Amerika*; 2) *Markaziy Amerika*; 3) *Janubiy Amerika* guruhlariga bo'linadi.

XIX. Austr-Osiyo tillari. Bu tillarga: mon-kxmer (6 millionga yaqin kishi so'zlashadi), bunda (6 milliondan ko'p kishi so'zlashadi), malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

XX. Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) *yapon tili.* Yaponiyaning (poytaxti Tokio) davlat tili bo'lib, bu tilda 100 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

2) *ryukyu tili.* Bu tilda so'zlashuvchilar Ryu-Kyu orolida yashaydi;

3) *quriya (koreya) tili.* Quriya Xalq Demokratik Respublikasining (poytaxti Pxen'yan) davlat tili va Janubiy Quriya Respublikasining (poytaxti Seul) davlat tili bo'lib, bu tilda 60 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

4) *ayn tili.* Bu tilda so'zlashuvchilar 18 mingga yaqin bo'lib, ular Yaponiyaning shimolidagi Xokkaydo orolida bulib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorurum dovonlarida yashaydi.

XXI. Burijski tili. Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so'zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorurum dovonlarida yashaydi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, genealogik tasnif har bir tilning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyotini, tillarning o'zaro munosabatini hozirgi ahvolini va shu kabi qator masalalarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Lekin anchagina tillar bu jihatdan ham chuqur teshirilib o'rganilmagan. Shuning uchun bu

ularning qaysi tillar bilan qarindosh ekanligi, qaysi til oilasiga, qaysi til guruhiga mansub ekanligi ham hali hal qilinmagan.

Tillarning morfologik tasnifi

Tilning morfologik tasnifi nisbatan keng tus olgan, chunki morfologik tilning eng barqaror sathi hisoblanadi. Morfologik tasnif so'zning tarkibidagi o'zak va qo'shimchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga imkon beradi.

Bu tasnifga ko'ra tillarning qarindoshligidan qat'i nazar, so'zlarning tuzilish shakli quyidagicha bo'ladi:

Morfologik tasnifga muvofiq jahon tillari to'rt guruhga bo'linadi:

1) amorf (so'z o'zgartuvchi qo'shimchasiz) tillar; 2) agglutinativ tillar; 3) polisintetik tillar; 4) polisintetik tillar.

Amorf tillarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda gap tarkibidagi so'zlar hech qanday so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarsiz, to'g'ridan-to'g'ri birikib, gap tarkibi keladi. Bunday tillarda grammatik ma'no yordamchi so'zlar, so'z tarkibi, intonatsiya va intonatsiya (ohang) orqali ifodalanadi. Mazkur vositalar so'zlar tarkibidagi shakllik munosabatni o'rnatish uchun xizmat qiladi. Amorf tillarga tibet, tibet, birma, vietnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lgan boshqa tillar misol bo'la oladi.

Agglutinativ tillarda har bir grammatik ma'no odatda alohida affiks bilan, bir-biriga grammatik ko'rsatkich bilan ifodalanadi. Masalan, *madrasalarga* so'z shakli tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi ko'plik ko'rsatkichi, *-ga* affiksi jo'nalish ko'rsatkichidir. *Kelmadilar* so'z shakli *kel* - o'zak, *-ma* - bo'lishsizlik ko'rsatkichi, *-di* - yaqin o'tgan zamon shaklini yasovchi affiks, *-lar* - ko'plikni ifodalovchi affiksdan iborat. Bunda biror affiks o'zakka yoki ma'no bilan bir affiksqa qo'shiladi.

Agglutinativ tillarga turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili, fin-ugor tillari, dravida, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish japon va koreys tillari kiradi.

Flektiv tillarda birdan ortiq grammatik ma'no odatda birgina grammatik ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, *кнужа* so'z shakli tarkibidagi *-а* affiksi (so'zlanmasi) uch grammatik ma'noni: 1) jinsni (jenskiy rod), 2) bosh kelishikni (bosh kelishikni), 3) birlik sonni (edinstvennoe chislo) bildirib kelgan; *увы* so'z

shakli tarkibidagi **-u** affiksi ham uch grammatik ma'noni: 1) aniqlik, xabardorlik, maylini;

2) hozirgi zamoni; 3) 3-shaxs birlikni ko'rsatish uchun xizmat qilgan.

Flektiv tillardagi bunday grammatik ko'rsatkich, tugallanma **fleksiya** deb yuritiladi. Fleksiya ikki xil bo'ladi: **tashqi fleksiya va ichki fleksiya**.

Tashqi fleksiya so'z oxiriga qo'shilib kelsa, ichki fleksiya so'zning o'zagi bo'ladi. Fleksiyaning ikkala turi ham so'zni grammatik jihatdan o'zgartiradi. Tashqi fleksiyali tilga rus tili misol bo'la oladi: *zemi-ya, vod-a, pol-e, oblak-i, lyud-i, voln-ы* so'zlari oxiridagi unlilar, tugallanmalar so'zning grammatik ma'nosini ko'rsatib turadi.

So'z o'zagi ichidagi tovushni, unli tovushni o'zgartirish yo'li bilan grammatik ma'noni ifodalash ichki fleksiya sanaladi. Masalan, inglizcha *woman* (ayol) so'z shakli tarkibidagi **a** unlisi birlik sonni, *women* (ayollar) so'z shaklidagi **e** unlisi ko'plik sonni ko'rsatuvchi fleksiyadir.

Flektiv tillarga hind-evropa, semit, xamit tillari kiradi.

Polisintetik tillarning xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bo'lsa ham so'z holida yoziladi. Polisintetik tillarga chukot tili kiradi.

Tekshirish savollari

1. Tilshunoslik fani nimalarni o'rganadi?
2. Tilshunoslik fanining qanday turlari bor va ular o'zaro qanday farqlanadi?
3. Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?
4. "Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas", degan fikrni qanday izohlaysiz?
5. Tilning tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Tilda yuz beradigan o'zgarishlar birinchi navbatda uning qaysi bo'limida (sathida) yuz beradi va nima uchun?
7. Keyingi paytlarda o'zbek tili sathlarida (leksika, fonetika, grammatikasida) qanday o'zgarishlar yuz berdi?
8. Milliy til nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
9. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?
10. O'zbek tilida qanday lahjalar mavjud va ular qanday belgilarga ega?
11. Tilshunoslikda tillarning qanday tasniflari mavjud?
12. Tillarning geneologik tasniflanishiga ko'ra yer yuzida qanday til oilalari bor?
13. Oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhi haqida nimalarni bilasiz?
14. Morfologik tasnif bo'yicha bo'lingan amorf va agglyutinativ tillar guruhlari haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
15. Flektiv va polisintetik tillar haqida nimalarni bilasiz?

Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari

Hozirgi o'zbek fikr-mulohazalarini bir-birlariga til orqali bayon etadilar. Shu bilan ham til insonlar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. Til jamiyat bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat bo'lmasa, til ham bo'lmaydi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari, til ham rivojlanib boradi. Tilning rivojlanib borishini, eng avvalo, tilning boyligi tarkibidagi o'zgarishlarda kuzatish mumkin. Chunki fan, madaniyat, iqtisodiy muntazam o'sib borar ekan, kundalik turmushimizga yangidan yangi so'zlar va tushunchalar kirib keladi. Tabiiyki, tilimizning lug'at tarkibi ham shu bilan bir qatorda, ayrim ayrim o'zgarib, iste'moldan chiqib ketadi.

Ushbarning ta'kidlashlaricha, hozir yer kurrasidagi 7 milliardga yaqin kishi dunyoda yaqin tilda gaplashadi. Bu tillarni tilshunoslar kelib chiqish tarixi, grammatik, leksik, grammatik xususiyatlariga qarab, katta til oilalariga ajratib, klassifikatsiya qiladilar. Hind-Yevropa tillari oilasi, xom-som, kelt, fin-ugor, Xitoy-tillari, avstronav, papuar, Afrika til oilalari mavjud. Ana shunday til oilalaridan biri turkiy tillar oilasidir. Turkiy tillar guruhi shu oilaga kiradi. Bu guruhga 24 til: turk, turkcha, qizil, qozoq, turkman, qoraqalpoq, ozarbayjon, uyg'ur, tatar, qrim-tatar, chechen, qabardin-bolqar, qorachoy, qabardin-bolqar, sho'r va boshqa tillar mansub.

Ushbu tilning taraqqiyot ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Tilshunoslarimiz bu tilni XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllangan deb hisoblaydilar. Bunga qadar ajdodlarimiz qadimgi turkiy tilda gaplashganlar. Yusuf Xos rudiyaning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asari qadimgi turkiy tilda yozilgan ilk badiiy asardir.

O'zbek tilshunosligi ham xuddi shu XI asrdan boshlab maydonga kelgan. Uning asoschisi taxminan 1028-1030 yillarda Bolasog'unda dunyoga kelgan Mahmud ibn ul Husayin ibn Muhammad-il Qoshg'ariydir. M. Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" ("turk tili sintaksisi qoidalari") va "Devonu lug'atit turk" ("Turkiy tillar lug'ati") asarlarida qadimgi tilimizning lug'at boyligi, grammatik xususiyatlari haqida qimmatli fikrlarni bayon yetadi. 1074-1075 yillarda yozilgan "Devonu lug'atit turk" asarida olim 6 mingdan ziyodroq turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nosini arabcha izohlab beradi hamda turkiylar grammatik xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi.

XI asrda yashagan mashhur vatandoshimiz, xorazmlik tilshunos olim Abulqosim Zamaxshariy (1075-1144) ham tilshunoslik taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Olim arab tilida tilshunoslikka oid 50 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ular orasida olimning 1137 yilda xorazmshoh Abdulmuzaffarxonga bag'ishlab yozgan "Muqaddimat ul-adab" ("Adabning boshlanishi") asari alohida ahamiyatga egaadir.

XIV asrga kelib, eski o'zbek adabiy tili shakllana boshladi. Uning tarqqiyotini ayniqsa Alisher Navoiysiz tasavvur yetib bo'lmaydi. A.Navoiy turkiy (o'zbek) tilining butun latofati, beqiyos go'zalligini, avvalo, o'z asarlarida yaqqol ko'rsatib berdi. A. Navoiy tilshunos olim sifatida "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asarida forsiy va turkiy tillarni chog'ishtirib, turkiy tilning har tomonlama boy til ekanligini, forsiy tildan qolishmasligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Ona tili asrlar davomida jamiyatimiz hayoti bilan bog'liq holda sayqallashib bordi. Bu jarayon XIX asrda Muqumiy, Furqat, Zavqiy, XX asrda yesa A. Fitrat, A. Cho'lpon, A. Qodiriy, G'. G'ulom, Oybek, A. Qahhor, Mirtemir singari o'nlab adiblar ijodi bilan uzviy bog'liqdir.

XX asr o'rtalariga kelib, o'zbek tilshunosligi ham fan sifatida taraqqiy yetdi. Bu sohada Muhammadkarimov, Ye. D. Polivanov, A. Borovkov, F. Kamolov, A. G'ulomov, G'. Abdurahmonov, M. Asqarova, U. Tursunov, Sh. Raxmatullayev va boshqa bir qator tilshunoslarimizning hissalarini bordir.

1989 yilning 21 oktyabrida Ona tiliga Davlat tili maqomining berilishi xalqimiz hayotida muhim voqea bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishguniga qadar yaqin 130 yil davomida buyuk ajdodlarimiz so'zlagan boy va go'zal tilimiz kamsitilib kelindi, sho'rolar davrida bu til shunchaki maishiy-ro'zg'or tiliga aylandi-qoldi.

ONA TILI tarixini davrlashtirish

Adabiy til (aniqrog'i, adabiy nutq) - umumxalq tilining ishlov berilgan, sayqallangan va aniq bir me'yorga solingan shaklidir. Demak, Ona tili sheva va lahjalar bir butunligidan iborat bo'lgan o'zbek milliy tilidan farqlanadi. Ona tili o'zbek millatiga tegishli bo'lgan milliy tilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy til bilan adabiy til (nutq) orasidagi aloqa butun-qism, umumiylik-xususiylik munosabatidek bo'ladi. Adabiy til (nutq) olimlar tomonidan mantiqiy ishlab chiqarilgan qonun-qoidalarga moslashgan milliy tilning me'yorlashtirilgan shaklidir. U xalq shevalaridan ustun turadi va uning me'yorlariga qat'iy rioya qilish shu tilda (xalqqa) so'zlovchilar, turli sheva va lahja vakillari orasida rasmiy muloqot uchun shart. Adabiy til (nutq) umumxalq madaniyati saviyasining bir

ko'zganidir. Yozma va og'zaki nutqda adabiy me'yorga rioya qilish so'zlovchi (yozuvchi) madaniy saviyasini belgilaydi.

Ko'pgina xalqlar adabiy til (nutq) me'yoriga XIX-XX asrlarga ega bo'lgan bo'lsa, o'zbek xalqida adabiy til (nutq) an'anasi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Hozirgi o'zbek xalqi tarixiga mansub bo'lgan adabiy nutq me'yoriga rioya qilib yozilgan yozma yodgorlikdan katta va eng qadimiysi - YUSUF XOS HOJIBNING "Alifboda va bilig" asari, Mahmud Koshg'ariyning arab tilida yozilgan "Devonu lug'otit turk" qomusida berilgan IX-XI asrlar adabiy tili fonetik-leksik-grammatik me'yoringa ta'rifli XI asrga mansub. Mashhur turkiyshunos olimlar akademik V. Radlov va akademik A. Kononov (Rossiya), Mahmed Fuad Ko'prulu, Ahmad Arso, Ibrahim Atalay (Turkiya), Kari Brokkelman, Anna Mari fon Gaben (Hollandiya), Yilii Nemet (Mojariston), Karl Menges, Omelyan Pritsak (AQSH) hollarning umumiy fikriga ko'ra, adabiy-badiiy nutq "Qutadg'u bilig" yoki "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan turkiy she'riy parchalarda aks ettirilgan holatga kelish uchun kamida 300-500 yillik badiiy ishlov an'anasiga ega bo'lmog'i zarur edi. Shuning uchun o'zbek xalqi uzluksiz ming yillik adabiy til an'anasini bitta bo'la ma'noda faxrlansa, arziydi.

Ona tili tarixini quyidagi asosiy taraqqiyot bosqichlariga ajratamiz:

1. X-XIV asrlar. Ona tilning ilk taraqqiyot davri.
2. XIV-XIX asrlar. Ona tilning takomillashish davri.
3. XIX-XX asrlar. Milliy adabiy tilning shakllana boshlashi.
4. XX-XXI asrlar. O'zbek milliy adabiy tili.

Doshqacha aytganda, hozirgi o'zbek adabiy tilining, ma'lumki, bir qator tarixiy ildizlari bor: a) eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr); b) qadimgi turkiy til (VII-XI asrlar); v) eski turkiy til (XI-XIII asrlar); g) eski o'zbek adabiy tili (XIV-XIX asrlar); d) yangi o'zbek adabiy tili (XIX asrning oxiri - XX asrning 20-yillari). Hozirgi o'zbek adabiy tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, o'zbek milliy tilining oliy formasi darajasiga ko'tarilgan.

Ona tilning taraqqiyot bosqichlarini ko'zdan kechirish qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan lisoniy taraqqiyot dinamikasini kuzatish, hozirgi o'zbek adabiy tilining qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek adabiy tillardan farqlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday farqlarning paydo bo'lishi, odatda, ikki omilga asoslanadi: 1) muayyan tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari - tilning o'zidagi sistemaviy va strukturaviy hodisalar oqibatiga; 2) ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi kontaktga (interstrat munosabatiga). Ona tili taraqqiyotida eng qadimgi turkiy til va qadimgi turkiy til substrat (asos til) vazifasini, arab, tojik-fors va rus tillari esa superstrat (ustama til) vazifasini o'tagan. Substrat va superstrat tillar o'rtasidagi aloqa odatda bilingvizm (bitta tillilik) yoki polilingvizm (ko'p tillilik) sharoitida yuzaga keladi va tillar munosabati deb ataladi: turkiy-arab, turkiy-fors, o'zbek-arab, o'zbek-tojik,

o'zbek-rus ikki tilliliklari sharoitida asos til bilan ustama tillar o'rtasida bog'langan aloqalar ana shunday substratsiyalar sanaladi. Ayni shu omillar (ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan birga) qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda til strukturasi qator o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Buni til sathlari va tizimlari bo'yicha keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan anglab olsa bo'ladi:

1. Tilning fonetik-fonologik sathida: a) qadimgi turkiy til vokalizmida 8 unli bo'lgan (a, ɛ, o, u - orqa qator, yo'g'on unli; e, i, o, ʏ - old qator, ingichka unli); b) eski turkiy til va eski o'zbek tillarida ham shu 8 unli saqlangan, ammo eski Ona tilida old, qator lablanmagan e unlisi hisobiga vokalizm tizimi unli iborat bo'lgan; v) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida unli tovushlarning yo'g'onlik-ingichkalik ziddiyati (oppozitsiyasi) bo'lgan: i-ɛ, ā-a, ʏ-u, o'(o)-o'(o) kabi; g) hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida unli miqdori 6 taga tushib qolgan (i,e,a,u,o',o). Bu tizimda yo'g'onlik-ingichkalik oppozitsiyasi yo'q, ayrim tovushlarning sifat belgilari ham o'zgaragan. Masalan, orqa qator, lablanmagan a o'rnida kuchsiz lablangan o () unlisi paydo bo'lgan. Qiyos qiling, *ata-ota, at-ot* kabi; d) qadimgi turkiy til konsonantizmida b,m,p,v,s,z,t,d,n,l,r,ch,sh,y,q(k),g'(g),n undoshlari bo'lgan, bu undoshlarning ko'pchiligi palatal (ingichka yoki yumshoq) va velyar (qalin) variantlarga ega edi, e) eski o'zbek adabiy tilida undoshlar 24 taga etgan (b,m,p,v,f,s,z,t,d,n,l,r,ch,sh,j,j,y,q,k,g',g,n,x, h). Konsonantizm tarkibida undoshlar miqdorining ortishi o'sha davrdagi o'zbek-arab va o'zbek-fors ikki tilliligi (bilgizmi) ta'sirida, shuningdek, ayrim undoshlarning divergensiyasi (bu fonemaning ikki fonemaga ajralishi) natijasida sodir bo'lgan; j) hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmida yuqoridagi 24 undoshning barchasi bor. Ayrim tilshunoslarning (masalan, prof. A. Abduazizovning) fikricha, rus tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydigan qorishoq "s" ham Ona tili undosh fonemalaridan qatoridan o'rin olgan deb qaralishi kerak. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi: a) qadimgi turkiy til konsonantizmida f,x,h,j,j undoshlari bo'lmagan. Ular eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili davrida turli lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillar ta'sirida paydo bo'lgan; b) qadimgi turkiy tilda q va k undoshlari bir fonemaning nutqdagi ikki ko'rinishi - ottenkalari bo'lgan, keyinchalik bu fonema divergensiyaga uchrab, ikki mustaqil fonemaga aylangan; g' va g undoshlari rivojida ham ayni shu jarayon (divergensiya) bo'lganligini - "g" ning "g'" va "g" ga parchalanganligini ko'ramiz.

2. Nutq tovushlarining pozitsion va sintagmatik xususiyatlaridagi o'zgarishlar: a) qadimgi turkiy tilda r,l,v,g'(g), z,d,n undoshlari so'z boshida qo'llanmagan. Eski o'zbek adabiy tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu tovushlar ("n" dan boshqalari) so'z boshida ham ishlatiladi; b) m undoshi qadimgi so'z boshidagi "b" ning varianti sifatida qo'llangan, ammo so'z o'rtasida va oxirida mustaqil fonema bo'lgan. Uning mustaqil fonema sifatida so'z boshida qo'llanishi eski Ona tilida bir qadar uchrab turadi, hozirgi o'zbek adabiy tilida esa uning so'z boshida qo'llanishi ancha keng tarqalgan; v) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlar so'z boshida qatorlashib kelmagan. Bu xususiyat eski Ona tilida

hosi bo'lgan, ammo hozirgi o'zbek adabiy tilida esa undoshlarning so'z yoki bo'g'in boshida qatorlashib kelishi me'yoriy holatga aylangan; bu hodisa Ona tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga xos (*brom, professor, shkaf, traktor, mashina, tramvay* kabi); g) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlarning so'z boshida qatorlashib kelishi juda kam uchraydi: *qirq, alp* ("mergan ovchi"), *art* ("to'rt") kabi. Eski Ona tilida undosh tovushlarning so'z oxirida qatorlashib kelishi ham bo'paygan (fors-tojik va arab tillaridan so'z o'zlashtirish hisobiga): *do'st* (arabcha o'zlashma), *hamd* (arabcha o'zlashma: "maqto'v"), *g'isht* (tojikcha o'zlashma), *go'sht* (tojikcha o'zlashma) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in oxirida ikki undoshning qatorlashib kelishi rus tili orqali o'zlashgan ruscha hisobiga ancha ko'paygan: *boks, kodeks, kort, iks* kabi; d) qadimgi turkiy tilda bo'g'in oxirida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi (grammatika) bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ikkita bir xil undoshning bo'g'in oxirida qavatlanishi uchrab turadi: *gramm, klass, vatt, ball* kabi ruscha bayonlarni o'zlashtirish buning dalilidir; e) qadimgi turkiy tilda so'zning birinchi bo'g'inidan keyingi bo'g'inlari faqat undosh bilan boshlangan: *o-na, o-ta, o-g'a, o-til, bo-la* kabi. Bu hol so'z tarkibida ikki unlining yonma-yon kela olmasligiga asos bo'lgan. Eski Ona tilida arab tili o'zlashtirish paydo bo'lishi bu qonuniyatga chek qo'ygan: *saodat, oila, maorif, soat, foiz, mutolaa* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ruscha-baynalmilal leksik o'zlashtirish hisobiga bu hodisa yanada kengaygan: *biologiya, zoologiya, geometriya, geografiya* kabi.

3. **Singarmonizm:** 1) qadimgi turkiy til va eski Ona tilida singarmonizm (so'z boshidagi o'zak va qo'shimchalarda unlilarning uyg'unlashuvi) mavjud bo'lgan. Qiyos qiling: *keldyyk* ("kel" dagi "e" - old qator, ingichka unli + "-dyk" dagi "y" - esa old qator, ingichka unli) va *barduk* ("bar" dagi "a" - orqa qator, yo'g'on unli + "-duk" dagi "u" ham orqa qator yo'g'on unli). Bu misollardagi unlilar til grammatikasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan. *Kelip* va *koryp* so'z shakllarining birinchi hisobida ("kel+ip" da) o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablanmagan, ikkinchi hisobida ("kor+yp" da) esa o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablangandir. Demak, ikkinchi misolda unlilar lab garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan;

2) hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm o'z mavqei ni yo'qotgan. Qiyos qiling: *konlynyz* (eski Ona tilida) - *ko'nglingiz* (hozirgi o'zbek adabiy tilda), *koryp* (eski Ona tilida) - *ko'rib* (hozirgi o'zbek adabiy tilda) kabi.

3. **Lablana:** singarmonizm qonuniyati hozirgi paytda qipchoq va o'g'uz tushaklariga mansub o'zbek shevalarida saqlangan: *olgan* (adabiy tilda) - *alg'an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *borgan* (adabiy tilda) - *barg'an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *kelgan* (adabiy tilda) - *kelg'an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *ottiz* (adabiy tilda) - *ottuz* (qipchoq lahjasi shevalarida), *uyimga* (adabiy tilda) - *YyYmã* (qipchoq lahjasi shevalarida) kabi.

4. **Tilning lug'at boyligida:** 1) qadimgi turkiy tilda fors-tojik va arab so'zlari bo'lmagan. Eski turkiy tilda fors-tojik va arab so'zlari qo'llana boshlagan, eski

Ona tilida bunday o'zlashmalar ancha ko'paygan: *gul, gavhar, guruch, go'r* (fors-tojik so'zlari), *madrasa, oila, fikr, firoq, hosil* (arabcha so'zlar). Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday o'zlashma so'zlarning ayrimlari eskirgan (masalan, *muvalldulhamuza, handasa, tarh* kabilar), ularning o'rni bir qator ruscha o'zlashma termin va atamalar paydo bo'lgan (*kislorod, geometriya, avtobus, tramvay* va b.lar); 2) qadimgi turkiy tildagi ayrim so'zlarning eski Ona tilida tojikcha sinonimlari paydo bo'lgan: *chekak* (turkiy)- *gul* (tojikcha), *yog'och, yig'och* (turkiy) - *daraxt* (tojikcha), *oltin* (turkiy)- *tilla* (tojikcha), *buloq* (o'zbekcha)-*chashma* (tojikcha), *qirov* (o'zbekcha)- *shabnam* (tojikcha) kabi; 3) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida qisqartma so'zlar (abbreviaturalar) bo'lmagan. Hozirgi Ona tilida bunday qisqartmalar anchagina bor: BMT, TDP, SamDU kabi. Keyingi yillarda Ona tili leksikasida IIB (Ichki ishlar bo'limi), IBB (Ichki ishlar bo'limi boshqarmasi), IIV (Ichki ishlar vazirligi), DAN (Davlat avtoinspeksiya nazorati), O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti), BuxDU (Buxoro Davlat universiteti), QarMII (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti) kabi yangi qisqartma nomlar ham paydo bo'ldi; 4) Ona tiliga davlat tili maqomining berilishi, shuningdek, mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ma'rifiy islohotlar Ona tili leksikasida yana bir qator yangi so'zlarning yuzaga kelishiga yoki ayrim eskirgan so'zlarning qayta tiklanishiga sabab bo'lmoqda: *supermarket, fermer, aksiyador, vazirlik, nozir, devonxon, ta'til* kabilar shular jumlasidandir; 5) rus tili va rus yozuvi ta'sirida yuzaga kelgan *tok* ("elektor toki") va *tok* ("uzum toki") kabi omograflar, *to'rt* ("miqdor son") va *tort* ("konditer mahsuloti") kabi omofonlar ham ko'proq hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasiga xosdir.

5. Tilning grammatik qurilishida: 1) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil so'z turkumlari bo'lgan. Bunday mustaqil so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bor; 2) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida yordamchi so'zlar – ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalar bo'lgan. Bunday turkumlarga xos so'zlar hozirgi o'zbek

adabiy tilida ham mavjud; 3) qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida undovlar va modal so'zlar bo'lgan. Ular hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bor; 4) qadimgi turkiy tilda ham, eski Ona tilida ham har bir so'z turkumining o'ziga xos grammatik kategoriyalari (otlarda-egalik, kelishik, son; sifatlarda- daraja; fe'llarda- shaxs-son, mayl, nisbat, zamon va b.lar) bo'lgan. Bu xususiyatlar hozirgi o'zbek adabiy tiliga ham xos. Biroq, hozirgi o'zbek adabiy tilida qadimgi turkiy va eski o'zbek tillaridan farq qiladigan yangi jihatlar ham uchraydi: 1) hozirgi o'zbek adabiy tilida morfemalar qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillaridagiga nisbatan miqdoran ko'p va mazmunan boydir. Masalan: qadimgi turkiy tilda o'zakdan oldin qo'shiluvchi affiks morfemalar (prefiksalar) bo'lmagan. Bu tipdagi morfemalar eski Ona tilida va hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydi: *bebosh, bevosita, bavosita (bilvosita), noo'rin, sersuv, sergap* kabi; b) eski o'zbek adabiy tilida "-ov", "-ev", "-ova", "-eva", "-ovna", "-evna", "-ovich", "-evich" kabi familiya va otchestvo yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan. Hozirgi o'zbek

tilida bunday qo'shimchalar bor; v) eski o'zbek adabiy tilida "-lar" affiksi ko'pchilik (*odamlar, qishloqlar* kabi), birgalikni (*Karimlar kelishdi*), ma'no bildiruvchilik (*suvlar oqib yotibdi*), chama yoki taxminni (*qirq yillar bo'ldi*) bildirgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa "-lar" affiksining so'zlarni ko'rsatib berish funksiyasi ham paydo bo'lgan: *qirqquloqsimonlar, yomon-og'chilar...* kabi; 2) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida ko'pchilik mavjud bo'lganligidan ko'pchilik morfemalarning yo'g'on va yo'q bo'lish turlari saqlangan: "-mız" va "-miz" (*baramız va kelamiz* kabi), "-gan" va "-gan" (*kelgan va borg'on*), "-chı" va "-chi" (*yog'chı "azani boshqaruvchi" va boshq.*); "naqqosh" kabi). Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ulardan faqat ko'pchilik standart forma sifatida saqlangan (*boramiz, kelamiz, borgan, kelgan, borayotgani va ishchi* kabi), "-lıq" va "-lik" haqida ham shu fikrni aytish mumkin; 3) eski o'zbek adabiy tilidagi ba'zi affikslar hozirgi o'zbek adabiy tilida saqlanmaydi. Masalan, "-vul" affiksi eski o'zbek adabiy tilida *qorovul, yasovul* kabi so'zlarni yasagan, hozir esa bu affiks so'z yasash xususiyatini yo'qotgan; 4) qadimgi turkiy tilda bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, vosita kelishigi ("o", "-ı", "-in", "-ın", "-un", "-on", "-en"), jo'nalish kelishigi, o'ringat kelishigi, chiqish kelishigi bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida shulardan faqat vosita kelishigi yo'q. U qadimgi turkiy tilda "bilan" ko'makchisi bo'lganligiga teng bo'lgan: masalan, *tilin sozlep, qolqayın eshidip* ("tili bilan bo'lgan, qolqog'i bilan eshitib...") kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. Ona tili bir qator shevalarni o'z ichiga oladi, bunday shevalar etnolingvistik nuqtai nazardan uchta guruhga bo'linadi: qarlulq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga birlashtiriladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkib topishida ana shu uchta lahja shevalarining ishtirok etganligi asosiy bir holdir, ammo ulardan qaysi biri adabiy tilga ko'proq darajada asos bo'lganligi masalasida tilshunoslar orasida yakdillik yo'q. Ko'pchilik manbalarda hozirgi o'zbek adabiy tilining tayanch dialekti sifatida qarlulq lahjasi, xususan, Tashkent-Farg'ona tipidagi shahar shevalari ishtirok etganligi ko'rsatiladi. Ammo ayrim tilshunoslar (*masalan, prof. X. Doniyorov, dotsent B. B. Yuldashev*) adabiy tilning tayanch dialekti masalasiga boshqacharoq qaraydilar: ularning fikricha, hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkib topishida qipchoq lahjasiga mansub shevalar ham faol qatnashgan, shunga ko'ra adabiy til asosiy yollariga oid ayrim masalalar (xususan, vokalizm tizimi, alifbo tuzilishi) qayta ko'rib chiqilishi kerak. Bu mualliflarning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbekizoida 6 ta emas, 8-9 ta unli fonema bor, ular *i/ı, ä/a, y/u, o'(o)/o'(o)* kabi kontrast juftliklarni hosil qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishida otning jo'nalish, o'ringat va chiqish kelishiklaridagi shakllari Tashkent-Farg'ona gruppasi shevalariga ko'rsatiladi: "-ga"(j.k), "-da"

va "-dan"(ch.k) kabi. Boshqa shevalarda otning bu kelishiklaridagi shakllari quyidagicha bo'ladi: Samarqand shevasida "-ga" formanti jo'nalish va

o'rin-payt kelishiklari ma'nosini ifodalaydi: *Buxoroga ketopti* ("Buxoroga"- otning jo'nalish kelishigidagi shakli), *Buxoroga o'qopti* ("Buxoroga"—otning o'rin-payt kelishigidagi shakli) kabi. O'g'uz lahjasi shevalarida "-ga" o'rnida "-g'a" (qurvaqag'a), "-ye" (tangeye), "-ne" (erkine), "-na(yanyma)", "-e" (yyime) formantlari ishlatiladi. Bunday har xillik tushum va qaratqich kelishiklarida ham mavjud: "-ni"/"-ны", "-ning"/"-ның" (qipchoq lahjasi shevalarida), "-ning"/"-ing", "-ның"/"-ынг" (Iqon, Qorabuloq, Hazorasp shevalarida), "-ni"/"-ti"/"-pi"/"-yi"/"-mi" (Toshkent shevasida) kabi. Bunday ko'p variantlilik adabiy tilga ko'chirilmagan.

Suuni ham aytish kerakki, ko'pchilik shevalarda tushum va qaratqich kelishiklari deyarli farqlanmaydi. SHuning uchun ham kelishiklar soni Toshkent, Farg'ona, Xeva-Urganch shevalarida 5ta, Qarshi shevasida 4 tadir. Qipchoq lahjasining j-lovchi shevalarida, qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining Iqon-Qorabuloq dialektida esa ularning soni 6 taga etadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining 6 kelishikli tizimga asoslanishida ana shu lahjalarning morfologik xususiyati hisobga olingan.

"Ona tili" bo'limlari:

1.Fonetika va fonologiya. Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik-fonologik sathiga oid tizimlar (vokalizm, konsonantizm), segment va supersegment birliklar (fonema, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, fraza, takt), prosodik elementlar (temp, tembr, ritm, melodika, pauza va b.lar), ularning til va nutqdagi roli haqida fikr yuritiladi.

2.Grafika va orfografiya. Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining yozuv tizimlari (kirillcha va lotincha o'zbek yozuvlari), ularning asosiy komponentlari va belgilari, orfografiya prinsiplari va qoidalari xususida bahs yuritiladi.

3.Orfoepiya. Bu bo'limda Ona tilining to'g'ri (adabiy) talaffuz me'yorlari, ularni belgilovchi omillar haqida ma'lumot beriladi.

4.Leksikologiya va frazeologiya. Bu bo'limlarda Ona tilining lug'at boyligi uning rivojlanish qonuniyatlari, lug'aviy birliklarning qatlamlanishi, turlari, leksik-semantik va tematik guruhlari, leksema va frazemalarning semantik tarkibi, qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

5.Leksikografiya. Bu bo'limda lug'atchilik, lug'at tiplari va turlari, lug'atlarning tuzilish prinsiplari, lug'at maqolalarining sxemalari, lug'atlarning amaliy ahamiyati xususida bahs yuritiladi.

6.Morfemika. Bu bo'limda so'z yoki so'zning grammatik shakllari tarkibidagi ma'noli qismlar — morfemalar xususida, morfemalarning funksional-semantik strukturaviy va pozitsion tavsifi haqida ma'lumot beriladi.

7.So'z yasalishi. Bu bo'limda Ona tilining so'z yasash usullari, ularning so'z turkumlari bo'yicha tavsifi, tarixiy va hozirgi so'z yasalishi kabi masalalar yoritiladi.

0 Morfologiya. Bu bo'lim grammatikaning bir qismi bo'lib, unda grammatik ma'no va grammatik shakllar, shular orasidagi aloqadorlik asosida yuzaga kelgan grammatik kategoriyalar, so'zlarni turkumlarga birlashtirish prinsiplari, har bir turkumning ma'no turlari, morfologik belgilari, gapdagi funksional belgilarining ta'riflari haqida fikr yuritiladi.

0 Sintaksis. Bu bo'lim grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, unda so'z turlari va gap turlari, so'zlarning grammatik munosabatga kirishish yo'llari o'rganiladi.

0 Punktatsiya. Bu bo'limda yozuv sistemasining uchinchi komponenti (birinchi komponenti--grafika, ikkinchi komponenti--orfografiya) haqida ma'lumot beriladi. U sintaksis bilan parallel ravishda o'rganiladi, chunki belgilarining qo'llanishi, asosan, gap ichida va nutqda namoyon bo'ladi.

Tekshirish savollari

- 1 Hozirgi o'zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo'lgan?
- 2 Qanday tarixiy ildizlar va jarayonlardan xabardor bo'lishning amaliy ahamiyati nimada?
- 3 Qadimgi turkiy til vokalizmi qanday unlilardan tarkib topgan?
- 4 Eski turkiy va eski o'zbek adabiy tillari vokalizmi haqida nimalarni bilasiz?
- 5 Vokalizm tizimidagi kontrast juftliklarni qanday tushunasiz?
- 6 Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida nechta unli bor? Ular yo'g'onlik-bog'lanish belgisiga ko'ra kontrast juftliklarni hosil qiladimi?
- 7 Qadimgi turkiy til konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan? Eski o'zbek adabiy tili konsonantizmi-chi?
- 8 Hozirgi o'zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til undoshlari tizimining asosiy farqlari nimada?
- 9 Qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan tarixiy fonemalar jarayonida fonemalarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarida qanday o'zgarishlar yuz bergan?
- 10 Singarmonizm haqida nimalarni bilasiz? Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm bormi? Shevalarda-chi?
- 11 Qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda tilning fonemalarida (lug'at boyligida) qanday o'zgarishlar bo'lgan?
- 12 Tilning grammatik qurilishida bo'lgan o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
- 13 Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari haqida qanday fikrlar bor?
- 14 Ona tili shevalari qanday lahjalarga birlashadi?
- 15 "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining qanday bo'limlari bor?

FONETIKA VA FONOLOGIYA

Fonetikaning ob'ekti tilning tovush tomoni, fonetik qurilishidir. Tilning tovush tomoni nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u, ohang (intonatsiya, melodika) kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi vazifalarini belgilaydi: a) tovush, urg'u, melodika kabi birliklarning yuzaga kelish qonuniyatlarini o'rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; v) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; g) talabalarda fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish; d) talabalarga shu sohada ishlagan fonetik-fonologlar haqida qisqacha ma'lumot berish.

Fonetik birliklarning turlari. Har qanday tilning fonetik birliklari dastlab ikki guruhga—segment va supersegment birliklarga bo'linadi: a) **segment birliklarga** nutq tovushlari va bo'g'in kiradi. Bunday birliklar so'z yoki morfemalar tarkibida birin-ketin keladi, yotiq (gorizontal) yo'nalishda bir-biriga ulanib, zanjirsimon tarzda joylashadi. Masalan: *kitob* so'zidagi 5ta tovush (k,i,t,o,b) va ikkita bo'g'in(*ki-tob*) segment birliklar, demak, shu so'z tarkibidagi qismlar sanaladi; b) **supersegment birliklarga** urg'u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar so'zga, frazaga, gappa yoki nutqqa yaxlit aloqador bo'lib, ularni so'z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. SHuning uchun ularni ustama hodisa (M.Mirtojiev) deb nomlash hollari ham uchraydi.

Fonetik birliklarning tildagi vazifalari:

1) **shakllantiruvchi vazifa** (ruscha: *obrazuyuyaya funktsiya*). Bunda fonetik birliklarning so'z yoki morfemalar tarkibida yoxud gap va nutq tuzilishida qurilish materiali sifatida ishtirok etishi nazarda tutiladi. CHunonchi, *paxta* so'zining tarkib topishida 5ta tovush (p, a, x,t,a), ikkita bo'g'in (*pax-ta*) va bitta so'z urg'u (*pax'ta*) "qurilish materiali" vazifasida qatnashgan, bu birliklarning shu tartibda joylashtirilishidan *paxta* so'zining tovush qiyofasi - **fonetik so'z** shakllangan. Ohang, melodika, pauza kabi supersegment birliklar esa gap qurilishida yoxud nutqning tarkib topishida ustama hodisa sifatida qatnashadi: darak, so'roq va buyruq gaplarning o'ziga xos intonatsiyalari, she'riy misralardagi ohang, tovlanishlari bunga misol bo'ladi;

2) **tanituvchi vazifa** (ruscha: *opoznavatel'naya funktsiya*). Bunda fonetik so'z tarkibidagi fonetik birliklarning shu so'zni va uning ma'nosini "tanib olish" va "eslab qolish" uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi: so'z va uning ma'nosi (yoxud morfema va uning ma'nosi) shu so'zning (yoki morfemaning) fonetik qobig' tufayligina inson xotirasida doimiy yashaydi. Masalan, inson *paxta* so'zini (fonetik so'zni) eshitganda yoki o'qiganda, uning xotirasida "g'o'za o'simligining oq tola yumshoq mahsuli", *taxta* so'zini eshitganda yoki o'qiganda esa "g'o'lada uzunasiga tilib olingan yassi yog'och bo'lagi" esga keladi, bu hol har bir so'zning

fonetik qobig'i bilan shu so'zning mazmun planidagi ma'nolar o'rtasida doimiy bog'lanishdan (shakl va mazmun birligidan) dalolat beradi. Ko'pchilik so'zlarning fonetik tarkibi o'zaro farqli bo'lishini hisobga olsak, bunday farqlar so'z ma'nolarini tafovutlash uchun xizmat qilishi ham ma'lum bo'ladi: "qishloq" va "qishloq" dan, "g'o'za"ni "ko'za"dan, "uy"ni "kuy"dan farqlash imkoni yaratiladi. Shunday qilib, so'z va grammatik formalar o'zining tovush materiyasi tufayligina nutqda mavjud abanoyat kasb etadi. Tovushgina so'z yoki so'z shaklini eshituvchi uchun ma'no tuziga kiritadi. (Bu haqda darslikning "Fonologiya" bo'limida to'laroq ma'lumot beriladi).

Fonetika fanining turlari

1. **Umumiy fonetika.** Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi. Masalan, barcha tillarda fonetik birliklarning fizik-akustik tabiati, anatomik-fiziologik tabiatidagi asosi va lingvistik-funksional jihatlari bor; barcha tillarda nutq birliklari fonema tiplariga birlashadi, barcha tillarda fonemalar fonologik qonuniyatlarga (ziddiyatlar) va korrelyasiyalarni yuzaga keltiradi, shular orqali fonetik sistemalar shakllanadi. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatiga bog'liq bo'lgan bunday nazariy masalalarni ko'rish umumiy fonetika predmeti hisoblanadi.

2. **Xususiy fonetika.** Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida ma'lumot beradi: Ona tili fonetikasi, rus tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi.

Xususiy fonetika ayrim olingan bir tilning fonetik tizimini o'rganishda umumiy fonetika xulosalariga, shuningdek, fonetikaning boshqa turlarida olingan tajribalarga tayanadi.

Tilning quyidagi ikki turi bor:

a) **tavsifiy fonetika.** Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar statik holatda (shu tilning oldingi tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lanmay) o'rganiladi. Xususan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi" haqida tavsifiy fonetikadir, chunki unda Ona tilining fonetik tizimi, bu tizimda mavjud bo'lgan fonetik faktlar (unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat holatlari, tasnifi, urg'u, bo'g'in va hokazolar) hozirgi Ona tilida qanday bo'lsa, shundayligicha (tarixiy jarayon va faktlarga bog'lanmay) o'rganiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining tavsifiy fonetikasi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomi bo'yicha nashr etilgan ko'pchilik darsliklarda, shuningdek, "Uzbekskiy tili" (Reshetov V.V., 1959y.), "Основы фонетики и грамматики узбекского языка" (Reshetov V.V., 1965y.), "Общая характеристика особенностей узбекского вокализма" (Reshetov V. V., 1949y.), "Фонетическая система узбекского литературного языка." ADD(A. Mahmudov, 1980y.), "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dan metodik ko'rsatmalar va konspektiv kurs: fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya (Tursunova T., Jamolxonov H., 1981y.), "Ona tili fonetikasi" (Mirtojiyev M.M., 1991y., 1-nashri; 1998y., 2-nashri), "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Ma'ruzalar matni (Jamolxonov H., 2000 y.) kabi ishlarda hamda "Исследования гласных и согласных в современном узбекском литературном

yazyke" (A.Ishaev.,1985),"Reduksiya glasnykh v uzbekskom yazike: tip i funktsiya, programmirovaniye" (S.Atamirzaeva, X. YUldasheva, D. Mamatov, 1985) kabi maqolalarda bayon etilgan;

b)tarixiy fonetika. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar shu tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganiladi, shu asosda muayyan tilning fonetik- fonologik tizimida yuz bergan tarixiy o'zgarishlar (divergensiya, konvergensiya faktlari, fonologik tizimdagi eskirish va yangilanish jarayonlari) aniqlanadi. SHunga ko'ra u *diaxron fonetika* deb ham yuritiladi.

O'zbek tilshunosligida Ona tilining tarixiy fonetikasiga oid ma'lumotlar V.V. Reshetov, F.Abdullaev, G.Abdurahmonov, A. Rustamov, E. Fozilov, S.H. SHukurov, Q. Mahmudov, S. Ashirboev, H. Ne'matov, B. To'ychiboev kabi tadqiqotchilarning ishlarida berilgan: "Qadimgi turkiy tili" (Abdurahmonov G., Rustamov.A., 1982y.), "Fonetiko-morfologicheskie osobennosti yazyka Alishera Navai", ADD (Rustamov A., 1966 y.), "Nekotoryye voprosy istoricheskoy fonetiki uzbekskogo yazyka" (A. Rustamov, 1985), "Fonetiya i istorii utraty singarmonizma v uzbekskom yazыke" (F. Abdullaev, 1985), "Foneticheskie i morfologicheskie osobennosti yazyka "Xibatul xakaik", AKD (Mahmudov Q., 1964y.), "Ahmad YUgnakiyning "Hibatul haqoyiq" asari haqida" (Mahmudov Q., 1972y.), "Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili" (Fozilov.E., 1969y.), "XIV asr Xorazm yodnomalari" (Fozilov E, 1973y.), "Qutbning "Xusrav va SHirin" dostoni va o'zbek adabiy tili" (Ashirboev S., 1997y.), "Ona tili tarixiy fonetikasi" (Ne'matov H., 1992y.), "Ona tili tarixiy fonetikasi" (To'ychiboev B., 1990y.), "Ona tilining taraqqiyot bosqichlari" (To'ychiboev.B., 1996y.), "O'zbek adabiy tili tarixi" (Muxtorov. A. Sanaqulov U., 1995y), "Alisher Navoi kak osnovopolojnik uzbekskogo literaturnogo yazyka" (A.K. Borovkov, 1946.), "A tovushining XV asrdagi sifat xususiyatlari haqida" (E. Umarov., 1982),"XV asr Ona tili unilari haqida" (E. Umarov, 1982), "Grammatika starouzbekskogo yazyka" (A.M. Щerbak,1962) kabi ishlar shular jumlasidandir.

3. Qiyosiy fonetika. Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (masalan, o'zbek qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa turkiy tillarning) fonetik tizimidagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi: "Sравnitelnaya fonetika tyurkskix yazыkov" (A.M. Щerbak, 1970), "Sравnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov" (B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva, 1986) kabi ishlar shular jumlasidandir. O'zbek tilshunosligida noqardosh tillarning, xususan, o'zbek va rus tillarining fonetik tizimlarini qiyosiy o'rganishga ham alohida e'tibor berilmoqda. "Russkaya grammatika v sopostavlenii s uzbekskim yazыkom" (Polivanc E.D., 1933y.), "Kratkiy ocherk fonetiki russkogo yazыka v sopostavlenii s fonetikoy uzbekskogo yazыka" (Kissen I.A., 1952y.), "Kurs sopostavitelnoy grammatiki russkogo i uzbekskogo yazыkov" (Kissen I.A., 1966, 1969, 1971, 1973 yillar), "Sopostavlenie foneticheskix yavleniy russkogo i uzbekskogo yazыkov na rechevom potoke", AKD (Asfandiyarov I.U., 1968y.), "O'zbek va rus tillarini

grammatikasi" (Azizov O, Safaev A, Jamolxonov H, 1986y.) kabi ishlar foydali dalil.

O'zbek va rus tillari fonetikasini qiyosan o'rganish rus maktablarida Ona tili o'zbek maktablarida esa rus tilini o'qitish uslubiyatini takomillashtirish maqsadlaridan, shuningdek, o'zbek-rus bilingvizmi (ikki tilliligi) masalalarini, bunday bilingvizmning har ikkala til strukturasi va sistemasiga ta'sirini aniqlash maqsadlaridan foydalidir.

4. Eksperimental (instrumental) fonetika. Fonetikaning bu turida nutq vositalarining fizik-akustik va artikulyasion jihatlari maxsus asboblardan (akustograf, ostitlograf, fonograf, spektrograf va boshqalar) yordamida tadqiq qilindi, shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tezligi, spektri, cho'ziqlik darajasi), ularning artikulyasiyasi (hosil bo'lish o'rni, usuli) aniqlanadi. Bunday tadqiqot natijalaridan fonetik birliklarning fonologik xarakterini tavsiflashda foydalaniladi.

O'zbek tilshunosligida eksperimental fonetikaning rivojlantirilishida Mahmudov Ahmadjon va Otamirzaeva Sora kabi fonetistlarning xizmati katta. Bu olimlarning qator ishlarida Ona tili fonetik tizimining tovushlari, urg'u, o'zgarish kabi birliklari ayni shu usulda tadqiq qilingan: "Umlilar" (Mahmudov A., 1992y.), "Согласные узбекского литературного языка" (Mahmudov A., 1986y.), "Согласные узбекского языка" (Maxmudov, A., 1986y.), "Словесное ударение в узбекском языке" (Maxmudov, A., 1960y.), "Составная часть наманганского говора узбекского языка". "Экспериментальное исследование", АКД (Atamirzaeva, S., 1963y.), "Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка" (Atamirzaeva, S., 1974y.), "Акустико-артикуляционный анализ узбекского языка применительно к аудиометрии" (Atamirzaeva, S. v soavtorstve, 1979y.) kabi ishlar fikrimizning dalili.

Tekshirish savollari

1. Fonetikaning ob'ekti?
2. Fonetikaning maqsadi?
3. Fonetik birliklarga nimalar kiradi?
4. Segment va supersegment birliklar qanday farqlanadi?
5. Fonetik birliklarning shakllantiruvchi va tanituvchi vazifalarini qanday aniqlash?
6. Fonetik so'z nima?
7. Fonetikuning qanday turlari bor?
8. Umumiy fonetika nimani o'rganadi? Xususiy fonetika-chi?
9. Tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) fonetika-larning farqi nimada? Bu sohada ishlagan va ishlayotgan tilshunoslardan kimlarni bilasiz?
10. Qiyosiy va eksperimental fonetikalarda nimalar tadqiq qilindi? Bu sohaga oid ishlardan iaysilarini bilasiz?

Fonetikaning to'rt aspekti

Tilning tovush tomonini o'rganish aspektlari. Tilning tovush tomonini o'rganish ancha murakkab hodisadir: a) har qanday tovushning fizik-akustik tabiati bor; b) har qanday nutq tovushining biologik asosi (nutq a'zolarining harakati va holati bilan bog'liq jihatlari) mavjud; v) har qanday nutq tovushlari talaffuz etiladi va eshitaladi. Fonetik birliklarning ana shu jihatlari o'rganish fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik-funksional aspektlari deb qaraladi.

Fizik-akustik aspekt. Eksperimental fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning fizik tabiatini tadqiq qiladi. Fonetik birliklarning fizik tabiatini tovushning balandligi, kuchi, tembr, cho'ziqligi kiradi. Tovushning ovoz, shovqin, qo'shimcha (yordamchi) ton kabi komponentlari ham fizik-akustik omillar sifatida sanaladi.

1. Tovushning balandligi - tovushning un paychalari tebranishi chastotasi va bog'liq sifati. Ma'lum vaqt o'lchovida (masalan, bir sekundda) un paychalarining tebranish miqdori qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi yoki aksincha, shu vaqt o'lchovi hisobida un paychalari qancha kam (siyrak) tebransa, tovush shuncha past chiqadi. Tebranayotgan jismning, masalan, un paychalarining tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi bitta to'la tebranish sanaladi, ana shu bitta to'la tebranish *bir gers* hisoblanadi, demak baland ovozda gerslar miqdori ko'p (tebranish zich), past ovozda esa gerslar miqdori kam (tebranish siyrak) bo'ladi. Insonning eshitish qobiliyati 16 gersdan 20000 gersgachadir: 16 gers eshitishning eng quyi pog'onasi, 20000 gers eshitishning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. 16 gersdan kam chastotali tebranish *infratovush*, 20000 gersdan ortiq chastotali tebranish esa *ultratovush* sanaladi. Inson oddiy so'zlashuvda 100 gersdan 400 gersgacha balandlikdagi tovushni qo'llaydi. Insonning eng past tovushi *bas* (u 40 gersga teng), eng baland tovushi esa *sopranodir* (u 170 gersga teng).

Nutqda ovoznining (tonning) baland-past tarzda to'ldirilishi melodika yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, intonatsiya, tembr, temp kabilari) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunda murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riyatda misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi.

2. Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm² maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdori. Bunday energiya miqdorining ko'p yoki oz bo'lishi tebranish amplitudasining (kengligining) katta yoki kichikligiga bog'liqdir: tebranish amplitudasining katta bo'lishi unga berilayotgan zarba darajasiga, masalan, o'pkadan kelayotgan havo oqimi kuchiga bog'liq. Masalan, zarb urg'usini

harakat urg'usini yuzaga keltirishda havo zarbi kuchli bo'ladi. Demak, tovush zarbi kuchli bo'ladi. Demak, tovush zarbi kuchli bo'ladi.

Tovush kuchli odatda *detsibel* bilan o'lchanadi. Masalan, soatning tovush kuchli - 20db, pichirlash - 40db, yarim ovoz bilan gapirish-60db, baland ovoz bilan gapirish - 80 db, simfonik orkestr ovozi-100dan 110detsibelgacha bo'ladi. 120detsibeldan ortiq kuchdagi tovush quloqqa og'riq beradi, insonni noxush qiladi.

1. *Tovush temбри* - tovushning asosiy ton va yordamchi tonlar (yordamchi tonlar) qo'shilmasidan tarkib topadigan sifati. Tovush tembrini tovushning va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar tarkibi deyiladi. Tovush formlari maxsus eksperimental apparat - fonogramma yordamida aniqlanadi.

Tovush tembrining turli xil formantlarga ega bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i va burun bo'shlig'i maxsus rezonatorlik (akustik filtrlik) xarakterini bajaradi; bunday bo'shliqlarning turli shaklga kirishi, hajmi, undagi havoning harakati-holati tovushning bo'yoqdorligini (sifat belgilarini) o'zgartirib beradi. Shu tariqa fonemalarning o'zaro farqlanishi ta'minlanadi. Odatda, tovush tembrining fonemalarda muhim rol o'ynaydi: hamma unli fonemalarda ovoz bor, hamma unli bir-biridan temбри bilan farq qiladi. Ayni paytda, tovush temбри ayrim fonemalarni, masalan, sonantlarni farqlashda ham qatnashadi. Bulardan tashqari, tovushning supersegment birligi, ovoz tovlanishlari tarzida ham namoyon bo'ladi. Ispinoq tembr, ma'yus tembr kabi. Tembrning bu turlari nutqning ma'nosini emotsional xususiyatlarini ta'minlaydi.

2. *Tovush cho'ziqligi* - tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi. *Tovush cho'ziqligi* ikki xil bo'ladi; a) fonologik cho'ziqlik (birlamchi cho'ziqlik). Bunday cho'ziqlik, odatda, ma'no ajratish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida "yilq" ma'nosidagi "ot" so'zi bilan "ism" ma'nosidagi "ot" so'zining farqi shu so'zlar tarkibidagi "o" unlisining cho'ziqlik darajasi bilan farqlanadi; bunday cho'ziqlik "o:t (a:d-"ism") kabi; b) fonetik cho'ziqlik (ikkilamchi cho'ziqlik) - bu fonologik faktorga asoslangan (fonologik vazifa bajarmaydigan) cho'ziqlik. Masalan, urg'uli bo'g'indagi unli bir oz cho'ziladi, ammo u so'z ma'nosini har qanday uchun xizmat qilmaydi (atlas va atlas kabi ayrim holatlar bundan istisno). SHuningdek, *imon* so'zi boshidagi "i" cho'ziqroq talaffuz etilganidan, bunda bir "y" orttiriladi yoki *shahar, zahar* so'zlarida "h"ning tushib qolishi natijasida ikki "a" yonma-yon kelib, bir cho'ziq "a" tarzida talaffuz qilinadi (kabi ar, ar kabi), ammo bu holat so'z ma'nolarini o'zgartirmaydi.


Elatma: Nutq tovushlarining balandligi, kuchi (intensivligi) va temбри sifati sifati belgilari sanaladi, tovushning cho'ziqligi esa miqdor belgisi hisoblanadi.

Anatomik-fiziologik aspekt. Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning biologik asosini - inson organizmidagi ayrim a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o'rganadi.

Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) nutq a'zolarining anatomiyasi; 2) nutq a'zolarining fiziologiyasi; 3) nutq a'zolarining ijro kechimi.

1. Nutq a'zolarining anatomiyasi deyilganda shu a'zolarining shakli, tuzilishi, o'rni nazarda tutiladi. Bunday a'zolar quyidagi apparatlarga birlashadi:


a) *nafas apparati* - o'pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko'krak qafasi. Ushbu apparat a'zolari tovush hosil qilish uchun zarur bo'lgan havo oqimini bosqichma-bosqich a'zolarga etkazib beradi, shu ma'noda havo manbai sanaladi;



1-rasm. Nafas apparati.

1-qalqonsimon tog'ay; 2-uzuksimon tog'ay 3-kekirdak (traxeya); 4-bronxlar; 5-bronxlarning uchki tarmoqlari; 6-o'pkaning tepa iismi; 7- o'pkaning tag (ost) qismi.


b) *bo'g'iz bo'shlig'i*- traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalar mavjud. Bu apparatdagi eng faol a'zolar un paychalaridir:



2-rasm Bo'g'iz (hiildoi).


A) bo'g'izning old tomoni: 1- qalqonsimon tog'ay; 2-uzuksimon tog'ay; 3- til osti moyagi; 4-qalqonsimon tog'ayni til osti suyakka ulab turuvchi pay; 5- uzuksimon tog'ay bilan qalqonsimon tog'ay orasidagi pay; 6- kekirdak (traxeya).

B) bo'g'izning orqa tomoni: 1- qalqonsimon tog'ay; 2- uzuksimon tog'ay; 3- qalqonsimon tog'ayning yuqori shoxlari; 4- qalqonsimon tog'ayning quyi shoxlari; 5- cho'michsimon tog'aylar; 6- bo'g'iz qopqog'i; 7- traxeyaning orqa qismi.



1-rasm. Bo'g'izning ko'ndalang kesilgandagi ko'rinishi.

1- qalqonsimon tog'ay; 2- cho'michsimon tog'aylar; 3- un (ovoz) paychalarining qirralari; 4- ovoz paychalari orasidagi tirqish.



a b v g d

2-rasm. Ovoz paychalari orasidagi tirqish ko'rinishlari.

a) tinch holat; b) ovoz holati; v) shivirlash (pichirlash) holati; g) nafas chiqarish holati; d) nafas olish holati.

- un (ovoz) paychalari tinch holatda turganda, ularning oralig'i ochilgan bo'ladi, natijada nafas apparatidan kelayotgan havo oqimi shu oralikdan oqib ketadi. Bunday vaziyatda ovoz hosil bo'lmaydi;


- ovoz paychalari tortilgan (taranglashgan) da, ular orasidagi ochiq bo'shliq yumuq holatga keladi, natijada havo oqimining yo'li to'siladi, havo oqimi taranglashgan un paychalariga urilib, uni tebratadi. Bunday tebranish ovoznin (asosiy tonni) yuzaga keltiradi. SHuning uchun bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbai hisoblanadi. Ovoz esa unli tovushlarni, jarangli va sonor undoshlarni hosil qilishda shakllantirishda fizik komponent sifatida qatnashadi.

-ovoz paychalari bo'shroq tortilgan holatda shu paychalar orasida tonning bo'shliq yuzaga keladi, havo oqimi shu bo'shliqdan sirg'alib, ishqalanib o'tadi, ammo un paychalarini tebratmaydi, natijada shovqin hosil bo'ladi, bu shovqin pichirlab yoki shivirlab gapirganda qo'llanadi;

v) *halqum*- bo'g'izdan yuqoriroqda joylashgan bo'shliq. U uch qismdan iborat: pastki qismi hiqildoq (bo'g'iz)ga tutashgan o'rni; o'rta qismi-halqumning og'zi. Bu qism og'iz bo'shlig'i tomonga ochilgan bo'ladi; yuqori qismi- burun bo'shlig'iga va eshitish paylariga birikkan (tutashgan) qismi;

g) *og'iz bo'shlig'i*- til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglay, til osti muskulidan iborat apparat. U orqa tomonidagi tomoq orqali halqumga tutashadi;

d) *burun bo'shlig'i* - qo'shimcha ton manbai. U yumshoq tanglay oxirida kichik tilning quyi tomon harakat qilishi natijasida rezonatorga aylanadi: havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'idan o'tib, qo'shimcha tonlarni yuzaga keltiradi. Ona tilining m,n,ng undoshlari shu apparat ishtirokida yuzaga keladi.



5-rasm. Boshning bo'ylama kesmasi. YUmshoq tanglay pastga tomon siljigan



Fig. 1. Boshning bo'ylama kesmasi. YUmshoq tanglay yuqori tomon shiflangan.

Faol a'zolar: 1-lablar; 2-tilning old qismi; 3-tilning o'rta qismi; 4-tilning orqa qismi; 5-til o'zagi; 6-kichik til; 7-yumshoq tanglay; 8-yumshoq tanglayning orqa qismi.

Passiv a'zolar: 9-old tomondagi yuqori tishlarning uchi; 10-old tomondagi yuqori tishlarning orqa qismi; 11-12-qattiq tanglayning old qismi; 13-tanglayning orqa qismi; 14-yumshoq tanglayning old qismi; 15- yumshoq tanglayning orqa qismi.

Nutq a'zolarining fiziologiyasi deyilganda shu a'zolarining hayotiy faolligi, muhit bilan bo'ladigan munosabatlari nazarda tutiladi. Bunday kechimga nutq a'zolarining qabig'ining cho'zinchoq miya qismida joylashgan markaziy nerv tizimi tomonidan boshqariladi. Bu sistema maxsus funksiyalarni bajaradigan nerv hujayralari to'plamidan iboratdir. Uning *brok markazi* deb nomlanuvchi turi nutq yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan nerv tizimiga hisoblanadi. *Eshituv markazi* nomli turi esa eshitish a'zolaridan keladigan signalni iborat etadigan nerv markazi sanaladi. Bu markaz faoliyatini o'rganish nutqning perseptiv (eshitib his etish) aspekti deb ham qaraladi. Demak, til harakati amalga oshiriladigan nutqiy aloqa bevosita shu markazlar ishtirokida amalga oshiriladi.

1. Nutq a'zolarining ijro kechimi - nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtiroki (harakati va holati). Bunday kechimga, yuqorida aytib o'tilganidek, nutq a'zolarining fiziologiyasi bilan bog'liqdir. Odatda, nutq a'zolarining harakati va holati artikulyasiyani shakllantiradi. Artikulyasiya esa harakatli yukillarida psixologik va fiziologik ko'nikmalarga tayanadi. Bu holatda millat tilining *artikulyasiya bazasi* hisoblanadi. SHuning uchun bir millat

vakilida boshqa millat tiliga xos artikulyasiya bazasi (psixologik va fizik ko'nikmalar) bo'lmazligi mumkin. Demak, tillar bir-biridan artikulyasiya bazalaridagi ba'zi belgilari bilan o'zaro farq qiladi.

Har qanday nutq tovushining artikulyasiyasi uch bosqichdan tarkib topgan: birinchi bosqich-*ekskursiya* (hozirlanish), ikkinchi bosqich – o'рта holat (holati), uchinchi bosqich-*rekursiya* (talaffuzning qaytishi). Nutq jarayonidagi bosqichlarning chegarasi mavhumlashadi: odatda, bir tovushning artikulyasiya nihoyasiga etmay, ikkinchi tovush ekskursiyasi boshlanadi, natijada tovushlar biriga dinamik ravishda ulanib, ular orasidagi talaffuz chegaralari sezilmay keladi. Bunday chegaralarni yozuvda (harflar misolida) aniq sezish mumkin.

Eslatma. 1) nafas apparati tovush hosil qilish uchun kerak bo'lgan bosimni etkazib beradi; 2) bo'g'iz (hiqildoq) ovoz hosil qiladi; 3) halqum, qo'ng'irak va bo'shlig'i tovushni shakllantiradi; 4) burun bo'shlig'i qo'shimcha ton beradi.

Eshitib his etish aspekti (perseptiv aspekt). Fonetikaning bu aspekti fonetika birliklarning eshitish a'zolariga ta'sirini his etish orqali so'zning ma'nosini yozuv gap va nutq mazmunini idrok qilish qonuniyatlarini o'rganadi.

Ma'lumki, inson tashqi dunyoni o'zining sezgi a'zolari orqali his etib ko'radi, eshitadi, sezadi. Fonetik birliklar ham moddiy-material hodisa sifatida insonning eshitish a'zolariga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sir shunchaki moddiy hodisaning ta'sirigina emas, balki fonetik so'zning (ma'noga ega bo'lgan formaning) yoxud gapning ta'siri bo'ladi. SHuning uchun har qanday so'zning shaklini yoki gapni eshitganimizda, ongimizda shu birliklarning ma'nosini yozuv mazmuni, aniqrog'i, ma'no yoki mazmun obrazi gavdalanadi. Bunday his etish idrok qilishsiz tilning birorta funksiyasi(nominativ funksiya, kommunikativ funksiya, emotiv funksiya va hokazolar) amalga oshirilmaydi.

Lingvistik-funksional aspekt. Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning mexanizmidagi rolini, demak, tilning ijtimoiy mohiyatini belgilashning ahamiyatini o'rganadi. Tilshunoslikda fonetikaning bu aspekti *fonologiya* ataladi (qarang: 19-§).

Tekshirish savollari

1. Tovushning fizik-akustik tabiatiga nimalar kiradi?
2. Tovushning balandligi nima?
3. Tovushning balandligi nima bilan o'lchanadi?
4. Tovushning baland-past tarzda to'liqlanishi nimani hosil qiladi?
5. Melodika nima? Uning nutqda qanday ahamiyati bor?
6. Murakkab tovushni qanday tushunasiz?
7. Tovush kuchi nima? U qanday o'lchov birligi bilan belgilanadi?
8. Tovush kuchining til va nutqda qanday ahamiyati bor?
9. Tovush tembrini qanday tushunasiz?
10. Formant nima? U qanday aniqlanadi?
11. Nutq apparatlaridan qaysilari rezonatorlik (akustik filtrlilik) funksiyani bajaradi?
12. Tovush tembrini vositasida nimalar farqlanadi?

10. Fonetik cho'ziqligi nima? Uning qanday turlari bor?
11. Fonetik va fonetik cho'ziqliklar nimasi bilan farqlanadi?
12. Fonetikning sifat va miqdor belgilariga nimalar kiradi?
13. Fonetik birliklarning biologik asosini qanday tushunasiz? Fonetikaning asosida "biologik asos" haqida ma'lumot beriladi?
14. "Biologik asos"ni o'rganishning qanday ahamiyati bor?
15. Fonetik asosining anatomiyasi, fiziologiyasi va ijro kechimlarini qanday tushunasiz?
16. Artikulyatsiya qanday bosqichlardan tarkib topadi? Ekskursiya, o'rta va oxiriy bosqichlarning xususiyatlarini qanday tushunasiz?
17. Artikulyatsiya rekursiya nima?
18. Fonetikaning perseptiv aspekti nimani o'rganadi?
19. Fonetikaning lingvistik-funksional aspekti deganda nimani tushunasiz?
20. Fonetikaning funksional aspekti fonologiya deb nomlanadi?

FONOLOGIYA

Fonologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning tovush materiyasi asosida va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini o'rganadi. U tilning tabiiy va ijro tabiiy vazifalarini tadqiq qiladi. Bu sohanning o'ziga xos jihati shundaki, u fonetika semiotik aspektida (belgilar tizimi sifatida) o'rganadi. Tilshunoslikda fonologiya fonetikaning bir qismi sifatidagi maqomi xususida ikki xil fikr mavjud. *Birinchi fikrga* ko'ra fonologiya fonetikaning o'zi emas, chunki fonetika nutq tovushlarini, fonologiya esa til tovushlarini o'rganadi: nutq tovushlari haqidagi ta'limot (fonetika) aniq fizik hodisalarni, til tovushlari haqidagi ta'limot (fonologiya) esa tovushlarning lisoniy-vazifaviy xususiyatlarini tadqiq qiladi, shunga ko'ra fonologiya fonetika tadqiqot metodlari ham har xil: fonetika tabiiy fanlarning tadqiqot metodlariga, fonologiya esa lingvistik tadqiqot metodlariga, asoslanadi. *Ikkinchi fikrga* ko'ra, fonologiyani fonetikadan ajratib bo'lmaydi, chunki muayyan tilning fonemalik tizimini, bu tizimdagi har bir fonemaning "semantizatsiyalashgan" belgilarini (semantizatsiyalashgan) belgilarini shu tilning konkret talaffuz xususiyatlarini asosidan tadqiq qilib bo'lmaydi. Demak, fonologiya aslida fonetikaning o'zi, fonetika yuqori bosqichi, xolos. Binobarin, fonolog bir vaqtning o'zida fonetist ham bo'lishi kerak, ayni paytda fonetist ham doimo (shu jumladan, fonologiya asosida bo'lgan davrgacha ham) ma'lum darajada fonolog bo'lgan, chunki u fonemalik tizimni o'rganadi, buni fonemalik tizimni o'rganishni emas, balki til tovushlarini o'rganan.

Ma'lumki, fonetikada tovush va bo'g'in segment birliklar, urg'u va intonatsiya (ohang) esa supersegment birliklar tarzida tavsiflanadi. Fonologiyada fonemalik birliklar lisoniy-vazifaviy xususiyat taqozosi bilan fonema (tovush), sillabema (stavbu), aksentema (urg'u) va intonema (intonatsiya, ohang) deb nomlanadi, fonologiyaning o'zi esa segmental fonologiya va supersegmental fonologiya kabi turlarga ajratiladi (1,14-b.).

Segmental fonologiyaning asosiy predmeti fonemadir, shunga ko'ra u fonemalik tizim, fonemika nomlari bilan ham ataladi.

« VIII **chop/a** –**chop**, **ur/a** –**ur**, **taqir/a** –**tuqur** kabi konstruksiyalar - da kuchaytirish funksiyasini bajaradi.

« IX **qiz/a/loq** kabi o'rinlarda –**a** elementi analogiya yo'li bilan qo'shilgan.

« X ravishdosh formasini hosil qiladi: **bor/a** –**bor/a**, **chop/a** –**chop/a**.

« XI mimemalardan ravish hosil qiladi: **tapp/a** –**tapp/a**, **gupp/a** –**gupp/a**, **hantt/a**, **taqq/a** (**to'xtadi**).

« XII ayollik jinsining ko'rsatg'ichi bo'lib keladi: **Karim/ov/a**, **olim/ov/a**. Demak, bu affiks polisemantik va ommonimlik xususiyatiga ega bo'lib, so'z yasovchi va forma yasovchi funksiyasida keladi. Bu morfema –a shakli bilan o'xshash formaga ega. Masalan, **chop/a** –**chop/a** va **chop/a!** shaklida bo'lganda defies o'rqali ko'rsatilib, shu bilan bular yozuvda farqlanadi). Ayrim hollarda bog'lovchi unli vazifasida ham keladi: **bor/a/r**, **kel/a/r**.

-ajak juda kam qo'llanadi, undosh bilan tugagan fe'llar bilan keladigan keladigan zamon sifatdoshi formasini yasaydi: **kel/ajak, bo'l/ajak, bor/ajak**. Bunda aslida ravishdosh ko'rsatgichidir. Unlilardan so'zga -y ortiriladi.

-ay I fe'llning istak maylini hosil qiladi: **bor/ay, kel/ay, yoo/ay, ter/ay** kabi (q. -y).

-ay II sifatdan ot (**ko'k/a/y**), sifatdan sifat (**o'nf/a/y**) yasaydi.

-ak I otdan ot yasaydi; kichraytirish va o'xshatish ma'nosini ifodalaydi: **yo'l/ak, barg/ak**.

-ak II otlardan o'xshatish bildiruvchi sifatlar yasaydi: **qizil/ak, g'ul/ak, g'alvir/ak (yong'oq), kes/ak**.

-ak III mimemalardan ot yasaydi: a) yakka holda: **qars/ak, g'ul/ak, g'urr/ak**; b) takrorlangan holda: **biz/biz/ak**.

-akay kichraytirish affiksi sifatida ajraladi: **yo'l -yo'l/akay, birvat/akay**.

-akam ot va sifatlardan ravish **ya** sifat hosil qiladi: **yolg'um/dakam, hazil/akam, chin/akam, rost/akam** kabi.

-aki otdan sifat yasaydi: **yod/aki, yuz/aki, og'z/aki**; ba'zan taqlidiy (g'irg'ir/aki, shart/aki, jirt/aki), ravish (**burun/aki**), sifatdan sifat (**qora/aki, sho'r/aki, puch/aki**), fe'ldan sifat (**ko'r/ma -ko'r/aki**) yasaydi.

-ala I forma yasovchi: **ikki, uch, to'rt, besh** sonlarining jamlovchi (**uch/ala, ikk/ala, to'rt/ala, besh/ala**) turini hosil qiladi.

-ala II (-a+la) fe'llarga qo'shilib, intensivlik ma'nosini ifodalaydi: **quv/ala/moq, qayt/ala/moq**.

-alak sifatdan ot yasaydi, kichraytirish ma'nosini bildiradi: **dung/alak**.

alla - so'roq olmoshlari oldidan qo'shilib, gumon olmoshini hosil qiladi: **alla/kim, alla/qaer, alla/qachon, alla/nima, alla/nechuk**. Vaqt, mahal so'zlar oldidan kelib, payt ravishini hosil qiladi: **alla/mahal, alla/vaqt**.

-an arab tilidan kirgan so'z (ot) larda ravish yasovchi funksiyasida keladi: **asos/an, javob/an, shakl/an, umum/an, taxmin/an, vijdon/an, mazmun/an, shaxs/an** kabi.

-ana **ko'rm/ana, to'y/ana, rasm/ana** kabi so'zlarda uchraydigan postpozitiv element.

-ar undosh bilan tugagan fe'llardan kelasi zamon sifatdoshi formasini yasaydi: **tinchliksev/ar, mehnatsev/ar, izquv/ar, husnbuz/ar, ishbuz/ar, bo'lum/otchop/ar, cho'rtkes/ar, bo'yo's/ar, beshiktervat/ar, tevoz/ar**. O'rinbosar/

choq/ar, cho'chqaboq/ar, qo'yboq/ar tipidagi sifatdoshlar odatda otlashgan bo'lib

aro ora so'zi bo'lib, affikslasha boshlagan otlarga qo'shilib keladi, bu so'z o'zaro sifat vazifasida qo'llanadi: o'z/aro, bazm/aro, hujayralar/aro, qo'ngir/aro kabi.

asi (a+si) fe'l negizidan uning sifatdosh formasi yasaladi: kel/asi (yil), mol/mol (mol).

ot 1) arab tilidan kirgan so'zlar guruhida uchraydi: qonun/iy/at, zarur/at, inson/iy/at, majbur/iy/at. 2) fe'ldan ot (o'l/at, ko'ch/at), otdan ot (ot/at) yasaydi.

aqay chap/aqay (sifat)

g'on fe'ldan sifat yasaydi va kuchaytiruv ottenkasiga ega bo'ladi: ol/a/g'on, ol/a/g'on, kul/a/g'on, tep/a/g'on, top/a/g'on, chop/a/g'on, qop/ag'on. Sifat -a (intensivlik affiksi)+g'on (sifatdosh affiksi).

b fe'l negizlaridan o'tgan zamon ravishdoshini hosil qiluvchi morfema: to'la/q, qari/b, o'yna/b, so'zla/b kabi. Bu tipdagi ayrim ravishdoshlar ravishga o'tmagan: Qishloqqa qara/b (tomon) ketdi.

ba – tojik tilidan kirgan pristavka, passiv, o'zbek tilidagi -li morfemasi bajarilgan vazifani bajaradi, uning sinonimi hisoblanadi. U otlar oldidan qo'shilib, ot negizida ifodalangan predmetga egalikni bildiruvchi sifat yasaydi. Odatda o'zbekdan kirgan so'zlar guruhida uchraydi: ba/davlat (davlatli), ba/quvvat (quvvatli), ba/ma'ni, ba/savlat. Ayrim hollarda ba- morfemasini -li morfemasi bilan almashtirish mumkin bo'lmaydi: ba/zo'r // zo'rli (?!).

bad – passiv, tojik tilidan kirgan, otdan salbiy ma'no ottenkali –“yomon ma'nosidagi” sifat yasaydi: bad/nom, bad/baxt, bad/bashara, bad/jahl, bad/qovoq. U tojik tilidagi fe'llardan ham sifat yasaydi: bad/bin, bad/xo'r.

bar – tojik tilidan kirgan otlarga qo'shilib, shu ot ifodalagan ma'noga egalikni bildiruvchi sifat yoki ravish hosil qiladi: bar/qaror, bar/ta'raf, bar/hayot, bar/haq; ba'zan uni o'zbekcha -li affiksi bilan funksional almashtirish mumkin: ba/havo // havo/li // havo/ dor, bar/vaqt// vaqt/li.

be – tojik tilidan kirgan otlardan shu ot ifodalagan predmetga ega emaslikni bildiruvchi sifat va ravish yasaydi. Ba'zan tojik tilidagi no- prefiksi, ba'zan esa o'zbekcha – siz affiksi bilan funksional almashishi mumkin: be/ayb, be/andaza, be/armon, be/baxt, be/vaj, be/vosita, be/ davo. be- bilan –siz yoki no- affikslarni almashtirish mumkin bo'lmaydigan o'rinlar (semantik farqlanadigan o'rinlar) ham

bor: **bo/bosh** qo'llanmaydi, **be/bosh** (sho'x) // **bosh/siz** (boshqarib) // **be/malol** (malolsiz), **nomalol** mumkin emas, **notinch** // **betinch** emas, **tinchsiz** ham qo'llanmaydi.

bo –tojik tilidan kirgan, otdan sifat yasaydi. Tojik tilidagi **ba-**, ser- pe- **-dor** suffiksi Ona tilidagi **-li** affiksi anglatgan ma'noga mos keladigan affiks anglatadi: **bo/adab** –**ba/adab** // **adab/li**, **bo/maslahat** –**ba/maslahat** // **maslahat/li**, **bo/umid** // **umid/li**, **bo/xabar** –**ba/xabar** // **xabardor**.

-boz tojik tilidan kirgan, otdan sifat yasaydi. Ba'zan u **-voz** shaklida kiradi (b-v): **nayza/boz**, **bedana/boz**, **lo'tti/boz**, **kaptar/boz**, **dor/boz**, **astahshashka/voz**, **masxara/voz**, **qog'oz/voz**.

-bon biror narsaga qarab turuvchi, qo'riqlovchi shaxsni bildiruvchi sifat yasaydi: **bog'/bon**, **qo'ychi/bon**, **saroy/bon**, **-bon** morfemasi **-von** formasi bilan qo'rinadi (b-v): **darvoza/von**, **qo'ychi/von** kabi.

-v fe'l negizidan harakat nomi, ish prosesini bildiruvchi otlar yasaydi: **bezillo/v**, **haydo/v**, **ayblo/v**, **so'zlo/v**, **qishlo/v**, **tergo/v**, **undo/v**, **bag'aylo/v**, **sino/v**, **saylo/v**, **maqto/v** bunday vaqtda **v** oldidagi **a** tovushi **o** ga o'tadi. Aniq predmet nomini ko'rsatuvchi ot yasaydi: **yaylo/v**, **bur/o/v**, **qish/lo/v**, qarab **-(i)sh**, **-(u)v**, **-moq** affikslari bilan funksional almashuvi mumkin: **ayblo/v** // **aybla/sh** // **aybla/moq**, **qutlo/v** // **qutla/sh** // **qutlamoq**.

-vachcha tojikcha yosh bola ma'nosidagi bachcha so'zidan olingan morfem element. 1) otlarga qo'shilib, qavm –qarondoshlik munosabatini bildiruvchi otlar yasaydi: **xola/vachcha**, **jiyan/vachcha**, **amaki/vachcha**, **aka/vachcha**, **qozi/vachcha**, **boy/vachcha**; 2) jonivorlarga nisbatan ishlatilganda **bola** (si) ma'nosini bildiruvchi otlar yasaydi: **kuchuk/vachcha**, **it/vachcha**, **mushuk/vachcha**, **It/vachcha**, **qul/vachcha** tipidagi qo'llanishlarda stilistikbo'yoq bor.

-ver bermoq yordamchi fe'lidan bo'lib, affiksga aylanish prosesi bilan bog'liq. Intervokal holatda **b** tovushi **v** ga o'tadi (b-v). **-a** yoki **-y** formasi bilan ravishdoshdan davomlilik, takrorlanganlikni bildiruvchi fe'l yasaydi: **o'qil/y/v**, **yoz/a/ver/di**, **so'z/la/y/ver/di** kabi.

Ba'zan **“boshlayver”**, **“tortinma”** kabi to'siqsizlikni bildirish otlari ham ega bo'ladi: **nega jimsan**, **gapira/ver**.

-viy nisbiy sifatlar guruhida uchraydi. Odatda arab va tojik tilidan kirgan so'zlarda qo'llanadi: **qabila/viy**, **oila/viy**, **zamona/viy**, **afsona/viy** kabi (q: -iy).

-vor sifatlardan, otlardan egalik, kuchaytiruv kabi ma'nolardagi sifat yasaydi: **ulug'/vor**, **umid/vor**, **dori/vor**.

-ga I jo'nalish kelishigi qo'shimchasi: **uy/ga, maktab/ga**.

-ga II ba'zan kelishik affiksi bilan qolgan holda ravishga o'tadi: **erta/ga, sado/ga, tekin/ga, bir/ga, bekor/ga, go'r/ga** (mayli ma'nosida). Shuningdek, III sava egalik affiksi bilan birlikda kelib, sifat, ravish, ba'zan otdan ravish yasaydi: **qad [si/ga], tikka [si/ga], aylan/a [si/ga], chap/pa [si/ga], ochiq/cha [si/ga], qo'r/ona [si/ga], qator/a [si/ga]**.

-ga affiksi **behuda/ga, qayta/ga, jo'rtta/ga, bekor/ga** kabi ravishlar guruhida uchraydi.

-ga III **ena/ga, o'z/ga** kabi otlar guruhida ham uchraydi.

-ga IV **ter/ga/moq, sur/ga/moq** tipidagi fe'llarda intensivlikni ko'rsatish bilan xizmat qiladi.

-gaz (turli fonetik variantlarda keladi) fe'lning orttirma darajasini hosil qiluvchi affiks: **yur/giz, kir/giz, kiy/giz, ko'r/gaz, tur/g'az, o't/kaz, o't/qiz, tut/qaz, tut/qiz, bit/kiz, bit/qaz, et/kaz, et/kiz, et/qaz**. Bu affiksning **-kar, -kir** turidagi varianti ham mavjud: **o't/kaz // o't/kar**. -gaz ning turli xil formalari o'rni bilan orttirma daraja yasovchi boshqa formalar bilan funksiyadosh bo'la oladi: **ko'r/gaz // ko'r/sat, bit/ir // bit/kaz, to'y/g'az // to'y/dir, ye/giz // ye/dir** kabi.

-gani (**-kani, -qani**) fe'l negizlaridan maqsad ravishdoshi yasaydi: **yo'z/gain, ko'r/gain, ek/kani, taq/qani** kabi. Ko'proq poeziyada -gani affiksining **-gali (-kali, -qali)** kabi arxaik formasi ham uchrab qoladi. Hozir u qo'llanishdan chiqqan. -gani (**-kani, -qani**) hozirgi Ona tilida **uchun** ko'makchisi bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin.

-gancha (**gan(i)cha**) holat, payt bildiruvchi ravishdosh yasaydi: **o'tir/gancha, yugur/gancha, yot/gancha, ket/gancha** (shu **ket/gancha**qaytib kelmadi). -guncha (**kuncha, quncha**) affikslari -gancha affiksining Grammatik sinonimi hisoblanadi. Ba'zan -ga+qadar konstruksiyasi bilan sinonim bo'lishi mumkin.

Payt bildirganda -ga+qadar, -ga+cha kabi konstruksiyalarga sinonim bo'lishi mumkin. Holat bildirganda "...dan+ko'ra" konstruksiyasiga to'g'ri keladiva boshqalar.

-gar (**-kar, -kor**) otdan ishlab chiqaruvchi shaxs, kasb egasini bildiruvchi shaxs oti yasaydi, passiv. Jarangli undoshdan so'ng

-gar, jarangsizdan so'ng -kar, jarangsiz undosh va unlidan so'ng -kor shaklida ham bo'ladi. Ba'zan unlidan so'ng ham -gar shaklida ishlatiladi: **holva/gar,**

firib/gar, sovun/gar, davo/gar, mifs/kar, tajriba/kor, lavlagi/kor, qaratilgan/ijod/kor, san'at/kor.

-gar affiksi asli tojik tilidagi *kor (ish)* so'zi bilan aloqador bo'lib, tojik va ona tilidagi -chi affiksi anglatgan ma'noga yaqin ma'noni anglatib uchraydigan qiladi. **Qiyos.:** holva/gar // holva/chi, nag'ma/gar // nag'ma/chi, suzum/gar // suzum/chi kabi. Ammo ayrim vaqtlarda ular funksional almasha olmaydilar: hiyla/gar // hiyla/chi, ig'vo/gar // ig'vo/chi.

Shuningdek, -chi bilan birgalikda ham keladi: Savdo/gar/chi/lik. Bu affikspleonastik affikslardir. Bunda ulardan biri semantik jihatdan kuchsizlashib, yasalmas yasovchidan shakl yasovchiga o'tadi.

-garlik otdan ot yasaydigan affiks: sovun/garlik. Ko'pincha

-gar/chi/lik formasida keladi: sovun/gar/chi/lik, oshna -og'ayni/gar/chi/lik (qargarchilik).

-garchilik qo'shma affiks (-gar+chi+lik) bo'lib, abstrak ot yasaydi: boshqalar nomi, kasb nomi va boshqalar: ovora/gar/chi/lik, serob/gar/chi/lik, loy/gar/chi/lik, sovun/gar/chi/lik kabi.

Ko'p hollarda -garchilik affiksi o'zbekcha affikslar -chilik yoki -likning grammatik sinonimi bo'la oladi. Chog'ishtiring: sharmanda garchilik//sharmanda / lik ; mahmadona / garchilik // mahmadona chilik//mahmadona / lik. Bu so'larda -garchilik, -chilik va -lik affikslarini almastirish mumkin bo'lsa, xumori/garchilik kabi so'zlarda -garchilik o'rnida -chilik yoki -lik affiksini ishlatib bo'lmaydi. Xuddi shunday og'ir/chilik tipidagi so'zlardagi -chilik affiksi o'rnida

-garchilik affiksini ishlatib bo'lmaydi.

-gach *k, g* tovushidan so'ng -gach, -kach; *q, g* tovushlaridan so'ng qachaffiksi payt va sabab ma'nosini anglatuvchi ravishdosh yasaydi: kor/gach, yoz/gach, yur/gach, bitir/gach, tek/kach, yiq/qach, chiq/qach. -gach affiksi ravishdosh yasovchi -(i)b affiksi bilan ba'zan sinonimik munosabatda bo'lib o'qi/bbo'l/ib keldim // o'qib bo'l/gach keldim. Ayrim hollarda -gach affiksi *gandan keyin* (so'ng) konstruksiyasi bilan funksiyadosh bo'ladi: U kel/gach, men ketdim // u kel/gandan keyin (so'ng) men ketdim.

Uning payt va sabab ma'nolari, odatda, kontekstda konkretlashib (masalan, u ayt/gach,...), lekin inkor formasi bilan kelganda, ko'pincha sababbildiradi: U borma/gach, men bordim.

-gacha (-ga+cha) qo'shma affiks . Ot, sifat, olmosh, ravishdan chegara ma'nosini bildiruvchi ravish yasaydi: kech/gacha, kuz/gach, uy/gacha, uyat/gacha.

-gacha affiksi qadar //dovur ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin. Chog'ishtiring: Toshkentgacha// Toshkentga qadar // dovur; soat/gacha// oltiga qadar //dovur kabi. Bular orasida nozik semantic farq bor: beshinchigacha (do...) –o'n beshinchiga dovur (po...).

-gi I unli va jarangli undoshdan so'ng -gi (-g'i), -g'u, jarangsiz undoshdan so'ng esa -ki (-qi).

Bu affiks fe'l negizlaridan narsa-ob'ekt va qurol otlarini yasaydi: chol/g'i, dal/g'u, suz/gi, supur/gi, yoqil/g'i.

-gi II abstrakt ot yasaydi: kul/gi, sez/gi, tuy/g'u(q.-ki I, -qi I,-g'i).

-gi III ot, ravishdan ko'pincha nisbiy sifat hosil qiladi: yana/gi, song/gi, ko'ng/gi, endi/gi, ichkari/gi, avval/gi, kunduz/gi, tun/gi, burun/gi kabi (q. -ki II, -qi III).

-gi IV egalik affikslari bilan birgalikda kelib (ish oti bo'lib), u so'z *kelmoq* fe'li bilan qo'shilganda hohish ma'nosini anglatish uchun xizmat qiladi: ko'r/gi+m tildi, o'qi/gi+m keldi kabi. Xuddi shu ma'no -gi +m affiksli so'zlarni *bor* va *yo'q* so'zlari boshqarganda ham yuz beradi: so'ra/gi+m bor, ishla/gi+m bor kabi (q. -ki III, -qi III).

-gi V fe'l negiziga qo'shilib, takrorlanish, davomlilik ma'nosini bildiradi: yugur/gi/la/moq, cho'z/g'i/la/moq.

-giz fe'lning ortirma darajasi formasini hosil qiladi. -giz affiksi, asosan, o'timsiz fe'llarga qo'shilib, uni o'timlashtiradi: yur/giz, kir/giz, ko'r/giz (q. -g'iz, g'uz (-gaz), -kaz, -kiz, -qaz, -qiz).

Ba'zan -iz formasida keladi: em/iz, teg/iz (q. -iz).

-gil -gin affiksining tarixiy formasi: ketur/gil. Hozirgi Ona tilida -gin formasida qo'llanadi (q. -gin).

-gin I -g'in yoki -qin formasida ot yasaydi: yon/g'in, quv/g'in, tosh/qin, qit/g'in, to'v/qin kabi.

-gin II fe'ldan anglashilgan ma'noni alohida ta'kidlash, kuchaytirish bilan ifodalaydigan fe'lning buyruq maylini hosil qiladi: kel/gin, o'tir/gin, ol/gin, yoz/gin, bor/gin (q. -kin I, -qin II).

-gina I sub'ektiv baho formasi: a) o'tning e'klatilish -kichraytirish hisobida hosil qiladi: bola/gina, qiz/gina, jongina(m) kabi; b) sifatning sub'ektiv baho hisobida hosil qiladi: yaxshi/gina, katta/gina, soda/gina, shirin/gina, kichik/gina, engil/gina, jajji/gina; v) ravishda baho formasini hosil qiladi: asta/gina, tez/gina, endi/gina, hali/gina, ko'p/gina.

-gina II urg'usiz holatda ayiruv -chegaralov yuklamasi vazifasini bajaradi: faqat/gina, sen/gina, so'zlami/gina, bizlar/gina kabi (q. -kina, -qina).

-gir fe'l o'zagiga qo'shilib, biror bir harakat yoki xususiyatda o'tirishni bildirish uchun xizmat qiladi: sez/gir, bil/gir kabi. -gir o'zining xususiyati bilan -(a)g'on affiksiga ancha yaqinlashadi. Chog'ishtirishda: //sez/a/g'on, suz/gir //suz/a/g'on, bil/gir// bil/a/g'on.

-gich 1) unli va jarangli undosh tovush bilan tugagan fe'l nepolning qo'shilib, qurol, asbob oti yasaydi: suz/gich, o'tkaz/gich, ko'tar/gich, parkovla/gich, (qozon)yuv/gich, emiz/gich, qistir/gich kabi; 2) fe'l nepolning kuchaytiruv ottenkali sifat yasaydi, bu xususiyati bilan -(a)g'on affiksiga o'xshaydi: bil/gich //bil/a/g'on (tarixanular fonetik o'zgarish natijasida affiksdan kelib chiqqan).

-(v)ich affiksi bilan sinonimlikka ega: iska/gich //isko/vish va boshqalar (q. -kich, qin, -og'ich).

-gor (unli, jarangsiz undoshdan so'ng -kor). Otlarga qo'shilib, kasb ega ishlab chiqaruvchi shaxsni bildiruvchi ot yasaydi: durad/gor. -gor, -kor asl tilidan kirgan (q. -gar,-kar,-kor).

-goh tojik tilidan kirgan. O'zakdan anglashilgan voqea -hodisa bildiruvchi bog'langan o'rinni bildiruvchi ot yasaydi: sayl/goh, jang/goh, orom/goh, qaror/goh kabi. Payt ma'nosidagi "goh" so'zining (bunda goh bog'lovchisining) sinonimi.

-gu fe'lning kelasi zamonini ko'rsatuvchi tarixiy forma. Hozir Ona tilida faqat poeziyadastilistik maqsadlardagina ishlatilib keladi: Hosilingiz bo'l/gu/si, Dushman kuyib kul bo'l/gu/si (q. -qi, -g'u).

-guncha fe'l o'zak negizlaridan payt ma'nosi bilan aloqador ravishda yasaydi: kel/guncha, pish/guncha, uz/guncha, yur/guncha kabi. Davomli ma'nosi: Shaharga et/guncha suhbatlashib keldi (q. -kuncha, -quncha). Ishlatilgan mo'ljallangan ikkinchi ishdan keyin bajarilishi, shuningdek, chog'ishtirishda ma'nosi: "...dan+ko'ra": bekor yur/guncha // bekor yur/gan/dan ko'ra...

-gur fe'lga qo'shilib, istak ma'nosini ifodalaydi; odatda sifatdeklarativ vasifatlarga to'g'ri keladi: bolasi tushma/gur yosh-da... O'lma/gur otam bema'ni sevganimga yof-yof.

-gusi kelasi zamon sifatdoshi yasaydigan arxaik forma: kel/gusi ish, kel/gusi ish kabi (q. -g'usi).

-da I o'rin kelishigi qo'shimchasi: uy/da, ish/da, sex/da, bog'/da.

-da II ta'kid, to'siqsizlik yuklamasi: bo'lsa/da, kelsa/da, bitsa/da, sen/da. Bu bildiruvchi so'zlar qo'shilib, ma'nosi o'rin ravishiga to'g'ri keladi.

-da III yoz/da, kuz/da, yaqin/da, tezlik/da.

-da IV un/da/moq, al/da/moq, in/da/moq, hay/da/moq kabi fe'llar guruhida harbiydir yasovchibo'lib, -la yasovchisining allomorfidir.

-da V bog'lovchi, bunday, vaqtda u va, ham bog'lovchilari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi (ma'no o'ttenkasida farq bor): ...keldi/da ketdi // keldi va ketdi, ... kelsa/da ishlamadi // kelsa ham ishlamadi.

-dagi qo'shma affiks (o'rin kelishigi ko'rsatgichi -da) ot, sifat va olmoshdan sifat yasaydi: uy/dagi, bog'/dagi, reja/dagi, sen/dagi, men/dagi, biz/dagi, siz/dagi, tun/dagi, uzoq/dagi, yaqin/dagi, kech/dagi, quyi/dagi, gal/dagi, navbat/dagi kabi.

-day //dek ot, sifat olmosh ba'zan boshqa turkumlardagi so'zlardan sifat yasaydi: yashin/day (-dek), burgut/day (-dek), o'q/day (-dek), siz/day (-dek), kaft/day (-dek), qush/day (-dek), qilich/day (-dek), chaman/day (-dek), bin/day (-dek), avvalgi/day (-dek), tog'/day (-dek), oy/day (-dek), gul/day (-dek), padimgi/day (-dek). Bu affiks vositasida yasalgan sifat va ravishlar o'xshatish, qiyoslash ma'nosini bildiradi va singari, o'xshash, kabi, qadar ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin: gul/day//kabi, singari, oy/day//kabi, singari. Xuddi shu kabi -ga +o'xshash konstruksiyasi bilan ham sinonim bo'ladi: oy/day// -ga o'xshash, qush/day // -ga o'xshash kabi.

-day//dek qiyos ma'nosida -cha affiksi bilan sinonim bo'lishi mumkin: o'lgun//cha -day -dekkabi. -day// -dek formasi ba'zan kuchaytiruvchi -in olib kengayadi: jin/day (qiyos.:qitday) kabi ayrim hollarda o'zakka singib ketib, ajralmasdan qolgan.

-dak I fe'l o'zak negizidan ot, sifat yasaydi. Bunday so'zlar Ona tilida juda kam: kekir/dak, yugur/dak.

-dak II -day yoki -dek elementining so'zlashuv nutqidagi fonetik ko'rinishi (q. -day// -dek).

-dan I chiqish kelishigi qo'shimchasi, harakat boshlangan o'rin, payt, sabab, predmet bo'lganlik, vosita, chog'ishtirish kabi ma'nolarni anglatadi.

-dan II ot, sifat, ravish, sonlardan paradigmadan ajralib -qotib, boshqa turkumga ko'chish yo'li bilan ravish yasaydi: qayta/dan, tub/dan, qasd/dan,

tez/dan, afri/dan, atay/dan, chin/dan, bir/dan, bexos/dan, yangit/dan, ma'nosini bildirganda, qo'shimchasi kelishik qo'shimchasi —ning bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Takror so'zning birinchi komponentida, kuchaytirish ma'nosini bildirishga xizmat qiladi: yangit/dan —yangi, uzun/dan —uzoq, ko'p/dan —ko'p kabi.

—dan III donalik sonlardan taqsim son hosil qiladi: uchta/dan, beshita/dan, o'nta/dan kabi (q. -din).

—dar dar/gumon, dar/g'azab, dar/haqiqat kabi so'zlar guruhida ajratiladi. Ma'nosi: -li, -da morfemalarning mazmuniga to'g'ri keladi. Qiyos.: dar/gumon//gumonli//gumondor; dar/haqiqat//haqiqatda.

—dek //day (q. -day//—dek).

—di I o'zlik darajadagi fe'lga qo'shilib, —indi formasida ot yasovchi ma'nosi kuy/in/di, kel/gin/di, cho'k/in/di, chiri/n/di, qir/in/di, yuv/in/di, chi/in/di, yig'in/di kabi. Ma'nosi: o'sha harakat bilan tug'iladigan natija otlari.

—di II harakatni hozirgi —kelasi, kelasi yoki o'tgan zamonda bajarilganligi yoki bajarilajagini ko'rsatadigan tuslovchi affiks: o'qiy/di, ishlay/di, tashlay/di, yoz/a/di, o'qi/di, yoz/di, kel/di kabi.

Analistik fe'llardan to'liqsiz fe'l ko'pincha, aytilmay qoladi (so'zlashuv nutqi, poeziyada va boshqalar). Natijada, masalan, —ar affiksi vositasida yasalgan sifatdoshdan davomlilik, takrorlanish kabi ma'no anglatuvchi forma hosil bo'ladi: kel/ar/di, ko'r/ar/di, bor/ar/di, tashla/r/di, suz/ar/di kabi. Qiyos.: kel/uv/di —kelib edi.

—digan kelasi zamon sifatdosh formasi hosil qiladi: kela/digan, yoz/adigan, o'qiy/digan kabi. Ba'zan —ar affiksi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: oq/a/suv //oq/a/digan //suv, ko'r/ar/ko'z //ko'r/a/digan ko'z; farqi shundaki, —ar li forma bilan ifodalangan belgi nisbatan turg'unroq bo'ladi va sifatga juda yaqinlashadi. Ba'zan esa

—moqchi affiksi bilan sinonim bo'ladi: yoza/digan bo'ldi //yoz/moqchi bo'ldi, kel/a/digan bo'ldi // kel/moqchi bo'ldi.

—dik //—diq I Ona tilida ayrim fe'llardangina ot yasaydi: siy/dik, qol/diq, tashlan/diq, hor/diq, topil/diq, qoqin/diq, quvon/diq (asli sifatdosh).

—dik II poeziyada, so'zlashuv nutqida ba'zan *edik* (I shaxs ko'plik) fe'li —ar affiksi vositasida yasalgan sifatdoshlardan so'ng —dik formasida ishlatiladi va

avoniylik, takrorlanganlik ma'nosini bildiradi: kelar/dik, yozar/dik, o'qir/dik, bor/ar/dik (q. -diII).

-din (q. -dan hozirgi forma, -din arxaik forma).

-ding I poeziyada, so'zlashuv nutqida *etmoq* fe'lining II shaxs birligi, -ar formasidagi sifatdoshdan so'ng -ding tarzida ham qo'shiladi: kel/ar/ding, yoz/ar/ding, bor/ar/ding kabi (q. -di II).

-ding II ba'zi shevalarda -ning qo'shimchasi ayrim so'zlarda -ding, -ting shaklida ishlatiladi. Lekin bu adabiy norma emas.

-dingiz emoq fe'lining II shaxs ko'pligi, -ar formalisi sifatdoshdan so'ng poeziyada, so'zlashuv nutqida ba'zan -dingiz formasida ham ishlatiladi: kel/ar/dingiz, yoz/ar/dingiz, tur/ar/dingiz.

-dir I kesimlik affiksi. III shaxs birligida, fe'ldan boshqa so'z turkumlariga qo'shib, shu vazifani bajaradi: ukam o'quvchi/dir, singlim uchuvchi/dir, akam injener/dir kabi. Lakin bu "sof" adabiy forma bo'lib, so'zlashuvda, ko'pincha, buning vazifasini pauza bajaradi, demak, -dir qo'llanmaydi. Adabiy tilda ham buni ishlatish kamayib bormoqda, chunki bu element gumon, taxmin ma'nosi bilan bog'lanadi: student /dir (student bo'lsa kerak), brogan/dir (brogan bo'lsa kerak), kelgan/dir, o'qigan/dir, turgan/dir, bajargan/dir kabi.

-dir II so'roq olmoshlaridan gumon olmoshi yasaydi: kim/dir, nima/dir, qayer/dir, qayerdan/dir, kim/dir, qanday/dir kabi

Bunday vaqtda -dir II morfemasi -alla morfemasi bilan sinonim bo'ladi: kim/dir//alla/kim, qanday/dir//alla/ qanday, qayerda/dir//alla/ qayerda kabi.

-dir III fe'l o'zak -negizlaridan uning orttirma darajasi formasini hosil qiladi: yoz/dir, kul/dir, to'l/dir, ol/dir, tol/dir, ko'n/dir, Jarangsiz undoshdan so'ng -tir (q. -tir). Lakin *n, l* tovushlari bilan birgan ko'p bo'ginli so'zlarda -dir emas, -tir qo'llanadi: quvon/tir, cho'mil/tir.

-dir IV (so'zlashuv nutqiga oid. Q. -di I).

-don I tojik tilidan kirgan. Otlarga qo'shib, biror predmetni saqlash uchun xoslangan narsa, idish oti yasaydi: surma/don, suv/don, tuz/don, gul/don, kul/don, qalam/don, o'q/don, siyoh/don kabi.

-don II tojik tilidan qabul qilingan. Otlarga qo'shib, shaxsning xarakterini, xususiyatini, belgisini, ko'rsatuvchi sifat yasaydi: hisob/don, bilim/don, gap/don, qadr/don. Ma'nosi: "biluvchi", mazmunida bo'lib, -chi, -li affiksilariga ichki tomondan yaqinlashadi. Qiyos.: bilim/don//bilim/li, hisob/don//hisob/chi va boshqalar.

-dōr tojikcha *dosh*dan ega boʻlmōq (immet) feʻlidan olingan. Ular qoʻshilib, shu soʻz orqali ifodalangan predmetga egalik yoki predmetning oʻshaiga xos, taalluqli ekanligini bildiruvchi ot yasaydi: chorva/dor, nayza/dor, xazina/dor, mansab/dor, amal/dor. Keltirilgan soʻzlar asli sifatdir. Bu affiks sematika va funksiyasi bilan -li affiksiga toʻgʻri keladi. Lakin birinchidan, -li -aktiv, -dor passiv, ikkinchidan, stilistik boʻyoqda farq bor. Bu affiks, xuddi -li affiksi kabi belgiga ega boʻlishda ortiqlikni ham anglatadi: shira/dor, kungura/dor, ayb/dor, rang/dor, dong/dor kabi. Bu affiks oʻzbekcha -li affiksidagi kabi tojikchadan kirgan soʻzlardagi ser-, ba- prefikslari bilan sinonim boʻla oladi: goʻsht/dor//ser/goʻsht, ayb/dor//ayb/li, shira/dor//shira/li, maza/li//ba/maza (qiyos maza/li//be/maza). Ser- elementi baʼzan oʻzbekcha soʻzlarda ham qoʻshiladi: ser-unum.

-dosh otdan birgalik, sheriklik, umumiylik kabi maʼno anglatuvchi ot yasaydi: vatan/dosh, yoʻl/dosh, qurol/dosh, sinf/dosh, kurs/dosh, qarindosh, fikr/dosh, zamon/dosh.

-dosh baʼzan tojik tilidagi ham- affiksiga sinonimik munosabatda boʻladi: fikr/dosh//ham/fikr, suhbat/dosh//ham/suhbat, kasb/dosh//ham/ kasb, qishloq/dosh//ham/qishloq. Baʼzan ularni almashtirish mumkin emas: teng/dosh//ham/teng (?), emik/dosh//ham/emik (?), zamon/dosh//ham/zamon (?).

Ravish/dosh, sifat/dosh, un/dosh kabi Grammatik terminlar shu affiks yordami bilan yasalgandir.

-doq I 1) buyruq feʻli formasidan ot yasaydi: qovur/doq, qoʻn/doq; 2) taqlidiy soʻzning kengaygan formasidan ot yasaydi: bizil/doq, shaqil/doq, hiqil/doq, likil/doq kabi. Lekin bunda -ildoq kompleksi bir butun yaxlit sanaladi (q. -ildoq).

-doq II **u, bu, shu** koʻrsatish olmoshlaridan un/doq, bun/doq, shun/doq kabi sifatlar yasaydi. (Koʻproq soʻzlashuv nutqida uchraydi.)

-doʻz tojikcha *tikmoq* maʼnosidagi feʻldan. Oʻzakda ifodalangan predmetni tikuvchi hunarmand maʼnosidagi ot yasaydi: doʻppi/doʻz, etik/doʻz, moʻyna/doʻz, kashta/doʻz, chopon/doʻz, zar/doʻz. Koʻpgina shevalarda bu maʼnoda -ch affiksi qoʻshiladi. Masalan, etik/doʻz (adabiy tilda) -adik/chi (xorazm shevalarida).

-yotgan feʻlning ravishdosh formasiga *yotmoq* yordamchisining qoʻshilishidan hosil boʻlgan; bundagi *yotmoq* feʻli affiksiga aylanish prosessini kechirmoqda. -yotgan feʻlning sifatdosh formasi boʻlib, yordamchi funksiyada keladi. Sifatdoshning hozirgi zamon formasini hosil qiladi: kela/yotgan, bora/yotgan, oʻqi/yotgan, soʻzla/yotgan, chiqqa/yotgan kabi (q. -digan).

-yotir ravishdosh formasiga qo'shilib, fe'lning hozirgi zamon formasini hosil qiladi: bora/yotir/man, bora/yotir/san, bora/yotir kabi.

-yotir affiksi ba'zan –moqda affiksi bilan sinonim bo'lsa (bora/yotir//bor/moqda, yura/yotir//yur/moqda, yura/yotir//yurmoqda), ba'zan –ib yuribdi, –ib o'tiribdi konstruksiyalari bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin: o'qi/yotir// o'qib o'tiribdi, ukam universitetdao'qi/yotir// o'qib yuribdi va hukazo.

Lekin bularning qo'llanish doirasi va turli ottenkalari o'rni bilan farqlanadi: kela/yotir va kela/yotgan formalari zamonda bir xildek bo'lsa ham, lekin aktiv belgi ma'nosining xarakteri va sintaktik –qo'llanish xususiyati jihatidan bir – biridan ajraladi: bola o'qi/yotir –o'qi/yotgan bola.

-jin sanoqli so'zlar qatorida uchraydi. Rod (jenskiy rod) tushunchasini beradi: g'una/jin, mega/jin.

-jon I affiksoid, asosan, atoqli otlar, qavm –qarindoshlik terminlariga qo'shilin, erkalatish, o'rni bilan kesatish ma'nosini bildiradi: Nabi/jon, qosim/jon, ona/jon, dada/jon, tog'a/jon, uka/jon kabi; baqla/jon, patin/jon, maymun/jon kabi otlardagi – jon boshqa funksiyadagi omonim affiksdir.

-jon II jona/jon, qaqa/jon, oromi/jon, rohati/jon, nim/jon kabi so'zlar sostavidagi –jon “dusha” ma'nosidagi so'zga aloqador.

-zor o'zakdan anglashilgan predmetning bo'lish yoki mo'llik o'rni bildiradigan otlar yasaydi: paxta/zor, olma/zor, bodom/zor, gul/zor, chalak/zor, uzum/zor, qamish/zor, ilon/zor.

Ma'no va funksiyasiga ko'ra o'zbekcha –loq, –lik affikslariga to'g'ri keladi. Qiyos.: o't/zor//o't/loq, olma/zor//olma/liq.

-i I uchinchi shaxs egalik affiksi, birlik. Undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: kitob/i, do'st/i, vatan/i, qalb/i kabi. Unlilardan so'ng –si formasida bo'ladi. Ularda ko'plik ma'nosi o'zidan oldin kelgan –lar orqali ifodalanadi: kitob/lar/i, do'st/lar/i, qalam/lar/i kabi.

-i II boshqa tillardan kirgan so'zlarda uchraydi, odatda, o'rin –joyga munosabatni bildiruvchi sifat yasaydi: kashmir/i, kobil/i, xitoy/i, samarqand/i kabi.

Samarqand/i, Toshkent/i, qo'qond/i kabi so'zlarda u o'zbekcha –lik affiksi bilan sinonim bo'ladi.

-i III ot, sifatdan fe'l yasaydi: ranj/i(moq), tinch/i(moq), chang/i(moq), to'z/i(moq), kam/i(moq) (kam/ay) kabi.

-ib undosh bilan tugagan o'zaklardan fe'ning funksional formatini hosil qiladi: harakatni boshqa biror harakatdan oldin bajarilganligini yoki u bilan bir paytda bajarilganligini bildiradi: yoz/ib (oldim), kel/ib (turdi), bor/ib (oldi), qozg'al/ib (qoldi), ikkilan/ib (o'tirdi), eshit/ib(keldi) kabi.

-iz fe'l o'zigidan uning orttirma darajasi formasini hosil qiladi. Lekin ma'lum fonetik sharoitdagina qo'llanadi. Masalan, m tovushidan keyin o'z-o'ziga tom/iz, oq/iz.

-iy I arabchadan kirgan ayrim so'zlar guruhida uchraydi. Undosh bilan tugagan otlardan (tabiiy, jinoiy kablar bundan mustasno) nisbiy sifat yasaydi: taqlid/iy, tanqid/iy, avlod/iy, markaz/iy, amal/iy, shakl/iy, odam/iy kabi. Bu affiks ba'zi so'zlar guruhida ajratiladi, ba'zilarida esa mustaqil morfema sifatida ajrarilmaydi: madan/iy, siyos/iy, samim/iy, haqqon/iy (q. -viy).

-iy II tojik tilidan kirgan so'zlarda uchraydi. Toponimik nomlardan yoki boshqa ba'zi bir otlardan yoki sifatlardan atoqli otlar (laqablar) yasaydi: Xorazm/iy, Chust/iy, Navo/iy, Muqum/iy kabi. Bu affiks bilan yasalgan so'zlar uchraydigan, passiv bo'lib, shoir, olim va yozuvchilarning familiyasini ham ko'rsatadi: Rahmat Fayz/iy (Fayziyev), Jalol Ikrom/iy (Ikromov), Amin Umar/iy (Umarov), Dushan Fayz/iy (Fayziyev), Yunus Rajab/iy (Rajabov).

Hozirgi tilda bu element o'zak bilan qotgan familiyani bildirmaydi, shuning uchun unga hozirgi aktiv familiya ko'rsatgichi qo'shiladi (Muhammadiyev, Vasliyev).

-ik Internasional so'zlar guruhida uchraydigan bu urg'uli affiks otdan sifat yasaydi: pedagog/ik, dialog/ik, geolog/ik, filolog/ik, xirurg/ik, metod/ik, organ/ik;

-ik II fe'l o'zaklaridan ot va sifat yasaydi: ko'r/ik, o'l/ik, tesh/ik, kes/ik, bek/ik, eg/ik, kelish/ik, ko'p/ik, kekir/ik.

-ik III har xil so'z turkumidan fe'l yasaydi: ko'z/ik (moq), kech/ik (moq), bir/ik (moq), ich/ik (moq) kabi (q. -iq, -uq, -k, -q).

ik II fe'lning o'zlik darajasini yasaydi. Masalan, kermaq (biror narsani)/ker/ik/moq (o'zi).

il undosh bilan tugagan so'zlardan fe'lning majhul darajasini, ba'zan esa o'zlik darajasi formasini hosil qiladi: o't/il/di, sur/il/di, bor/il/di, et/il/di, ot/il/di, tash/il/di, chayqal/di. -il affiksining o'zlik darajada yoki majhul darajada ekanligi ko'p hollarda kontekstda bilinadi (q. -in, -l, -n).

-ildoq taqlidiy va obrazli soʻzlarda ot va sifat yasaydi: bij/ildoq, biz/ildoq, jik/ildoq, lik/ildoq, shilp/ildoq, pir/ildoq, xir/ildoq, pirs/ildoq, poʻrs/ildoq, shaq/ildoq, hiq/ildoq, soʻlq/ildoq kabi.

-illa tovushga taqlidiy va obrazli soʻzlardan feʼllar hosil qiladi. shiv/illa/moq, lov/illa/moq, uv/illa/moq, shuv/illa/moq, huv/illa/moq, ding/illa/moq, viz/illa/moq, gʻiz/illa/moq, ak/illa/moq, serk/illa/moq, dirk/illa/moq, lip/illa/moq, lop/illa/moq, qars/illa/moq kabi.

-im I birinchi shaxs egalik affiksi. Undosh tovushdan soʻng –im, unidan soʻng esa –m. Misollar: vatan/im, shahr/im, koʻz/im, kitob/im, gulzor/im, nigor/im kabi. (q. –m I)

-im II undosh bilan tugagan feʼl oʻzaklaridan ot yasaydi: kiy/im, bil/im, til/im, oʻl/im, boʻl/im, tin/im, qoʻn/im, ter/im, ajr/im, kir/im, kechir/im, qochir/im, oʻr/im, kes/im, bos/im, koʻch/im, chiq/im, un/im. Maʼnosi: natija oti, ish oti, obʼekt oti va boshqalar (q.-im II, -um).

-im III sifatlar va daraja –miqdor ravishlari yasaydi: siq/im, qis/im, ayr/im, chek/im kabi.

-imiz (-im+-iz) egalik affiksining birinchi shaxs koʻpligi. Bu forma undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi: vatan/imiz, xalq/imiz, Oʻzbekiston/imiz, kitob/imiz (q.-miz).

-imtil (q.-imtir).

-imtir belgining kuchsizligini, kamligini bildiruvchi sifat formasini yasaydi: koʻk/imtir, oq/imtir, sargʻ/imtir, qizgʻ/imtir. Bu affiks baʼzan –imtil formasida ham keladi: koʻk/imtir/koʻk/imtil kabi. Lekin bu adabiy norma emas. –imtir morfemasi –ish va –roq affikslariga oʻrni bilan sinonim boʻla oladi: koʻk/imtir/koʻk/ish, oq/imtir/oq/ish; koʻk/imtir/koʻk/roq.(q. –ish III, –imtir)

-in I feʼlning oʻzlik darajasini, baʼzan majhul darajasini hosil qiladi: kiy/in/moq, taq/in/moq, yop/in/moq, yuv/in/moq, bek/in/moq, chek/in/moq, il/in/moq, qil/in/moq, ol/in/moq kabi (q. –l, –n, –il).

-in II feʼl oʻzak –negizidan ot yasaydi: kel/in, qoʻsh/in, tug/in, yogʻ/in, yigʻ/in, boʻgʻ/in, ek/in, izgʻir/in kabi. Maʼnosi: bajaruvchi nomi, natija oti.

-in III holat, paytga munosabat bildiruvchi ravishlar yasaydi: yoz/in –qish/in, old/in, bir/in –ket/in, och/in –toʻq/in, ert/an –kech/in. Asli qurol kelishigi formasidan tugʻilgan.

-in IV yoz/ay/in, o'qi/y/in, bor/ay/in tipidagi qo'shilishlarda ma'noli kuchaytiruvchi element sifatida qo'llanadi. Qiyos.: shunday//shunday to senday//seday/in kabi.

-ing I egalik affiksi, II shaxs birlik. Undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: kitob/ing, vatan/ing, maktab/ing kabi (q. -ingI).

-ing II qaratqich kelishigi qo'shimchasi ham men, sen olmoshlaridan so'ng -ing formasida (men/ing, sen/ing) bo'ladi. Qiyos.: yozma yodgorliklarda va shevalarda siz/ing tipidagi formalar ham uchraydi.

-ing III undosh bilan tugagan fe'l negiziga qo'shilib, II shaxs hurmat ba'zan esa o'sha shaxsning ko'pligi ma'nosini ifoda qiladi: ol/ing, bor/ing, yoz/ing, kul/dir/ing, ish/lat/ing, chop/tir/ing, top/dir/ing, top/ing kabi (q. -ng III). Bu affiksning egalik formasi va tuslovchi affiks holatlari (ko'z/ing -ko'r/ing) turlicha jihatdan aloqador: bular bir manbaga ega.

-ingiz I ikkinchi shaxs egalik affiksining ko'pligi. Undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: vatan/ingiz, kitob/ingiz, do'st/ingiz kabi (g. -ngizI).

-ingiz II undosh bilan tugagan fe'l o'zak -negizlaridan buyruq maylining II shaxs ko'plik formasini hosil qiladi: chal/ingiz, yoz/ingiz, kel/ingiz, o'tir/ingiz. Bunda o'rni bilan hurmat ottenkasi ham bo'lishi mumkin. So'zlashuv nutqida ko'pincha -inglar formasi qo'llanadi, bu forma brogan sayin adabiy til normasiga aylanmoqda: aytingiz-aytinglar. Qiyos.: qiz/ingiz//qiz/inglar (q. -ngiz II).

-indi fe'llarga qo'shilib, o'sha harakat natijasida paydo bo'lgan predmetni bildiradi, natija oti yasaydi: yuv/indi, qir/indi, supur/indi, chiq/indi, oq/indi, kuy/indi kabi (q. -ndi).

-inti (q. -indi).

-inchi forma yasovchi affiks bo'lib, undosh bilan tugagan so'zlardan (sonlardan)tartib son hosil qiladi: bir/inchi, besh/inchi, o'n/inchi, qirq/inchi, yuz/inchi kabi (q. -nchi).

-ir I ot va mimemalardan fe'l yasaydi, shu o'zakdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq bo'lgan harakatni bajarishni bildiradi: gap/ir, tup/ir, shop/ir kabi. Qiyos.: yoz/g'ir (-yoz/iq/di).

-ir II ma'lum fonetik sharoitda (odatda, **ch,sh** tovushi bilan tugagan) fe'llarga qo'shilib ortirma daraja formasini hosil qiladi: ich/ir/moq, bich/ir/moq, oeh/ir/moq: qoch/ir/moq, o'ch/ir/moq, ko/ch/ir/moq, pish/ir/moq, osh/ir/moq.

-ira undosh bilan tugagan ba'zi mimemalardan fe'l yasaydi: sharq/ira, g'urk/ira, yarq/ira. Asli -ir+ra qo'shilmasidan kelib chiqqan (qiyos.:yarq/illa). Ma'nosi: o'sha tovush yoki holat bilan xarakterlanadigan ishni bajarish.

-(i)ston xalq nomiga qo'shilib, u yashaydigan joyni; boshqa predmetlar nomiga qo'shilib, uning o'rnini ko'rsatadigan unimsiz affiks: O'zbek/iston, Tojik/iston, Qirg'iz/iston, Turkman/iston; gul/iston, qabr/iston kabi.

-ish I undosh bilan tugagan fe'l negizlariga qo'shilib, harakat nomi hosil qiladi: bor/ish, kel/ish, yoz/ish, o't/ish, chiq/ish, kul/ish, ek/ish, yur/ish kabi. Lekin bu affiks bilan keladigan ba'zi so'zlar tamoman ot bo'lib ketgan. Masalan, yirt/ish (material parchasi), o'rgan/ish (odat).

-ish II fe'llarga qo'shilib, uning birgalik nisbatini hosil qiladi. Birgalik ma'nosini turli ottenkalarga ega bo'ladi: tekshir/ish/di, tik/ish/di, ko'tar/ish/di, ko'r/ish/di, quchoq/la/sh/ish/di, so'z/la/sh/ish/di, chaqir/ish/di, yur/giz/ish/di, o'p/ish/ish/di, jo'na/t/ish/di, kez/ish/di, qaz/ish/di, chiq/ish/di, yarash/ish/di.

-ish III sifatlarga qo'shilib, rang -tus, belgining kamligini bildiradigan forma yasovchi affiks: oq/ish, ko'k/ish, sarg'/ish, qizg'/ish kabi. Bu forma belgining kamligini bildiruvchi -roq, -(i)mtir, -(i)mtil, -gina kabi formalar bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi. Qiyos.: oq/ish // oq (i) mtir // oq/roq, ko'k/ish // ko'k (i) mtil // ko'k/roq sarg'/ish//sarg'(i)mtil//sariq/roq.

-ish IV fe'lning o'zlik daraja formasini hosil qiladi: bur/ish/di, qich/ish/di, ach/ish/di kabi hollarda o'zlik ma'nosi kuchaytirish ottenkasiga ham ega bo'ladi (q. -sh).

-iyat (-iy+-at) arab tilidan kirgan so'zlar (ot va sifatlar)dan mavhum ot yasash uchun xizmat qiladi: sabab/iyat, mag'lub/iyat, zidd/iyat, qobil/iyat, mas'ul/iyat, inson/iyat, rasm/iyat, madan/iyat, imkon/iyat, majbur/iyat, zarur/iyat va boshqalar.

Bunda uch holat bor: a) -iy bilan kelgan element Ona tilida o'zak bo'la olmaydi (madaniy, siyosiy), bunda ajralish madaniy+at bo'ladi; b) -iy bilan kelgan forma mustaqil qo'llanmaydi (mas'uliyat; mas'uliy formasi yo'q). Bunda ajralish mas'ul+iyat formasida bo'ladi; v) hamma element ayrim qo'llanadi; majburiyat. Bunday ajralish -iy+at bo'ladi. Demak, bu tipdagi derivatlar -yasalmalar ikki elementli yoki uch elementli (majbur/iy/at)bo'ladi: o'zak+iy+at yoki o'zak+iyat (mas'ul/iyat). Yoki -iy elementi ajralmaydi, o'zakning guruhida bo'ladi, affiks faqat -at bo'ladi: madaniy+at.

-iq I undosh bilan tugagan fe'llardan ot va sifat yasaydi: soch/iq, chiz/iq, qil/iq, sol/iq, yor/iq, tuta/n/tir/iq, tort/iq, och/iq, yop/iq, yot/iq, qoz/iq, to'z/iq,

yo'y/iq, qiy/iq, o'y/iq, bo'l/iq, to'l/iq, chop/iq, qavar/iq kabi. Ma'nosi: bir natija oti, belgi oti va turli belgilar, holatlar.

-iq II fe'lining o'zlik nisbatini hosil qiladi: tol/iq/moq, so'n/iq/moq, sin/iq/moq, osh/iq/moq, qon/iq/moq. Ma'nosida "ichki tomonga kuchaytirish, intensivlik" ottenkasi bor.

-iq III ot va sifatlar fe'l yasaydi, biror predmetga, holatga, munosabat bildiradi: yo'l/iq, chin/iq kabi (q.-ik).

-ig'liq (q. -iq, -ig', -liq).

-y I unli bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, hozirgi zamon ravishdoshi qiladi. Bunday ravishdoshlar, asosan, tuslangan formada bo'ladi: ish/la/y, o'qi/y/man, tash/la/y/man kabi.

Etakchi fe'l funksiyasida kelganda, tuslanmagan formada bo'ladi: ish/la/y boshladim, o'qi/y boshlading.

Hol vazifasida kelganda ham tuslanmagan formada bo'ladi, lekin, odatda, takrorlangan holda qo'llanadi (so'zla/y –so'zla/y charchadi). Yakk qo'llanganda odatda, -b li ravishdoshlar ishlatiladi (so'zlab charchadi).

-y II fe'llarga qo'shilib, istak maylining I shaxs birlik formasini hosil qiladi; undoshlardan keyin qo'shilganda –a bog'lovchisi bilan keladi: bor(a)y, kel(a)y, o'qi/y bosh/la/y, tash/la/y; demoq ko'makchi fe'li bilan birgalikda kelganda, -/moqchi affiksiga sinonimik munosabatda bo'ladi. Qiyos.: ish/la/y deyman// ish/la/moq/chi/man, ko'z/la/y deyman//ko'z/la/moq/chi/man. Lekin keyingi fe'lining zamoni o'zgarsa, umumiy ma'no ham boshqa bo'ladi: u qoqilibiyiqi lay dedi; -lik affiksi bilan birgalikda shu mayning I shaxs ko'pligini hosil qiladi (-y+-lik-- ylik): bosh/la/y/lik, ko'z/la/y/lik; -in bilan birgalikda kelib, ta'kid kuchaytirish ottenkasiga ega bo'ladi: bosh/la/y/in, ko'z/la/y/in kabi

-y III sifatlardan fe'l yasaydi: qora/y (q. -ay). Ma'nosi: biror holatga o'tmoq, shunga ega bo'lmoq.

-k I unli bilan tugagan fe'l o'zaklaridan nars –qurol, natija yoki holat oti yasaydi: kura/k, ela/k, to'sha/k, tila/k, beza/k, tira/k (q. –ak, -uk).

-k II mimemalardan shu ovoz bilan xarakterlanadigan harakatni bildiruvchi predmetlar nomi yasaydi: pir/pir/a/k, biz/biz/a/k, guldur/a/k.

-k III o'tgan zamon fe'lining birinchi shaxs ko'pligini ko'rsatadi, u o'tgan zamon birligiga qo'shiladi. Qiyos.: ish/la/di/k, bor/di/k, yoz/di/k, kel/di/k kabi. Bunda u –miz affiksi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: bordik –bordi/miz.

-ka I **k** tovushi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladigan joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi: il/gak/ka, chang/ak/ka, handalak/ka, oʻrdak/ka, erkak/ka, malak/ka, lunjak/ka, zulf/ak/ka, katak/ka kabi. Baʼzan g tovushi bilan tugagan soʻzlarda ham joʻnalishkelishigi qoʻshimchasi –ka formasida boʻladi. Unda oʻzakdagi g tovushi ham k ga oʻtadi: barg//bark/ka.

-ka II ruscha –internasional soʻzlar sostavida ajralib, ayollik jinsiga (jen. rod) tegishlilik maʼnosini bildiradi: partizan/ka, mashinist/ka, sanitary/ka, student/ka.

-ka III yoʻl/ka kabi soʻzlar sostavida kelib, kichraytirish maʼnosini bildiradi.

-ka IV is/ka kabi hollarda otdan feʼl yasaydi(qiyos.:is/ka/b topar, is/ko/vuch it). Bu affiksning maʼno va funksiyasi –la yasovchisiga toʻgʻri keladi: is/ka/moq // hid/la/moq.

-ka V feʼlning kuchaytiruvchi affiksi boʻlib keladi: sur/moq –sur/ka/moq.

-kaz jarangsiz undosh bilan tugagan feʼllarga qoʻshilib, ortirma daraja formasini hosil qiladi: oʻt/kaz, et/kaz, ket/kaz kabi (q. –giz, –gʻiz, –kiz, –qiz, –qaz, –gʻaz).

-kak otlarga qoʻshilib asosiy maʼnoga biror ottenka orttiradi (er/kak), feʼllarga qoʻshilganda boshqa tipdagi ot yasaydi (pish/kak –pishgan sutdan tuyish yoʻli bilan sariq yogʻ hosil qiladigan predmet nomi: kuv -masloboyka).

-kali **k, g** undoshlari bilan bitgan soʻzlarga qoʻshilib, maqsad ravishdoshi hosil qiladi: tek/kali, ek/kali, choʻk/kali (q. –gali, –qali). Hozirgi Ona tilida bu forma soʻzlashuv nutqidanoq boʻlib, uning oʻrnini, –gani formasi ishlatiladi (q. –gani). –kali morfemasi –ish+uchun konstruksiyasiga sinonim boʻla oladi.

-kam otlardan sifat yasovchi va biror belgi yoki xususiyatning ozligini, kamligini bildiruvchi prefiks. Tojik tilidan kirgan.Misol: kam/soʻz, kam/gap, kam/quvvat kabi. Ayrim hollarda uning maʼno va funksiyasi –siz affiksiga toʻgʻri keladi..

-kan I feʼlning oʻtgan zamon sifatdoshi formasini hosil qiluvchi morfema: ek/kan, tek/kan, chek/kan, buk/kan, toʻk/kan kabi (q.-gan,- qan)

-kan II poeziyada, ogʻzaki nutqda *ekan* feʼlining qisqargan formasida koʻrinadi va u bajargan vazifani bajaradi: borar/kan (qiyos.:borar ekan), kelar/kan (qiyos.: kelar ekan), asli: erkan.

-kani (q.-gani, -qani, -kali, -qali).

-kancha fe'llarga qo'shilib, biror harakatning yuzaga kelishiga qatnashgan ikkinchi harakatning bajarilishini ko'rsatishga xizmat qiladi: ek/kancha, tek/kancha, to'k/kancha. Mazmuni ham, asosan, -guncha, -kuncha affikslarining ma'nosidan to'g'ri keladi, shuningdek, -dan+ko'ra konstruksiyasi bilan ()zidlash sinonim munosabatga kirisha oladi.

-kar jarangsiz undosh tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shilib, kasb-hunar bilan bog'liq shaxs oti yasaydi: mis/kar kabi (q. -gar, -gor, -kor).

-kach I fe'lining payt ravishdoshi formasii hosil qilib, biror harakatdan oldin bajarilgan harakatni bildiradi: (bargini) to'k/kach, (paxtani) ek/kach, (yelpa) tek/kach kabi (qiyos.:tek/kach//tek/kan/dan keyin: sinonimiya). Sabab ma'nosini ifodalashga ham xizmat qiladi. (Bu haqda yuqorida gapirildi.)

-kach II ba'zi otlarga qo'shilib, keng ma'noda kichraytirishga to'g'ri keladi: taxta/kach, o'r/kach kabi.

-kacha -g, -k tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shilib, ravish hosil qiladi. Keng ma'noda chegarani bildiradi: tok/kacha, uzuk/kacha, bark/kacha, zirak/kacha kabi (q. -gacha).

-kash I tojik tilidan kirgan, aslida tortmoq ma'nosidagi so'zdan tug'ilgan. Otlarga qo'shilib, kasb-hunar, professiya egasi bo'lgan shaxs oti yasaydi: arava/kash, mehnat/kash, chizma/kash, paxsa/kash, qalam/kash (q. -chi).

-kash II otlardan sifat yasaydi: dard/kash, xayol/kash, dil/kash, past/kash. Bunday so'zlar ko'pincha ot kabi qo'llanadi.

-kent geografik nomlar guruhida ajratiladigan element, hozir affksga aylangan, unimsiz. Tosh/kent, Chim/kent, G'azal/kent. Ayrim hollarda tojik tilidan kirgan -obod morfemasiga yaqin keladi. Chin/obod, Dehqon/obod kabi. Lekin ma'no ottenkasi boshqacha (obod -благоустроенный). Bu affiksning -qand, -kat, -ket, -gan (O'z/gan) kabi ko'rinishlari ham ba'zi geografik nomlar guruhida ajratiladi.

-ki I jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l negizlaridan narsa, qurol, ob'ekt, shuningdek, kasallik oti yasaydi: tep/ki, chert/ki, turt/ki, ko'ch/ki kabi. Bu affiks jarangli va sonor undosh tovushlaridan so'ng -gi formasida bo'ladi (q. -gi, -g'i, -qi).

-ki II jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilib payt va o'ringa munosabatini bildiruvchi nisbiy sifat hosil qiladi: past/ki, ost/ki, ust/ki, kech/ki, ich/ki, qish/ki, soya/ki (q. -gi).

-ki III ish oti hosil qilib, odatda, bog'liq negiz bo'lib qo'llanadi:

+gi +egalik affiksi +kelmoqfe'li yoki +bor, +yo'q kompleksi: kuzat/ki/m kedi, o't/ki/m yo'q kabi.

-ki IV ta'kid, kuchaytirish kabi ma'nolarni anglatuvchi element: shuncha/ki, boring/ki, nima/i/ki, jam/i/ki, demak/ki, afsus/ki, nahot/ki, hayriyat/ki, hol/bu/ki, hatto/ki va boshqalar. Bularning ko'pi aslida bog'lovchi vazifasidagi -ki bilan aoqador. Otang/ki (senga aytdi)kabi qo'llanishlarda yuklamaga to'g'ri keladi.

-ki V tojik tilidan kirgan ergashtiruvchi bog'lovchi: hamma biladi/ki, radiioni rus olimi Popov o'ylab topgan; So'zlaringizdan ma'lum bo'ladi/ki, siz o'z burchingizni bajarishga qattiq ahd qilgansiz.

-kiz jarangsiz undosh bilan tugagan fe'li negiziga qo'shilb ortirma daraja hosil qiladi: et/kiz, o't/kiz, ket/kiz kabi (q. -gaz, -giz, -kaz, -qaz, -qiz, -g'az, -g'iz).

-kin I g, k tovushi bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, (II shaxs birligiga) ta'kid, kuchaytirish kabi ma'nolarni beradi: to'k/kin, ek/kin, tek/kin kabi (q. -gin, -qin II).

-kin II og'zaki nutqda (e)kan ko'makchi fe'li vazifasida ishlatiladi: kelarmi/kin//kelar (e)kanmi, borarmi/kin//borar(e)kanmi. Bu formalar semantik -stilistik jihatdan farqlanadi ham.

-kin III fe'ldan sifat yasaydi: kes/kin (q. -qin, -g'in, -gin).

-kina I k, g tovushi bilan tugagan ot va boshqa so'zlarga qo'shilib, kichraytirish -erkalash ma'nosini ifodalaydi; go'dak/kina, bosh/kina, erkak/kina, bilak/kina kabi (q. -gina, -qina). Bu affiks urg'uli bo'lib, urg'usiz holati chegaralash, ta'kidlash, ajratish kabi funksiyalarda keluvchi yuklamadir.

-kina II sifatdan uning sub'ektiv baho formasini hosil qiladi: chuvak/kina, sergak/kina, jindak/kina, hurkak/kina kabi.

-kina III otlarga qo'shilib, chegaralash, ajratish ma'nosini anglatuvchi urg'usiz elementdir: bezgak/kina (faqat bezgak), terak/kina (faqat terak), handalak/kina (faqat handalak). Misol.: kuylak/kina emas, palto ham oldim. Buning ma'no va funksiyasi faqat yordamchisiga to'g'ri keladi, ko'pincha ikkalasi birgalikda qo'llanib, ma'noni kuchaytiradi: faqat kurtak/kina...

-kir I (q. -gir I).

-kir II fe'llarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ish -harakat yoki xususiyatda, ko'pincha, ortiqlik ma'nosini anglatuvchi sifat yasaydi: kes/kir, o't/kir (q. -gir II, -qir II, -qurII, -g'ir II).

-kich jarangsiz undosh tovush bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, ma'no qurol oti yasaydi: sep/kich, tep/kich, kes/kich, ko'r/sat/kich, sovut/kich kabi (q. -g'ich, -qich).

-kor I tojik tilidan kirgan; kasb egasi, mutaxassislik, mashg'ulot bilan bog'liq bo'lgan shaxs oti yasaydi: paxta/kor, bino/kor, xalos/kor, xizmat/kor kabi (q. -kar, -gar).

-ku I ta'kidlash va kuchaytirishni bildiradigan yuklama: ona/ku, inson/ku, sen/ku, olding/ku, o'qiding/ku, bording/ku kabi.

-ku II fe'llardan ish oti yasaydigan morfema bo'lib, qo'llanishi bog'liq holatdadir. (q. -ki III).

-kuncha **k, g** undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilib, -guncha affiksi anglatgan ma'noni bildirish uchun xizmat qiladi (q. -guncha, g'uncha, -quncha).

-kur hozirgi Ona tilida -gir, -g'ur, -qur, -g'ir kabi affikslar anglatadigan ma'noga yaqin mazmuni beradi (q. -gir, -g'ur, -qur, -g'ir)

-l unli bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, majhul daraja, ba'zan esa o'zlik daraja hosil qiladi: o'qi/l/di, yo(i)l/di, ko'r(i)l/di, qo'z/g'a/l/di, chayqa/l/di, yiq(i)l/di, cho'z(i)l/di, kabi (q. -il, -in, -n).

-la I eng faol fe'l yasovchi affiks bo'lib, deyarli hamma so'z turkumlardan fe'l yasaydi: ish/la, ko'z/la, oq/la, qora/la, bosh/la, sen/la, gijgij/la, tez/la, o'nta/la, beshta/la voyvoy/la kabi. Ma'nosi: o'zakning semantik xususiyatiga qarab o'sha predmetni yaratish, vosita sifatida ishlatish, egalik, aralashtirish, o'xshatish; shuningdek biror belgiga ega bo'lish, holatga ega bo'lish kabi xilma -xil ma'nolarni anglatadi.

-la II fe'llarning o'ziga qo'shilib keladigan unimsiz shakl yasovchidir: quv/la, sava/la, qashi/la kabi. Ma'nosi: harakatning takrorlanishi, kuchayishi, uzoq davom etishi, tez takrorlanishi, "maydalanishi" va boshqalar.

-la III poeziyada *bilan* ko'makchisi qisqartirilib, -la shaklida ishlatiladi, alohida morfema sifatida ajratiladi: Qo'l/la tuzga sozimni (A. S. Pushkin "Haykal"). Bu element fe'l yasovchi -la affiksidan urg'usizligi bilan ham farqlanib turadi. Qiyos.: ko'z/la (fe'l, mo'ljallamoq) -ko'z/la (ko'z bilan: ot+ko'makchi).

-lab turli xil so'z turkumlaridan ravish yasaydi, harakatning bajarilish holatini, paytini va miqdorini bildiradi: yaxshi/lab, oy/lab, yil/lab, sahar/lab, kuy/lab, ko'p/lab, tepa/lab, atay/lab. Lekin -la+-b formasida bo'lganda ikki affiks sanaladi, bunda -b affiksi fe'lning ravishdosh formasini hosil qiladi: mayday/la/b.

-lay (-la+-y) sifatlardan ravish yasaydi; butun/lay, tirik/lay kabi. Ba'zan kuchaytiruvchi -in affiksi bilan kengayadi: butun/lay/in, tirik/lay/in. Holat bildirishiga ko'ra -ligicha elementi bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi. Qiyos.: tirik/lay/in//tirik/lig/i/cha.

-lan I (-la+-n) sifat va sonlarga qo'shilib, fe'l hosil qiladi. Bu fe'l odatda o'zlik darajada bo'ladi: shod/lan/di, ot/lan/di, ikki/lan/di, tin/ch/lan/di, qurol/lan/moq kabi.

-lan II arxaik forma bo'lib, sonlarga qo'shilib keladi va jamlik son hosil qiladi (ma'lum sonlarga qo'shiladi): ikk/ov/lan, to'rt/ov/lan, olt/ov/lan kabi. Bu tarixan fe'l yasovchi -la affiksi va holat bildiruvchi n morfemasining birikishidan tug'ilgan: oltov/lan "oltitasi bir bo'lgan holatda" degan ma'noda.

-lar I otlarga qo'shilib kelib, predmetning birdan ortiqligini ko'rsatadi (noaniq ko'plik), ko'plikning morfologik ko'rsatkichi bo'lib, u shakl yasovchidir: odam/lar, qush/lar, kitob/lar. -lar morfemasi ko'plikdan tashqari hurmat, kesatish, mubolag'a kabi ma'nolarni ham bildiradi.

-lar II bu affiks kesimning ega bilan sonda moslashuvini ko'rsatganda, sintaktik funksiya bajaradi va so'z o'zgartiruvchi sanaladi: MISOL YOZILISHI KERAAAAAAAAAK.

-larcha (asli:-lar+-cha) -cha, -chasiga affikslari kabi harakatning qay tarzda bajarilishi, harakat va belgining o'xshashligikabi ma'nolarni anglatuvchi ravishlar hosil qiladi: botir/larcha, do'st/larcha, qadrdon/larcha, telba/larcha, bola/larcha, nodon/larcha, , million/larcha, o'n/larcha, surbet/larcha kabi (q. -cha).

-lat (asli: la+-t) orttirma daraja formasidagi fe'l hosil qiladi: obodon/lat kabi. Aslida fe'lni -la affiksi yasagan, orttirma darajani esa -t affiksi hosil qilgan. Bu ikki affiks ayrim o'rinlarda ajralmas holatga kelib, -lat qo'shma affiksini yaratgan.

-lash (-la+-sh)birgalik darajadagi fe'l hosil qiladi: yordam/lash/moq, xayr/lash/moq, gap/lash/moq, savdo/lash/moq, do'st/lash/moq kabi.

-lashtirish (-la+-sh+-tir+-ish) to'rt morfemaning birikishidan hosil bo'lgan qo'shma affiks. Bu baynalminal so'zlar sostavidagi: -izasiya -"ifikasiya" kabi affikslarni kalkalashtirish natijasida kelib chiqqan: radio/lashtirish, gaz/lashtirish, ecran/lashtirish, avtomat / lash- tirish, elektr/lashtirish kabi. Yuqoridagi -lash va -lashtirish affikslari umumiy funksiyasi jihatidan o'xshash bo'lsa ham, lekin ma'lum farqlar bilan bir-biridan ajraladi.

-li keng ma'noda otlarga qo'shilib, sifat yasaydigan umumiy affiksdur. Ma'nosi: biror predmetga, belgi -holatga ega ekanlikni, predmetni biror narsaga

yaroqli ekanligi, egalikda ortiqlikni, ish otlariga qo'shilganda, shunga juda ham mos kelishni anglatadi: suv/li, miltiq/li, ong/li; gavda/li, eyish/li, ichish/li, qormu, elka/li min/ish/li (ot) kabi.

Biror predmetga egalik yoki shu jihatdan ortiqlik bildirganda tojik tilidan kirgan, ba-, -dor ba'zan ser- morfemalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: maza/li//ba/maza, unum/li//ser/unum//unum/dor kabi.

-a(r) bilan yasalgan sifatdoshlarga qo'shilganda "shu holatga egalik, shunga mos, arziydigan" degan ma'noni ifodalaydi: qoniqar/li (baho), aytar/li (gap). Ota -ona/li (qiyoslang.: otali -ona/li)tipidagi qo'llanish xususiyati bilan yasovchi affikslardan ajralib turadi.

Sheryurak (yigit) -sheryurak/li (yigit) kabi konstruksiyalarda uning qo'llanishi fakultativdir.

-lik I turli xil so'z turkumlariga qo'shilib, abstract ma'noli ot yasaydi (belgi oti): bola/lik, ona/lik, talaba/likzargar/lik, kosib/lik, bog'/dor/lik, so'l/lik, og'/ma/chi/lik, tez/lik yaxshi/lik, yangi/lik, yolg'iz/lik, botir/lik, eski/lik.

Ba'zan aniq predmat otini yasaydi: shirin/lik (qand, parvarda kabilar), dars/lik, kunda/lik, o's/im/lik, ich/im/lik (napitok). Geografik nomlarga qo'shilganda, shaxsning o'sha yerga tegishliekanligi, u yerlik ekanligi anglashiladi: toshkent/lik, samarqand/lik kabi.

-lik II infinitive va ayrim ish otlariga qo'shilganda, ma'noni bir oz kuchaytiradi, ta'kid bildiradi: bor/moq/lik, ayt/ish/lik, demak/lik. Bunday hollarda u ma'no va funksiyasiga ko'ra forma yasovchi affiksga to'g'ri keladi.

-liq I turli xil so'z turkumlaridan abstract ma'noli ot yasaydi: ayri/liq, bor/liq, o't/liq, bosh/liq, ot/liq, do'sh/liq, yo'q/lik.

-liq II otlarga qo'shilib o'sha otdan anglashilgan predmetning o'rni, shuningdek, idish ma'nosini bildiradi: Olma/liq, tuz/liq kabi (q. -luq).

-liq III -iq, -ig' affikslari +-gan morfemasi vositasida yasalgan (osig'/osilgan, yop/iq//yopilgan) so'zlar anglatgan ma'noda kelib, predmet holatini ko'rsatuvchi sifat hosil qiladi: os/ig'/liq (qozon), yopiq/liq (qozon), solig'/liq.

-lig' (q. -liq).

-loq I otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan predmetning o'rmini, ba'zan -shi o'rinda o'sha predmetning mo'lligi ma'nosini anglatadi: suv/loq, qum/loq, o't/loq, tosh/loq.

-loq II otlarga qo'shilib, sub'ektiv baho formasini hosil qiladi. Kichraytirish va erkalash ma'nosini anglatadi: qiz/a/loq, bo'ta/loq, chaqa/loq, toy/loq. Ba'zi o'rinlarda -cha affiksi bilan sinonim bo'la oladi. Qiyos.: qiz/a/loq//qiz/cha, toy/loq//toy/cha.

-luq: tuz/luq (q.-liq).

-m I unli bilan tugagan otlarga qo'shilib, birinchi shaxs birligini ko'rsatuvchi egalik affiksi: bo'ta/m, ona/m, ota/m, bola/m, tog'a/m, ko'rpa/m. Undoshdan so'ng -im: qiz/im, ko'z/im, shart/im kabi. (q.-im I)

-m II fe'llarda so'zlovchi birligini ko'rsatuvchi shaxs-son affiksi: keldi/m, yozdi/m, ko'rdi/m, sevdi/m, uchdi/m kabi.

-m III alda/m, chida/m kabi o'rinlarda fe'llardan harakat, holat oti hosil qiladi.

-m IV fe'llardan natija oti hosil qiladi: to'p/la/m, to'g'ra/m kabi.

-m V dam/la/m, ho'p/la/m, tish/la/m kabi yasalishlarda miqdor anglatish bilan bog'liq bo'lgan ot yasaydi.

-ma I fe'lining bo'lishsiz formasi ko'rsatkichi sifatida ajratiladigan urg'usiz affiksdir. Inkor, taqiqlash, ogohlantirish, taxmin kabi ma'nolarni anglatadi: bor/ma(di), yoz/ma(di), o'qi/ma(di), ko'r/ma/di, teg/ma, yaqin/la/sh/ma, (olov o'chib qolgan) bo'l/ma/sin kabi. (Bu ma'nolarni ifodalashda fe'lining formasi ham rol oynaydi).

-ma II Fe'ldan ot va sifat hosil qiluvchi urg'uli morfema: gaz/la/ma', yul/la/ma', dim/la/ma', ter/la/ma', yo'q/la/ma', qo'l/yoz/ma', suz/ma', tug/ma', unda/l/ma', qotir/ma', bos/tir/ma' (ot); ivi/t/ma', qovur/ma', qay/na/t/ma', ag'dar/ma', qayt/ar/ma', bo'ya/ma', yasa/ma', bura/ma', jarang/la/ma' (taqlidiy so'zdan), buk/la/ma' (sifat).

Ma'nosi xilma-xil bo'lib, o'zakning semantik xarakteri bilan belgilanadi: natija oti, joy oti, ish oti; shu belgi bilan xarakterlanadigan narsaning oti, harakat bilan bog'lanadigan belgi, ovoz bilan bog'lanadigan belgi va boshqalar.

-ma III tojik tilidan kirgan (**b-m**) takror formasidagi ravishlarning birinchi komponentida kelib, holat, harakatning belgisini bildirish uchun xizmat qiladi: qo'l/ma -qo'l, yon/ma -yon, ket/ma -ket, bir/ma -bir, ust/ma -ust, old/in/ma -keyin, yuz/ma -yuz, orqa/ma -orqa, tizza/ma -tizza kabi.

-man kesimlarda birinchi shaxs birligini ko'rsatadigan so'z o'zgartiruvchi affiks: a) fe'llarda: yoz/a/man, bor/a/man, ish/la/y/man, ko'z/la/y/man, bajar/a/man, suz/a/man kabi; 2) boshqa so'zlarda: ish/chi/man,

pedagog/man, yaxshi/man, katta/man, bit/ta/man, million/ta/man. Birinchi holatdagi -man (a punkt) urg'uli bo'lib, keyingisi urg'usizdir (urg'uning differenziya qilish funksiyasi).

-mand otlarga qo'shib sifati yasaydi, belgi, xususiyat bildirish uchun xizmat qiladi: bahra/mand, ayol/mand, hunar/mand, davlat/mand, orzu/mand, ishtiyok/mand kabi. Bu so'zlar otlar oldida kelganda sifati kabi qo'llanadi, lekin ko'pincha shaxs oti bo'lib qo'llanadi. Ma'nosi: ko'pgina o'rlarda -li, -do affikslarining mazmuniga yaqin keladi.

-mas (-ma+-s) I-(a)r affiksi vositasida yasalgan sifatdoshning bo'lishsiz formasi sifatida ajratiladi (r-z-s): bil/mas, ko'r/mas, sez/mas, top/mas, o'zgar/mas, to'y/mas, qo'rq/mas. Bu morfema sifatdosh sostavida kelib, ayrim ajratiladi. Reduplikasiya yo'li bilan yasalgan ravishlarda ham shunday: bil/ar -bil/mas (gapiradi), kel/ar -kel/mas, ayt/ar -ayt/mas, eshit/ar -eshit/mas kabi.

-mas II -gan formali sifatdoshdan keyin ba'zi so'zlarda *emas* to'liqsiz fe'lining qisqargan formasi sifatida ajratiladi. Bu odatda, og'zaki nutqda, poeziyada uchraydi. Qiyos.: kel/gan emas//kel/gan/mas, yur/gan emas//yur/gan/mas, suz/gan emas//suz/gan/mas. Buning ham aslida sifatdoshga aloqasi bor.

-maslik (-ma+-s+-lik) fe'lga qo'shib harakat, holat nomi yasaydi; abstract ma'noli so'z hosil qiladi: qo'rq/maslik, ish/la/maslik, ko'r/sat/maslik kabi.

-miz I birinchi shaxs egalik affiksining ko'pligi: unli bilan tugagan so'zlardan keyin qo'shiladi: ota/miz, tog'a/miz, armiya/miz, opa/miz, ona/miz.

-miz II fe'llar sostavida III shaxs ko'pligini ko'rsatuvchi tuslovchi affiks sifatida ajratiladi: bor/a/miz, ko'r/a/miz, yur/a/miz, top/a/miz, suz/a/miz; xuddi shu vazifada fe'l bo'lmagan so'zlarga ham qo'shib keladi. Lekin bunda urg'usizligi bilan ham farqlanadi: talaba/miz, ish/chi/miz, peda/gog/miz kabi (q.-m II).

-mish eski Ona tilida o'tgan zamon sifatdoshining belgisi bo'lgan bu forma yasovchi affiks bugungitilda qo'llanmaydi, faqat qotgan: ot/mish (yil), qil/mish -qidir/mish, e/mish so'zlarida uchraydi. Hozirgi tilda bu vazifani -gan affiksi bajaradi.

-mon -(a)r affiksi vositasida hosil qilingan sifatdoshlardan shaxs oti va sifatlar yasaydi: o'l/ar/mon, ye/yar/mon, ich/ar/mon, bil/ar/mon, usta/buz/ar/mon, ish/buz/ar/mon (q.-man). Bu unimsiz affiks sanoqli so'zlardagina uchraydi. "O'sha ishni bajaruvchi, shu belgiga egalik, shunda ortiqlik" kabi ma'nolarni anglatadi. Buning ma'nosi va funksiyasi -(a)g'on affiksiga yaqin keladi: bil/ar/mon/bil/a/g'on (q.

-man).

-moq I fe'llardan infinitiv, harakat nomi hosil qiladi: yasha/moq, ish/la/moq, tash/la/moq, bosh/la/moq, yosh/la/moq.

-moq II fe'llarga qo'shilib, narsa predmet oti yasaydi: kuy/moq, kas/moq (qazmoq), chaq/moq, to'q/moq kabi (q. -mak).

-moqda (asli: -moq+-da bo'lib, ot formasidir) hozirgi zamon davom fe'lining ko'rsatgichi: ish/la/moqda,, yoz/moqda, ko'z/la/moqda, bosh/la/moqda, o'qi/moqda.

-moqlik (-moq+-lik) (q. -moq va -lik).

-moqchi (asli -moq+-chi tusida bo'lib, ot formasidir) fe'lining sifatdosh formasi bo'lib. maqsad ma'nosini ifodalash bilan bog'langan: bor/moqchi, o'qi/moqchi kabi.

-mtir (-(i)mtir) sifatlarga qo'shilib, belgining kamligini, kuch- sizligini ko'rsatuvchi morfema -yasovchi affiksidir: ko'k/(i)mtir, qora/mtir, sarg'/(i)mtir. Bu affiks belgining darajasini anglatish jihatidan -g'ish va -roq morfemalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. (Qiyos.: ko'k / (i) mtir // ko'k / ish // ko'k / roq; qora / mtir // qora / roq; sarg'/(i)mtir//sarg'/ish) kabi (q. -imtir, -ish III).

-n I fe'lining o'zlik, ba'zan esa majhul darajasini hosil qiladi: tara/n/di, o'y/la/n/di, tash/la/n/di, o'ng/la/n/di, tayyor/la/n/di, o'q/la/n/di, so'z/la/n/di (q. -in, -il, -l).

-n II poetik asarlarda ba'zan uchinchi shaxs egallik affiksidan so'ng qo'shilgan tushum (-ni) va qaratqich (-ning) kelishigi ko'rsatkichi sifatida qo'llanadi: Chiroylidir go'yo yosh kelin, ikki daryo yuvar kokili/n. (H. Olimjon.) Har oila o'chog'i/n o'z qutlug' tarixi bor (H. G'ulom). Bu formaning qaratqich ko'rsatkichi sifatida qo'llanishi hozirgi adabiy til normasidan tashqaridir.

-na fe'lining ba'zi bir tarixiy formalari sostavida ajratiladi: chaq/na/moq, to'q/na/sh/moq, to'g'/na/moq, chat/na/moq. Bularning ko'pi tarixan -n+-a tusidadir: yig'+in+a -yig'/na.

-namo tojik tilidan kirgan, otlardan va sifatlardan, sifatdoshlardan "o'xshashlik" ma'nosini anglatuvchi sifat yasaydi: jinni/namo, majnun/namo, hazil/namo, olim/namo, kul/gan/namo kabi.

- ne ne/ga, ne/gap bo'ldi kabi ayrim so'zlar sostavida nima so'roq olmoshining qisqa formasi: a) yakka holda ham qo'llanadi (nima ma'nosida: ne sababdan -nima sababdan); b) nega kabi so'zlar sostavida o'sha ma'noda keladi; v) takrorlanib, aniqlovchi bo'lib kelganda, odatda, nima olmoshi bilan almashmaydi. Masalan, Jangga kirdi ne -ne yigitlar (Uyg'un).

-ni tushum kelishigi ko'rsatkichi.

-niki ot yoki olmoshlarga qo'shilib, abstract –mustaqil qarashlilik ma'nosini anglatadi, lekin so'z yasash vazifasini bajarmaydi, demak, u forma yasovchi affiksdir: me/niki, Karim/niki, siz/niki, biz/niki, ukam/niki, maktab/niki, o'zim/niki kabi.

nim- tojik tilidan kirgan, aslida “yarim” ma'nosidagi so'z bo'lib, sanoqli so'zlar sostavida uchraydi: nim/rang, nim/jon, nim/pushti. Ma'nosi: belgining kuchsizligi, odatdagidan kamligi.

-ning qaratqich kelishigi ko'rsatkichi. Biror predmet yoki hodisaning boshqa biror predmet yoki shaxsga tegishli ekanligini bildiradi: Navoiy/ning asarlari, qalam/ning uchi, so'z/ning kuchi, ko'z/ning qorasi, Salima/ning kuylashi kabi. U qaralmish bilan birgalikda bir butunlik hosil qiladi. Uning –niki ma'nosida qo'llanishi hozirgi zamon adabiy tili normalariga xilofdir. Masalan, *****

no- tojik tilidan kirgan so'zlar sostavida ajralib, ba'zan o'zbekcha so'zlarga ham qo'shiladi, ot va sifatlar oldidan kelib, yo'qlik, inkor kabi ma'nolarni bildiradi: no/rozi, no/umid, no/qulay, no/ma'lum, no/to'g'ri, no/haq, no/iloj, no/tinch, no/o'rin. Ma'no va funksiyasi jihatidan o'zbekcha –siz affiksiga to'g'ri keladi. Lekin no- ko'pincha sifatlariga qo'shiladi. –siz esa, asosan, otlarga qo'shiladi. no- morfemasi inkor, bo'lishsizlik anglatuvchi emas yordamchisi ham aloqadordir. Lekin orada grammatik –stilistik farq bor: no/to'g'ri//to'g'ri emas (q.be-, -siz).

-nomatojik tilidan kirgan “yozuv”, “xat”, “hujjat” ma'nosini anglatadi. Otdan ot yasaydi: talab/noma, ayb/noma, jang/noma, arz/noma, tabrik/noma, yil/noma, vakolat/noma, taklif/noma, guvoh / noma, shart/noma.

-nchi unli bilan tugagan sanoq sonlardan tartib son hosil qiladi: ikki/nchi, olti/nichi, etti/nchi, yigirma/nchi kabi (q.-inchi).

-ng I unli bilan tugagan so'zlardan so'ng qo'shilib, egalik affiksi ikkinchi shaxs birligini ko'rsatadi: ona/ng, ota/ng kabi (q.-ing I).

-ng II unli bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, ikkinchi shaxs ko'pligi yoki hurmat ma'nosini beradi: ishla/ng, bosh/la/ng, bog'/la/ng, ko'z/la/ng kabi (q. ing II).

-ng III fe'llarga qo'shilib a) ish –holat oti yasaydi (qistala/ng); b) natija belgisini anglatuvchi sifat yasaydi. Masalan: bur/a/ng (taxta burang bo'lib qolibdi), v) natija oti yasaydi: yiri/ng.

-ngiz I ikkinchi shaxs egalik affiksi ko'pligining ko'rsatkichi, unli bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: ota/ngiz, ona/ngiz, tog'a/ngiz, martaba/ngiz, mahalla/ngiz (q. -ingiz I).

-ngiz II fe'llarda ikkichi shaxs ko'pligini ko'rsatuvchi tuslovchi affiks: bosh/la/ngiz, tash/la/ngiz, uz/ma/ngiz (q. -ingiz II).

-obod tojik tildan kirgan ayrim so'z ma'nosida qo'llanishdan tashqaritashqariaffiksoid sifatida ishlatilib, "obod" joy ma'nosini beradi. Misollar: Xalq/obod, Dehqon/obod, Yunus/obod.

-ov sanoq sonlarga qo'shilib, jamlik, to'da, yig'indi ma'nolaridagi son hosil qiladi: ikk/ov, uch/ov, to'rt/ov, besh/ov, olt/ov, ett/ov. Lekin bu affiks bir so'ziga analogiyayo'li bilan qo'shilgan bo'lib, uning ma'nosi boshqachadir.

-ovlan (-ov+-lan): olt/ovlan, to'rt/ovlan (q.-ov).

-oy ayollar ismlariga qo'shilib, erkalatish ma'nosini beradi: Salima/oy, Turg'un/oy, Barchin/oy kabi.

-on I otlarga qo'shilib, kichraytirish ma'nosini ifodalaydigan unimsiz forma yasovchi affiks: o'g'l/on, to'z/on. (Lekin *to'z* so'zi ham ot, ham fe'l bo'lgan ikki so'zdir).

-on II eski Ona tilida *-b* li ravishdoshlarga qo'shilib, kuchaytirish funksiyasini bajaradi: qichqirtirib/on.

-on III fe'llardan protses oti yasaydi: qo'zg'ol/on.

-ona I ot va sifatlardan holat bildiruvchi ravishlar yasaydigan unimsiz affiksdir: mard / ona, shoir / ona, razil / ona, johil / ona, qahra mon/ona, ayyor/ona. -ona ravish sostavi kelganda -larcha, -chasiga affiksi bilan ham sinonimik xususiyatda bo'ladi. Qiyos.: qahramon/ona //qahramon/larcha // qahramon/chasiga. Ba'zi so'zlarda -ana formasida qo'llanadi. Masalan, rasm/ana (q.-ana).

- ong'ich (q.-ag'on) suz/ong'ich // suz(a)g'on, tep/ong'ich//tep/(a)g'on, kul/ong'ich//kul/(a)g'on. Bu affiks aslida ikki qismdan iboratdir (-on+-g'ich). Bundagi n tovushi orttirilgan elementdir.

-os mimemalarga qo'shilib, shu tovushning umumiy nomini bildiruvchi ot yasaydi: sharr/os, g'uvv/os, chuvv/os. Guldur/os sifati guldur→+a+s formasida yasalgan.

-ot arab tilidan kirgan so'zlarning bir qismida ajraladi: ajoyib/ot, tartib/ot, hisob/ot, mahsul/ot, mashg'ul/ot, ma'lum/ot, bayon /ot, axbor/ot kabi. -ot ayrim so'zlarda Ona tilidagi -lar affiksi bilan sinonimik munosabatda bo'lishi

mumkin. Lekin -lar ko'plik bildiradi; -ot esa jamilik bildiradi. Qiyos.: ahvol/ot//ahvol/lar, mozor/ot//mazor/lar (q.-t).

-oq I fe'llardan sifat yasaydi: qo'rq/oq, baqir/oq, qol/oq. Ma'nosi: o'zakdan anglashilgan ish –holat bilan xarakterlanadigan belgi.

-oq II fe'ldan, taqlid so'zdan ot yasaydi: buq/oq, qo'sh/oq, qoch/oq, yot/oq, o'tir/oq, qo'n/oq kabi. Ma'nosi: bajaruvchi shaxs nomi, natija oti va boshqalar.

-oq III fe'llardan ish oti yasaydi: o'r/oq. Qiyos.:suvo/q.

- oq IV otlardan ularning kichraytirish formasini hosil qiladi: bosh/oq kabi.

-og'ish (-o+-g'ish) dialekt. (q. -ong'ich, -(a)g'on.)

-paz tojikcha "pishirmoq" ma'nosidagi so'zdan, asosan, ovqat nomlariga qo'shilib, shuni pishirish, tayyorlash bilan shug'ullanuvchi shaxsni –kasb egasini bildiradi: osh/paz, somsa/paz, kabob/paz, kalla/paz, manti/paz. Unumsiz affiks bo'lib, sanoqli so'zlardagina uchraydi.

-parast tojikchadan kirgan otlar sostavida o'zakdan anglashilgan predmetga, holatga moyillik, shuni sevisish kabi ma'nolarni anglatadi: unimsiz affiks: mansab/parast, amal/parast, may/parast, xayol/parast.

-parvar tojik tilidan kirgan so'zlarda ajralib, o'zakdagi otdan anglashilgan predmetni tarbiyalash, shunga yaxshi munosabat kabi ma'nolarni angatadi:odam/parvar, soya/parvar, maorif/parvar, inson/parvar, taraqqiy/parvar.

pe-sh- pesh/qadam, pesh/ayvon, pesh/taxta kabi otlar sostavida ajralib, prefiks sifatida qo'llanadi va ~~oldingi~~ ~~degan~~ ma'noni anglatadi (q. -pesh/ana).

-r unli bilan tugagan fe'llardan sifatdosh formasini yasaydi: ish/la/r, qayna/r, bo'z/la/r, bosh/la/r kabi (q. -ar).

-ra I ko'proq mimemalardan, ba'zan esa bundan boshqa so'zlardan fe'l yasaydi: jav/ra, gang/ra (<-gang/-ir/a), ing/ra(<-ing/ir/a). Ma'nosi: o'zakdan anglashilgan tovushni hosil qilish yoki shu tovush bilan xarakterlanadigan ishni bajarish.

-ri asli(r+u) fe'llardan holat bildiruvchi sifatlar yasaydi: unumsiz:eg/ri, buk/ri.

-roq I) sifatlarga qo'shilib, uning ozlik darajasini bildiruvchi forma yasovchi affiks. Bu jihatdan u **-ish affiksiga yaqin** turadi: oq/roq//oq/ish, ko'k/roq/ko'k/ish kabi. Yana misollar: qalin/roq, baland/roq, ko'k/roq, qizil/roq,

katta/roq, kichik/roq, suvsiz/roq, sovuq /roq; 2) ravishning qiyosiy darajasini hosil qiladi: tez/roq, erta/roq, sekin/roq; 3) ravishdoshlarga qoʻshilib kelganda ham shu maʼnoni beradi: oʻxsha/b/roq, uyal/ib/roq, torti/n/ib/roq; 4) sifatdoshlarda ham shunday: oʻxshagan/roq, qizar/gan/roq, oqar/gan/roq. Buning maʼnosi sal, bir oz soʻzlariga mos keladi. Hozirgi tilda bu affiks qiyosmaʼnosida ishlatilmaydi hisob. Chunki bu maʼno (qiyos darajasi) "...dan+koʻra, ...ga+qaraganda, ...ga+nisbatan, ..." kabi vositalar orqali ifodalanadi. –roq esa ortiqlikni yoki kamlikning "bir ozgina" ekanligini bildiradi.

–sa I otlarga qoʻshilib, oʻshandan anglashilgan predmetni istashmaʼnosidagi feʼllar yasaydi: suv/sa (suv istash) kabi.

–sa II shart mayli, uchinchi shaxs birligining koʻrsatkichi: yoz/sa, ishla/sa, koʻr/sa, bor/sa, bosh/la/sa, tash/la/sa kabi. Maʼnosi: 1) mustaqil sodda gapning kesimi boʻlib kelganda istash, iltimos maʼnolarini anglatadi. Bunday vaqtda u urgʻusiz boʻladi: shu kitobni menga ber/sa bugun yomgʻir yogʻ/sa; 2) ergash gapning kesimi boʻlib kelganda shart, payt kabi maʼnolarni anglatadi. Bunday vaqtda –sa elementi urgʻuli boʻladi: shu kitobni menga ber/sa, juda xursand boʻlardim; samolyotdan qara/sa/m, choʻlda otlar yugurishib yuribdi.

–sa+k (q. –k).

–san I 1) ikkinchi shaxs birligini koʻrsatuvchi tuslovchi affiks: ish/la/y/san, bor/a/san, ket/a/san, yoz/a/san kabi; 2) feʼl sostavida kesimlik koʻrsatuvchi morfema sifatida ajratiladi: student/san, odam/san, katta/san, yosh/san kabi.

ser- tojik tilidan kirgan otlarga qoʻshilib, oʻzakdan anglashilgan predmetning moʻlligini, shunga ega boʻlishda ortiqlikni anglatadi: ser/suv, ser/unum, ser/hosil, ser/shovqin, ser/goʻsht, ser/pul kabi ser- morfemasi unumli –li, baʼzan unumsiz –dor affikslari bilan sinoimik munosabatga kirisha oladi. Qiyos.: ser/unum//unum/li, ser/pul//pul/dor, ser/shovqin//shovqin/li.

Soʻzlashuv nutqida baʼzan bir soʻzda ser- va –li elementlar birgalikda qoʻllanib, maʼnoni kuchaytiradi (ser/sut/li sigir). Lekin bu pleonastic qoʻllanish adabiy til normalariga kirmaydi.

–si I boshqa soʻzlarda feʼl yasaydi, juda passiv: sanoqli soʻzlardagina uchraydi: alax/si, boʻr/si, garang/si. Maʼnosi: oʻzakdan anglashilgan narsaga moyillik, yaratish, oʻxshashlik. U –so formasida ham keladi va koʻpgina boshqa affikslar bilan birga qoʻllaniladi: garang/si/moq, sarim/soq, qurum/soq, boʻr/si/moq (boʻr –hid).

-si VI egalik affiksining uchinchi shaxs birligi ko'rsatkichi, ulti tovushlardan so'ng qo'shiladi: uka/si, ona/si, ota/si. Ba'zan egalik qo'shimchasidan so'ng qo'shib, affiksial hleonazm yaratadi: bir/i/si, yarm/i/si.

-si III ol/a/si, o'l/a/si, kel/a/si kabi so'zlar tarkibida sifatdosh ko'rsatkichi bo'lib, ma'no va vazifasi jihatidan -gan qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Lekin -si sanoqli so'zlarda uchraydi: kel/a/si yil // keladi/gan yil.

-siz I 1) Birinchi shaxs ko'pligini bildiradigan tuslovchi affiks "yoza/siz, kel/a/siz, bor/a/siz kabi; 2) fe'ldan boshqa so'z turkumlarida kesimlik affiksi sanaladi va tuslovchiga kiradi: student/siz, odam/siz, yaxshi/siz, pedagog/siz kabi (q. -man, -san).

-siz II otlarga qo'shib, o'zakdan anglashilgan predmetning yo'qligi yoki kamligini bildiradi: suv/siz, tuz/siz, bilim/siz, ilm/siz, aql/siz, harakat/siz, tajriba/siz, plomba/siz, reja/siz, maza/siz, yog'siz, sabab/siz, so'z/siz, ong/siz.

Yuqoridagi ikki xil -siz affiksi urg'u orqali farqlanadi. Masalan, odam/siz(xona) -odam/siz (siz yaxshi odamsiz).

Ba'zan otdan bosha so'zlarga ham qo'shiladi: tengsiz (tengi yo'q).

-simon (asli: -si+-mon) otlarga qo'shib, "o'xshash", "singari", "kabi" ma'nosidagi sifatlar yasaydi, kamunum: voronka/si mon, shisha/simon, halqa/simon, chualchang/simon, , gaz/simon, odam/simon, oltin/simon, qalqon/simon, vint/simon, kumush/simon kabi. -simon affiksi ko'p o'rinlarda -ga +o'xshash konstruksiyasi, kabi, singari ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi. Qiyos.: odam/simon//odamga o'xshash// odam kabi//odam singari.

-sin I buyruq maylining III shaxs birligi ko'rsatkichi: o'qi/sin, ish/la/sin, kel/sin, bor/sin, kuzat/sin, yur/siz kabi. Ma'nosi: ikkinchi shars orqali buyurish, ogohlantirish, istak, iltimos va boshqalar.

-sin II (asli: -si+-n) sifat va ravishlarga qo'shib, ularni fe'lga aylantiradi. Ma'nosi: "o'zicha shu belgi kabi, shunday sanamoqshunday deb bilmoq", unimsiz. Misollar: oz / sin / moq, og'ir / sin / moq, arzon / sin/moq, qiziq/sin/moq.

-sira fe'l yasovchi bu unumsiz affiks o'zakdan anglashilgan predmetni istash, shunga moyillikkabi ma'nolarni anglatadi: suv/sira, uyqu/sira, tuz/sira, qon/sira. Lekin ayrim hollarda "deb sanash", "deb bilish", "shunday deb gumon qilish" kabi ma'nolarni ham bildiradi: xavf/sira, hadik/sira; san/sira, siz/sira kabi olmoshlardan yasashda uning semantik xususiyati boshqacharoq bo'ladi.

-soz aslida tojik tilidan kirgan “yasamoq” ma’nosidagi bu element Ona tilida faqat affiks bo’lib qo’llanadi: arava/soz, kema/soz, mashina/soz, soat/soz stanok/soz, asbob/soz, samolyot/soz. Ma’nosi: o’zakdan anglashilgan predmetni yaratish, yasash va tuzatish.

-ston unli tovushlardan keyin qo’shilib, -iston morfemasining bir ko’rinishi sanaladi va ma’nosi u bilan bir xil (q. -iston).

- t unli tovush bilan tugagan so’zlarga, shuningdek, r, y undoshlari bilan tugagan ko’p bo’g’inli so’zlarga qo’shilib, fe’lning orttirma darajasini hosil qiladi: ish/la/t, bosh/la/t, to’xta/t, , so’zla/t; keng/ay/t/moq, uzay/t/moq, kam/ay/t/moq, qora/y/t/moq,, kich/ray/t/ moq, pas/ay/t/moq, sus/ay/t/moq, ulug’ay/t/moq, sarg’ay/t/moq, qabar/t/moq, o’zgar/t/moq, ko’k/ar/t/moq, yosh/ar/t/moq, gapir/t/moq, bo’ya/t/moq kabi.

Ayrim izohlar: 1) r yoki y bilan tugagan bir bo’g’inli so’zlarga t emas, balki –dir formasi qo’shiladi: tiy/dir, kuy/dir, qur/dir, ur/dir; 2) ikki bug’unli so’zlarda –m ham, –tir qo’llanadi: qisqar/t//qisqar/tir kabi. Bu –t affiksi qisqargan formadir. Bularning har birining o’z qo’llanish o’rinlari bordir.

-ta I Sanoq sonlardan donalik sonlar hosil qiladi, urg’usiz: o’n/ta, besh/ta kabi. Bu element “dona” ma’nosini beradi: o’n/ta//o’n dona.

-ta II o’sim/taquram/ta kabi ba’zi otlar sostavida ham uchraydi qoladi.

-tarash asli tojikcha taroshso’zidan bo’lib, strich ma’nosini anglatadi. Affiks holda ham shu ma’noni saqlaydi. Bundan oldingi qism –o’zak –ot shu harakatning ob’ektini bildiradi: haykal/tarosh, qalam/tarosh, tosh/tarosh kabi.

-tacha (-ta+-cha)sanoq sonlarga qo’shilib, chama son hosil qiladi: besh/tacha, o’n/tacha, qirq/tacha, ellik/tacha. Taxminni bildirish uchun ayrim hollarda –ch ning o’zi qo’llanadi: bir ming/-cha.

-tir fe’lning orttirma daraja formasini hosil qiladi: uy/la/n/tir, ko’z/ik/tir, o’qi/t/tir, kel/tir, ort/tir. Jarangsiz undoshdan keyin qo’shiladi. Lekin ko’p bo’g’inli so’zlarda l, n, y sonor tovushlardan keyin ham qo’shiladi: yuksa/l/tir (qiyos.:to’l/dir), yasa/n/tir (qiyos.: ko’n/dir), ko’pay/tir (qiyos.: qo’y/dir).

turg’on (q. –di+gan)

- u I affiks tusidagi kuchaytiruv, ta’kid yuklamasi, aslida –ku yuklamasining qisqargani: ayt-dim/-u.

-u II zidlik bog’lovchisi. Bu ham –ku yuklamasi bilan aloqador: borar/-u, lekin qaytmas. (Ko’pincha *lekin* bog’lovchisi bilan birga keladi.)

“Bordim—u’keldim” tipidagi qo’lmaishlarda ziddik ma’nosini emas, balki kuchaytirish, ishning tez bajarilishi, biridan ikkinchisiga tez ulanib ketishi kabi ma’nolar ifodalanadi.

- (u)v I fe’lning infinitiv ish oti formasini hosil qiladi: bor/uv (bormoq, borish).

- (u)v II fe’ldan ot yasaydi. Bu aslida –(u)v I dan kelib chiq- qan: yoz/uv (письмо), o’q/u/v (учёба), ish/lo/v (обработка), tortish/uv (тяжба).

-um I) fe’lga qo’shilib, harakat natijisida hosil bo’lgan predmetning otini, harakat protsessining nomini hosil qiladi: un/um, yut/um, tush/um kabi (q.-m).

- un (q. – in III).

- ur (q. -ar).

- uq sostavida **u** yoki **yu** tovushi bo’lgan fe’llardan ot va sifat hosil qiladi: yut/uq, buz/uq, buyr/uq, uz/uq, yul/uq, uch/uq. Ma’nosi: natija oti yoki harakat natijasida tug’ilgan belgining oti (q. –k, –q, –ik, –iq, –uk, –ak, –oq).

- furush tojikcha, “sotmoq” ma’nosidagi *furuxtan* so’zidan olingan. O’zakdan anglashilgan predmetni sotish bilan shug’ullanadigan shaxsni ko’rsatuvchi ot yasaydi: meva/furush, beda/furush, gazlama/ furush, olma/furush, kitob/furush, shoyi/furush, gul/furush, holva/furush, chit/furush kabi.

- xon I tojikcha *o’qimoq* ma’nosidagi so’zdan olingan, o’zakdan anglashilgan narsani o’qish bilan shug’ullanadigan shaxsni ko’rsatuvchi ot yasaydi: jurnal/xon, kitob/xon, mushtum/xon, gazet/xon kabi.

- xon II asosan, xotin –qizlar otlariga qo’shilib, erkalash yoki kesatish kabi ma’nolarni anglatadi: Lola/xon, Salima/xon, Raisa/xon, Habiba/xon, Barno/xon kabi.

- xona tojik tilidan kirgan. U “komnata” ma’nosidagi mustaqil so’z. Shuningdek, biror predmet bilan bog’langan o’rin, joy biror narsa saqlanadigan yoki o’zakdan anglashilgan ish bajariladigan bino ma’nosini anglatuvchi affiksoid ham dir. Otdan ot yasaydi: pilla/xona, bosma/xona, choy/xona, to’y/xona, grim/xona, quyon/xona kabi.

xush- tojik tilidan kirgan, asosan, otlar oldidan kelib, “yaxshi”, “yoqimli” ma’nosidagi sifat hosil qiladigan affiksoid: xush/bichim, xush/muomala, xush/tabiat, xush/manzara kabi.

-xo’r tojikcha xo’rdan –“yemoq” fe’lidan, negizda anglashil- gan predmetni yeydigan, ichadigan yoki ko’p yeydigan, ko’p ichadigan shaxsni bildiruvchi ot yasaydi: go’ja/xo’r, palov/xo’r, qimiz/xo’r, shattoli/xo’r, non/xo’r,

go'sht/xo'r, choy/xo'r. Ba'zan sifatlarga ham qo'shilib, shaxsni belgi orqali anglatadi: tekin/xo'r kabi.

-ch I fe'lining o'zlik darajasidan, umuman, **n** tovushi bilan tugagan fe'llardan abstrakt ot va sifatlari yasaydi: sev/in/ch, ishon/ch, o't/in/ch, quvon/ch, suyan/ch, ayan/ch, suyan/ch, shoshil/in/ch, o't/in/ch, qo'rq/in/ch. Ma'nosi: holat oti, abstrakt tushuncha, belgi oti.

-ch II **n** tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilib, sifat yasaydi: jirkan/ch, tin/ch kabi.

-cha I otlar sostavida kichraytirish va erkalatish affiksi sifatida ajratiladi: qiz/cha, yigit/cha, arava/cha, lampa/cha, zarra/cha, xo'roz/cha, yulduz/cha. Bu affiks sifatlarda, ravishlarda, shuningdek, fe'llar sostavida ham kichraytirish ma'nosida kela oladi: qisqa/cha, hozir/cha, o'rta/cha, terma/cha/la/moq kabi.

-cha II o'xshatish, tarz kabi ma'nolar bilan bog'langan ravishlar hosil qiladi: yangi/cha, evropa/cha, bola/lar/cha, o'zga/cha, qush/cha (urg'usi birinchi bo'g'inda) va boshqalar. O'n/lar/cha, yuz/lar/cha, ming/lar/cha kabi so'zlar sostavida chama, oshirish ma'nosini bildiradi.

-cha III bu affiks ayrim hollarda bir qo'shilmaning o'zida ikki xil vazifani bajaradi: sifatga qo'shilib, kichraytirish ma'nosini saqlagan holda uni otga aylantiradi: masalan, qizil/cha (lavlagining bir turi, shuningdek, kasallik nomi), ko'k/cha (qovunning turi). Bunday hollarda -cha morfemasi so'z yasovchi sanaladi.

-chak I kelin/chak, tugun/chak kabi otlar sostavida -cha affiksi anglatgan kichraytirish ma'nosini bildiradi (q. -cha). O'yin/choq kabi qo'llanishlarda kichraytirish bilan birga ob'ekt nomi ham kelib chiqadi.

-chak II iyman/chak, kuy/in/chak, erin/chak kabi so'zlarda fe'lining o'zlik daraja formasidan sifat yasaydi. Shu xususiyat bilan xarakterlanuvchi shaxsning belgisini anglatadi (q. -choq).

-chan I otlar, harakat nomlariga qo'shilib sifat yasaydi: a) ish otlariga qo'shilganda shaxsni shu harakat bilan xarakterlanish belgisi orqali aniqlaydi. Bunda ko'pincha ortiqlik ma'nosi ham bo'ladi. Misol: yashov/chan, sez/uv/chan, yon/uv/chan; b) otlarga qo'shilganda ortiqlik ma'nosi bilinadi: bo'y/chan, o'y/chan, uyat/chan. Bunda -li affiksi bilan yaqinlik bor: bo'y/chan//bo'y/li.

-chan II otlarga qo'shilib, "shu predmetning o'zi bilangina" yoki "shu predmetsiz" ma'nosidagi sifatlari yasaydi: kuylak/chan, mayka/chan, mahsi/chan va boshqalar.

-chang (q, -chan).

-chasiga (-ch +-siga) ravish yasovchi bo'lib, harakatning qanday bajarilishini, bu jihatdan o'zakdan anglashilgan predmetga o'xshatish ma'nosini bildiradi: harbiy/chasiga, soldat/chasiga, qahramon/chasiga, mard/chasiga, dehqon/chasiga, ochiq/chasiga. Bunda asl ma'noni -cha affiksi beradi. -si+-gu elementi esa shu ma'noni bir oz kengaytiradi.

-chi I otlardan (ish otlaridan, harakat nomidan ham), ba'zan sifat, son, olmoshlardan ot yasaydiganserunum affiksidir: ish/chi, kolxoz/chi, o'quv/chi, ko'pming/chi, a'lo/chi, ikki/chi (dvoechnik) kabi.

Ma'nosi xilma -xil bo'lib, bu turlilik o'zak-negizning semantik xarakteriga bog'liqdir: a) predmet otlariga qo'shilganda, "shuni yasash, sotish, biror ishni shu orqali bajarish, shuni boshqarish" kabi ma'nolarni anglatadi; b) ish otlariga qo'shilganda, shu harakatning bajaruvchisini bildiradi: ter/im/chi, tash/uv/chi, tinglov/chi kabi; v) sifatlarga qo'shilganda, shu belgi bilan karakterlanish ma'nosini anglatadi: a'lo/chi, qiziq/chi.

-chi II so'roq, kuchaytiruv, taajjub ma'nolarini anglatuvchi yuklama: Karim/-chi, sen/chi, otsang/-chi, kelsang/-chi kabi.

-chil I otlarga qo'shilib, biror xususiyatga ega ekanlik va bundagi ortiqlikni anglatadi: dard/chil, xalq/chil, ep/chil, iz/chil.

-chil II sifat va ravishlarga qo'shilib, ozaytirish-kuchsizlik ma'nosini bildiradi. Bunda -roq affiksi anglatgan ma'noga yaqin mazmun ifodalanaadi: Qiyos.: ko'k / chil // ko'k / roq // ko'k / ish; kam / chil//kam/roq; oq/chil//oq/roq//oq/ish//oq/imtir.

-chilik (-chi +-lik)qo'shma affiks; ot yoki sifatlardan kasb -hunar, holat bildiruvchi ot yasaydi: sodda/chilik, quda/chilik, oila/chilik, oshna/chilik, xursand/chilik, qassob/chilik kabi.

Ayrim izohlar: 1) shaxs bildiruvchi so'zga -chilik qo'shilgan- da pleonazm hosil bo'ladi (sovun/gar/chilik kabi). Bunda shaxs bildiruvchi morfemalardan birining ma'no va funksiyasi kuchsizlanib, uforma yasovchiga yaqinlashadi; 2) pishiq/chilik, loy/gar/chilik kabi o'rinlarda -chi affiksi bevosita shaxs ma'nosini ifodalamaydi. Qo'shma suffiksning bir elementi sanaladi; 3) qari/chilik (qiyos.: qari/lik) tipidagi qo'llanishlarda -chi affiksi nozik bir semantik ottenkani ko'rsatadi. Bunday o'rinlarda u morfema yasovchi bo'ladi.

-chiq I ot va sifatlarga qo'shilib, sub'ektiv baho formasini hosil qiladi, kichraytirish, erkalash ma'nolarini bildiradi: qop/chiq, qora/chiq, bola/chiq, to'y/chiq kabi. Bu affiks -choq elementining allomorfidir (q. =choq, -chak).

-chiq II sirpan/chiq, yupan/chiq, qizg'an/chiq, sirg'an/chiq kabi so'zlar sostavida fe'llardan sifat yasovchi bo'lib, o'sha xususiyatga egalik ma'nosini anglatadi va maqtan/choq tipiga yaqin keladi.

-choq kichraytirish va erkalsh ma'nosidagi ot formasini hosil qiladi: qo'zi/choq, toy/choq.

-sh I fe'ldan harakat nomi va unga omonimik munosabatdagi ot yasaydi. Qiyos.: o'qi/sh (ot)// o'qi/sh (fe'lning ayrim formasi).

-sh II fe'llarda birgalik daraja hosil qiladi: ayb/la/sh/di, quchoq/la/sh/di, ish/la/sh/di, qara/sh/di, uchra/sh/di kabi.

-sh III fe'lning o'zlik formasini hosil qiladi: bur/ish/moq, qur/ish/moq, og'ir/la/sh/moq kabi.

-shunos tojik tilidan kirgan, tanimoq ma'nosidagi so'zdan olingan otlarga qo'shib, kasb –hunar, mutaxassislik, mashg'ullik oti yasaydi –passiv element: til/shunos, adabiyot/shunos, sharq/shunos, huquq/shunos, tuproq/shunos, tovar/shunos kabi. Ko'pgina o'rinlarda –chi affiksiga to'g'ri keladi va u bilan almasha oladi: til/shunos// til/chi.

-yum (q. –um, –im II, –m II).

-yajak (q. ajak).

-yap (ya+p) –a, –y bilan yasalgan ravishdoshlardan fe'lning hozirgi zamon davon formasini hosil qiladi: kel/ya(ya)p/man, ish/la/ya(ya)p/man, bosh/la/ya(ya)p/man kabi.

Bu morfema aslida, “yotmoq” so'zidan bo'lib, affikslanish prosessini kechirgan.

-q I unli bilan tugagan fe'llardan narsa, qurol va prosess bildiruvchi otlar, shu harakat bilan turlicha belgini anglatuvchi sifatlar yasaydi: o't/o/q, quro/q, suvo/q (q.-iq, –oq, –uq).

-q II unli bilan tugagan fer'llardan sifat yasaydi, harakat va holat darajasida yuzaga kelgan belgini bildiradi: tarqo/q, por/lo/q, chanqo/q, shildir/o/q, tit/ro/q, xir/il/do/q kabi (q.-k, –ik, –iq, –uk, –uq, –ak, –oq).

-qa I jo'nalish kelishigi qo'shimchasi: q, g' tovushi bilan tugagan so'zlardan keyin qo'shiladi: qirg'oq/qa, boq/qa (g'+g'→q+q), toq/qa (tog') kabi (q.-ga, –g'a, –ka).

-qa II fe'ldan sifat yasovchi affiks: qis/qa, qash/qa. Ma'nosi: natija oti.

-qaz jarangsiz undosh tovushdan so'ng qo'shilib, fe'lning o'stirma darajasini ko'rsatadi: qut/qaz/moq, yut/qaz/moq, o't/qaz/moq, tut/qaz/moq (q. – gaz, -giz, -kaz, -kiz, -qiz, -g'iz).

-qali: chiq/qali, taq/qali, uq/qali (q. –gani, -gali).

-qan (q. –gan, -kan I).

-qani: chiq/qani, tuq/qani, boq/qani (q. -qali).

-qach: (chiq/qach, qiziq/qach, taq/qach, tuq/qach, boq/qach) (q. -g'ach, -kach).

-qacha: toq/qacha, qish/loq/qacha, qirq/qacha (q. –kacha, -gacha).

-qi I jarangsiz undosh tovush bilan tugagan fe'l negizlariga qo'shilib, narsa, qurol, ob'ekt oti yasaydi: sachrat/qi, achit/qi, qichit/qi, soch/qi, ivit/qi, chop/qi (q. –ki).

-qi II nisbiy sifat yasaydi, negizdan anglashilgan harakat bilan bog'liq belgi, o'rin, vaqtga aloqadorlikni bildiradi: vaysa/qi, qabar/in/qi, qis/in/qi.

-qiz: o't/qiz/moq, yut/qiz/moq (q. -kiz, -giz).

-qil(arx.) boq/qil, chiq/qil, uq/qil (q. -qin).

-qin I fe'ldan ot va sifat yasaydi: to'l/qin, bos/qin, to's/qin, sot/qin, tosh/qin. Ma'nosi: proses nomi, bajaruvchi nomi va boshqalar.

-qin II boq/qin, toq/qin (q. -gin, -kin).

-qina: qiz/a/loq/qina(m); bo'ta/loq/qina(m), do'ndiq/qina(m), qar/o/q/qina(m)kabi (q. -gina, -kina).

-qir: chop/qir, top/qir, uch/qir (q. –gir, -kir, g'ir).

-qich fe'llarga qo'shilib (jarangsiz undosh tovushdan keyin), qurol – asbob otini yasaydi: qis/qich, yorit/qich kabi.

-qoq I: qoch/qoq, bot/qoq, tut/qoq (q. -g'oq, -kak, -gak).

-qoq II: fe'llardan biror belgi bilan xarakterlanish ma'nosidagi sifatlar yasaydi: tirish/qoq, urush/qoq, qoch/qoq, yopish/qoq, uyush/qoq, burish/qoq kabi.

-qu(arx): cho/qu kabi (q. –qiII).

-qun: uch/qun, tut/qun (q. –g'in, -qin, -gin).

-quncha: chiq/quncha, tuq/quncha, yoq/quncha (q. -guncha).

-qur: uch/qur (qiyos.: chop/qir) (q. -gir, -kir, -qir, g'ir).

-g'a I (q. –ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi).

-g'a II memimadan ot yasaydi: g'ov/g'a (qiyos.: g'ov/ur-g'uv/-ur).
Ma'nosi: shu ovoz bilan xarakterlanadigan hodisa.

-g'az: tur/g'az, to'lg'az kabi (q. -qaz, -kaz).

-g'i: chal/g'I, yon/il/g'I, yoq/il/g'I, qir/g'I (q. -gi, ki).

-g'iz: to'y/g'iz/moq, to'l/g'iz/moq, o'tir/g'iz/moq kabi (q. -g'az, -giz; -kaz, -kiz; qaz, qiz).

-g'in I fe'ldan ot yasaydi. Ma'nosi: jarayon va holatning nomi. Misol: yon/g'in, quv/g'in, qir/g'in kabi (q. -qiz, -kin).

-g'in II fe'ldan sifat yasaydi: oz/g'in, so'l/g'in. Ma'nosi: shu belgi bilan xarakterlanish, o'zakdan anglashilgan harakat natijasida tug'ilgan belgi.

-g'ir: ol/g'ir, o'z/g'ir (q.-gir, -kir, -qir, -qur).

-g'ich I: qash/la/g'ich, elpi/g'ich, qir/g'ich, chiz/g'ich, sava/g'ich, to'g'na/g'ich, tomiz/g'ich, so'r/g'ich (q.-gich, -kich, qich).

-g'ich II: yul/g'ich, bosh/la/n/g'ich, suz/on/g'ich, qop/on/ g'ich kabi (q. -gich, -kich)

-g'oq I fe'ldan ot yasaydi: to'lg'oq. Ma'nosi: harakat-holat nomi.

-g'oq II fe'ldan sifat yasaydi, predmetning xususiyatini anglatadi: toy/g'oq.

-g'u: chol/g'u, ur/g'u, tuy/g'u (q. -gu, -ku).

-g'un II fe'ldan sifat yasaydi. Ma'nosi "shu xususiyatga ega bo'lish" mazmunidagi belgi: buz/g'un, uy/g'un, tuy/g'un (q. -gun, -g'in, -gin).

-ham- ham/fikr, ham/suhbat, ham/kasb kabi (q. dosh).

Shodiyev F. T.

ONA TILI

Oliy o'quv yurtlari pedagogika fakultetlarining boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

J. Bozorova
L. Xoshimov
B.Egamberdiyev

ISBN 978-9943-6429-5-9

2020 yil 25 iyulda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2020 yil 29 iyulda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84^{1/16}. "Times New Roman" garniturasida.
Offset qog'oz. Shartli bosma tabog'i – 25,0.
Adadi 80 nusxa. Buyurtma № 281.

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISBN 978-9943-6429-5-9



9 789943 642959